

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

**«O`RTA ASRLAR TARIXI»
FANIDAN O`QUV – USLUBIY MAJMUA
(USLUBIY QO`LLANMA)**

Guliston – 2007

**AHMEDOVA N.A. «O'RTA ASRLAR TARIXI» FANI B'YIICHA UQUV –
USLUBIY MAJMU'A. GULISTON -2006. 86 BET.**

Мазкур ўқув—услубий мажмуа Гулистон Давлат Университети Тарих факультети талабалари учун «Ўрта асрлар тарихи» фандан тайёрланган бўлиб, ундан ишчи дастур, рейтинг ишланмаси, аудиторияда ўтиладиган ўқув машғулоти (ваъз, амалий машғулоти), мустақил равишда ўрганишга тавсия қилинган мавзулар, улардаги кўриб чиқилиши лозим бўлган саволлар ва бажариш юзасидан методик тавсиялар ўрин олган бўлиб, тегишли адабиётлар рўйхатлари ҳам келтирилган. Мажмуа охирида оралиқ ва якуний баҳолаш саволлари берилган. Ушбу ўқув-услубий мажмуа тарих факультетида таълим бераётган профессор — ўқитувчилар учун мўлжалланган.

Ахмедова Н.А. Учебно – методический комплекс по «Истории средних веков». Гулистон – 2006. 86 ст.

Данный учебно-методический сборник подготовлен для студентов исторического факультета ГГУ по предмету «История средних веков». Сборник включает в себя рабочую программу, рейтинговую разработку, лекции и практические занятия, темы рекомендованные к самостоятельному изучению, вопросы подлежащие обсуждению, методические рекомендации и список литературы. В конце сборника приведены вопросы для промежуточного и итогового контроля. Данный учебно- методический сборник предназначен для преподавателей исторического факультета.

Ahmedova N.A. Educational – metodikal collection on «History of Middle Ages». Gulistan. 2006. – 86 pg.

The certain educational-and-methodie collection is prepared for the students of the History fakulty of Gulistan State University on me subject “History of Middlee Ages”. It includes the working programme, grading, criteria, texts of lectures, praktikal lessons, themes recommended for self studing, the questions for discussion, metodical rekomedations and the list of literature. There are tasks for intermediate and final control in the end of the collection. This collection is intended for the teachers of Historical fakulty of Gulistan state University.

**Mas'ul muharrir:
Taqrizchi:**

**dots.Omonjulov T.O. (Gul.DU)
t.f.n. dots. O'. Erbo'taeva (Gul.DU)**

I. SO'Z BOSHI

Quyidagi o'quv-uslubiy majmua amaldagi dasturlar asosida tayyorlanib, 5220200 tarix ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallanadi. Unda zamonaviy pedagogik texnologiya tizimiga suyangen holda unda Indentiv o'quv maqsadlari, mavzu bo'yicha ko'rib chiqilishi zarur bo'lgan muammolar, har bir savol uchun muhokama savollari, nazorat topshiriqlari, talabalar mustaqil bajarishi kerak bo'lgan topshiriqlar va har bir mavzu uchun birlamchi adabiyotlar ro'yxati berilgan. Majmua 3 ta katta modullarga bo'lingan holda, o'rta asrlarning ravnaqi XI-XVII asr o'rtalarini o'z ichiga oladi. Bu davrda feodal ishlab chiqarish usuli qishloqda to'la rivojlanib qolmasdan, balki sex hunarmandchiligiga va o'ziga xos shahar ijtimoiy tuzumiga ega bo'lgan o'rta asr shaharlari ham rivojlanib, muvaffaqiyatlarga erishdi, bu tuzumning xususiyatlari shundaki, erkin shahar deb atalgan respublika-shaharlarining vujudga kelishi bilan harakterlanadi.

Mazkur o'quv-uslubiy majmua univversitetlarining tarix fakulteti kunduzgi bo'lim talabalarining o'rta asrlar tarixidan olib boradigan mustaqil ishlari, amaliy mashg'uloti, og'zaki so'rov va boshqa mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda yo'l-yo'riqlar ko'rsatishga mo'ljallangan. Unda talabalarga o'rta asrlar tarixidan muhim muammolarni o'rganish, amaliy mashg'ulotlari va mustaqil ish topshiriqlariga tayyorlanishda juda muhim ba'zi metodik ko'rsatmalar bilan birga ana shu masalalarni mukammal o'rganishga yordam beradigan asl manbalardan parchalar keltirilgan. Ushbu majmuada keltirilgan tarixiy manbalar ikkinchi darajali dalillar va kam ahamiyatli voqealar hisobiga qisqartirilgan. Biroq aniq tarixiy manbaning asosiy mazmuni saqlanib qolgan. Shu bilan birga har bir mavzu oxirida fandan yechimini kutayotgan ilmiy muammolar ro'yxati keltirilgan.

II. ISHCHI DASTURI.

Fanning maqsad va vazifalari.

Har bir davrlarda ma'lum bir ijtimoiy va siyosiy tuzum va qoidalarini o'z ichiga olib uni yoritadilar. Eng qadimgi dunyo tarixi odamning paydo bo'lishi jamiyatdagi o'zgarishlar va taraqqiyotlari ko'zga tashlanadi. Ular qadimgi davrda ilk tabaqalanish va uning oqibatlarini quldorlik tizimi quldorlar va qullar ahvalidir. O'rta asrlar tarixi davri esa insoniyat tarixining o'zgarishlarga boy davri o'rganiladi. O'rta asrlar davri V-XVII asrning 2 yarmini o'z ichiga olib bu davr mobaynida yuz bergan o'zgarishlarni o'rganadi. Feodalizm kurtaklaridan boshlab uning rivojlanishi taraqqiyoti va tannazulga qarab kelishlarining sabablari ni o'rganadi. Burjuaziya tabaqa vakilari etilishi va asta sekin ko'tarila borishi uyg'onish davri madaniyati geografik kashfiyotlar, ilk mexanizmlarning yaratilishini o'rganadi.

№	Mavzular nomi	Mavzuda yoritiladigan masalalar	Ma'ruza soati	Adabiyotlar ro'yxati
1	Uyg'onish (renessans) davrini o'rganishning muhim o'ri	Sharq madaniyatining o'ziga xosligi. Yevropada uyg'onish davrining yuzaga kelishida Sharq madaniyatining ta'siri. Sharq va G'arb fan rivojlanishi. Uyg'onish (renessans) tarixiy jarayon ekanligi. O'rta asr madaniyatining yuzaga kelish sabablari. Iqtisodiy imkoniyat egalarining o'tmish madaniyatini jonlantirish maqsadida qilgan ishlari. Uyg'onish madaniyatining yuzaga kelishidagi shart – sharoitlar.	2	1.Semyonov F.V. «O'rta asrlar tarixi» M., 1971 y. 2.Лампрехт К. История Германского народа. М., 1985 г. 3. Культура эпоха Возрождения. М., Наука. 1986.
2	Buyuk geografik kashfiyotlar va mustamlakalar ning paydo bo'lishi	O'rta asrlargacha bo'lgan jo'g'rofik kashfiyotlarning ahamiyati. Jahon xalqlari jo'g'rofiyasi tarixida sharq mamlakatlariga sayohatlar haqida	4	1.Semyonov F.V. «O'rta asrlar tarixi» M., 1971 y 2. История Франции. В. 3-т. полтитетр. 1972. 3. Книга Морко Поло. М., Мысл. Т.,1995. 4. Путешествия Х.Колумба.

		tushuncha. Sayohatlar natijasida Buyuk jo`g`rofik kashfiyotlarni ochib byerish. Ularning tarixiy va tarbiyaviy o`rni.		Дневник,письма,документы. М., Наука.1961.
3	XII – XV asrlarda Rus davlati	Feodal tarqoqlikning sabablari va mohiyati. Yer egaligining o`shishi va shaharlar. Xalq qo`zg`olonlari. Siyosiy tuzum. Tashqi dushmanlar bilan kurash. Feodal tarqoqlik davrining o`ziga xosligi. Feodal tarqoqlik davrida Rus yyerlari. Ijtimoiy – siyosiy tuzumning rivojlanish xususiyatlari. Dehqonchilik, hunarmandchilikka savdoning rivojlanishi. Feodal yyer egaligining rivojlanishi. 1240 – 1242 yillardagi janglar va ruslar g`alabasi. Aleksandr Nevskiy. Mo`g`ul – tatar bosqinchilariga qarshi kurash. Oltin O`rda davlatining tashkil topishi. Yer egaligining o`shishi. Din va uning jamiyat hayotiga o`rni	2	1.Semyonov F.V. «O`rta asrlar tarixi» М., 1971 у 2.Вернадский Г.В. Золотач Орда, Египет, Византия и их взаимоотношения в сарсвовании Михаила Палелоба. М., 1972. 3. Сказкин С.Д. Хрестоматия по истории средних веков. Т.,1973.
4	XIII asrlarda mo`g`ul davlati va uning istilolari	XI – XIII asrlarda mo`g`ul qabilalari. Mo`g`ul davlatining vujudga kelishi. Chingizxonning bosqinchilik yurishlari. Mo`g`ul impyeriyasi. Yuan davlati. Ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar. Markaziy Osiyo mo`g`ul davlati tarkibida.	2	1.Semyonov F.V. «O`rta asrlar tarixi» М., 1971 у 2.История Арабкого халифата. М.Изд. Восток.Лит. 1989. 3. История Арабского халифата. 1975. 4. История народов Восточной и Центральной Азии. М., 1986.

		Chingizlar davrida mo`g`ul impyeriyasi. Feodal tarqoqlik.		
5	XI – XV asrlarda Fransiya	XI – XV asrlarda Fransiya. Feodal jamiyati guruhlarining tiklanish jarayonining xususiyatlari. XI – XV asrlarda agrar tuzumdagi o`zgarishlar. XIV – XV asrlarda Fransiya. XIV asrda feodallar va dehqonlar. Shahar ijtimoiy hayoti. Markazlashgan jarayon. Papa bilan kurash va Bosh shtatlarning vujudga kelishi. Yuz yillik urush. 1356 – 1358 yillardagi Parij qo`zg`oloni. Jakyeriya va Parij qo`zg`oloni. Feodal urushlar. Kaboshenlar qo`zg`oloni. Yuz yillik urushning ikkinchi davri. Janna D Ark xalq qahramoni. XV asr ikkinchi yarmida Fransiyaning siyosiy birlashishi. Fransiya va Markaziy Osiyo Gilom de Rubruk missiyasi	2	1.Semyonov F.V. «O`rta asrlar tarixi» M., 1971 y 2.История Франции.В.3-т М. Полтилетр. 1972. 3. Хрестоматия по истории средних веков. 2-том. Учпедгиз. 4.Грановский Т.Н. лекции по истории средневековая. М., МГУ., 1986. 5. История средних веков (под ред. З.В. Удальцевой и С.П.Карпова. 1-2.. М.,Высшая школа.,1991.
6	XII – XV Bolgariya va Syerbiya. Bolqon yarim orolida Turkiya istilolari	Ikkinchi Bolgariya podsholigi haqida ma'lumot. XIII – XIV asrlarda Bolgariyaning iqtisodiy taraqqiyotini ochib byerish. 1277 – 1280 yillardagi dehqonlar urushining mohiyati. Bolgariyaning iqtisodiy taraqqiyoti. Ikkinchi Bolgariya podsholigining qulashi. Syerbiyadagi siyosiy vaziyat. Stefan	2	1.История Болгарии – М. Полтиздат, 1954. 2.Истории Югославия М. 1969. 3.Сказкин С.Д. Хрестоматия по истории средних веков. Т., 1973. 4. Истоия средних веков (под. ред. З.В. Удальцова и ,П. 5. Карпова. 1-2 ч. М., 1991. Д.Е.Еремеев. История Турции. М., 1987.

		dushan podsholigi davrida Syerbiyaning ijtimoiy hayoti. Stefan Dushandan keyingi Syerbiyaning ahvoli Usmon davlatining tashkil topishi. Bolqon yarim orolida Usmoniy turklar istilosi. Kosovo maydonidagi jangning ahamiyati		
7	X – XIV asrlarda Yaponiya	Sotsial – iqtisodiy munosabatlar. Samuraylarning kelib chiqishi, manbalari, tashkiliy tuzumi va g`oyasi. Yapon shaharlarining rivojlanishi. Eks imperatorlar davri va ular hokimiyatining ijtimoiy – iqtisodiy asoslari. Mo`g`ullar hukumining boshlanishi va uning sotsial – iqtisodiy oqibatlari. Segunat. Ichki va tashqi siyosat. Shaharlar va savdoning rivojlanishi.	4	1.Semyonov F.V. «O`rta asrlar tarixi» M., 1971 y 2. Д.Е.Еремеев. История Турции. М. 1987. 3. Люблинская А.Д. Источниковедение истории средних веков. Л., 1995. 4.грановский Т.Н. лекции по истории средневековья. М., МГУ., 1986.
8	XI – XV asrlarda Xitoy	Yer – suv mulkni taqsimlash uchun feodallar kurashi. Yan – yan islohotlar. Tan davlatida qarama - qarshiliklarni keskinlashuvi. IX asrlarda dehqonlar urushi. Sun sulolasi davlatining vujudga kelishi. Davlat tuzumi. Tashqi va ichki siyosat. Yer munosabatlari. Shaharlar hunarmandchilik va savdo. X-XII asrlarda	2	1.Semyonov F.V. «O`rta asrlar tarixi» M., 1971 y. 2.Хрестоматия по истории средних веков. 2-том. Учпедгиз. 3. Сказкин С.Д. Хрестоматия по истории средних веков. Т.,1973.

		qo`zg`olonlar.		
9	VIII – XV asrlarda Arab davlatlari	Bog`dod xalifaligining vujudga kelishi. Abbosiylar. Bag`dod xalifaligining parchalanib ketishi. Fotimiylar, Ayubiylar, mamluklar. Salibchilarga qarshi kurash. So`fizm, Arab xalifaligi. Markaziy Osiyo tarixidagi o`rni. Din, jamiyat va madaniyat	2	1.Semyonov F.V. «O`rta asrlar tarixi» M., 1971 y. 2. История народов Восточной и центральной Азии. М.,1986. 3. История Арабского халифата.
10	VIII – XIV asrlarda Eron va Turkiya	Eron Abbosiylar tarkibida. Yer egaligi. Soliq tizimi. Shaharlar. G`aznaviylar. Islomiylar. Eronni mo`g`ullar tomonidan egallanishi. Eron Temur davlati tarkibida. Vizantiya davlati bilan urushlar. Mo`g`ul istilos. Usmoniylar davlati. Konstantinopolning olinishi. Markaziy Osiyo bilan aloqalar	2	1.Semyonov F.V. «O`rta asrlar tarixi» M., 1971 y. 2. История народов Восточной и центральной Азии. М.,1986. 3. Сказкин С.Д. Хрестоматия по истории средних веков. Т.,1973.
11	IX – XI asrlarda Italiya	Italiyaning siyosiy tarqoqligi. Feodal munosabatlarning vujudga kelishi. Shaharlarning rivojlanishi. Italiya davlatlarining siyosiy taraqqiyoti.	4	1.Semyonov F.V. «O`rta asrlar tarixi» M., 1971 y. 2. История средних веков. под ред. З.Д. Удальцевой и С.П. Карпова. М.,1991. 3. Сказкин С.Д. Хрестоматия по истории средних веков. Т.,1973.
12	Hindistonda imperyalizm davrida xalq ommasini ekspluatatsiya qilishni kuchaytirish	Milliy sanoatning tashkil topishi. Revolyutsiyaning boshlanishi «svora radj» va «svodeni» shiorlari. Milliy kongressning roli. 1900 – 1907 yillardagi revolyutsion harakatlar. Hind – musulmon ziddiyatlar. 1908 yil	2	1.Semyonov F.V. «O`rta asrlar tarixi» M., 1971 y. 2. История средних веков. под ред. З.Д. Удальцевой и С.П. Карпова. М.,1991. 3. Сказкин С.Д. Хрестоматия по истории средних веков. Т.,1973.

		revolyutsion harakatlar. 1905 – 1908 yillar revolyutsiyalarini yyengilish sabablari.		
13	XV – XVII asrlarda Koreya	XVI asrda Koreyani sotsial – iqtisodiy taraqqiyoti va siyosiy ahvoli. Koreya xalqining Yapon bosqiniga qarshi kurashi. XVII asr birinchi yarmida Koreya. Manchjur bosqini. Feodal yyer egaligi. Dehqonlar harakati	2	1.Semyonov F.V. «O`rta asrlar tarixi» M., 1971 y
14	XVI – XVII asrlarda Turkiya	XVI asrda Usmoniylar impyeriyasining iqtisodiy rivojlanishi xususiyatlari. Ijtimoiy – siyosiy hayot. Davlat tuzumi. Armiya. XVI asr birinchi yarmida Usmoniylar impyeriyasining bosqinchilik siyosati. Usmoniylar impyeriyasining xalqaro aloqalari va birinchi taslim bo`lishi	4	1.Semyonov F.V. «O`rta asrlar tarixi» M., 1971 y. 2. История народов Восточной и Центральной Азии. М.. 1986.
15	XV – XVII asrlarda Yaponiya	O`zaro urushlar davrida Yaponiya. Birlashish uchun kurash. XVI asr boshlarida Yaponiyaning iqtisodiy va siyosiy ahvoli	2	1.Semyonov F.V. «O`rta asrlar tarixi» M., 1971 y. 2. Тизегаузен В.Г. Сборник материалов относящихся к истории Золотой Орды. Спб. М., Л., 1941.

III. FAN BO'YICHA PEYTING ISHLANMASI VA BAHOLASH MEZONI:

3.1. «O'rta asrlar tarixi» fani bo'yicha reyting ishlanna

T-p	Nazorat turlari	soni	ball	jami ball
I	JB			
	1.1.Seminar mashg'ulotlarini bajarish	15	2	30
	1.2. Og'zaki so'rovlar	2	5	10
	1.3.TMI uyga vazifa	3	5	15
II	OB			
	2.1. Oraliq baholash	2	5	10
	2.2.TMI (uyga vazifa)	1	5	5
	2.3. Refarat tayyorlash	1	10	10
III	YaB			
	3.1 Yakuniy baholash (yozma variantlar asosida)	1	15	15
JAMI				100

3.2. «O'rta asrlar tarixi» fanidan baholash mezonl

1.1. JB bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda qatnashib, uning topshiriqlarini to'la bajargan talabalarga 2 ball byeriladi, agar to'liq bo'lmasa 1-1,5 ball byeriladi.

1.2. Baxs munozarada faol qatnashgan talabaga 2-ball, o'rta darajada qatnashgan talabaga 1-ball byeriladi.

1.3. Oraliq baholash yozma o'tkazilib 3 ta savolga javob byerilib maksimum 5 ball qo'yiladi yozma ish 2-marta o'tkaziladi.

1.4. Mustaqil ish fandan ko'rgazmali qurol tayyorlab kelish 2 balldan 5 ballgacha baholanadi.

1.5. Yakuniy baholash yozma ravishda o'tkazilib talaba 3 ta savolga javob byerish lozim.

- Har bir yozma savolga 5 ball ajratiladi.
- Savol mohiyati to'la yoritilmagan bo'lsa – 3-3,5 ball
- Savolga javob byerilgan, lekin kamchiliklar bo'lsa – 4-4,5 ball byeriladi.

IV. LEKSIYALAR KURSI:

**1- mavzu: Uyg'onish (renessans) davrini o'rganishning muhim o'rnini.
Ajratilgan vaqt – 4 s.**

Asosiy savollar:

1. Yevropadagi mamlakatlar tarixida renessansning yuzaga kelishi.
2. Uyg'onish davrining boshlanishiga asosan turtki bo'lgan shart-sharoitlar.
3. Ilk italyan uyg'onishi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Uyg'onish (renessans), insonparvarlik, neoplatonizm, san'at, madaniyat, dunyoqarash, arxitektura, badiiy fikrlar, publitsistlar, gumanizm, intillegentsiya, «Plutokratiya», Guttenbyerg, «Italiya burjuaziyasi», asketizm, Levant savdosi, «Qaytadan tiklash».

Mavzuga oid muammolar:

1. Italiya burjua madaniyati ilk uyg'onish davri madaniyati deb hisoblanadi. Bu qarashga qo'shilasizmi yoki yo'qmi? Javobingizni asoslang.
2. Uyg'onish davrini ko'pincha gumanizm nomi bilan atashadi. Sizningcha nima sababdan shu atama bilan nomlangan deb o'ylaysiz?

1-savol bo'yicha dars maqsadi: XIV – XV asrda Yevropadagi ijtimoiy – siyosiy vaziyatning harakterini aniqlash, yangi fan va madaniyat rivojlanishidagi shart-sharoitlarda Italiyaning rolga baho byerish, hamda «uyg'onish» tyermini haqida talabalarda tushuncha hosil qilish.

Indentiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Ilk Uyg'onish davri Yevropa tarixida Italiyada vujudga kelish shart-sharoitlarini tushunib yetadi.
- 1.2. Yevropada Uyg'onish davrining yuzaga kelishida Sharq madaniyatining ta'siriga baho byeradi.
- 1.3. Jahon tarixida Sharq va G'arb fan rivojlanishini qiyoslay oladi.

1 – asosiy savolning bayoni:

XIV – XV asrlarda Italiyada shaharlarning yuksalishi, sanoatning taraqqiy etishi va dastlabki manufakturalarning paydo bo'lishi Italiyaning Yevropa va Sharq mamlakatlari bilan umumiy aloqalarining natijasi edi. Italiya shaharlarida bank, kredit xalqaro kredit opyeratsiyalarining bo'lishi boshqa davlatlarga nisbatan Italiyada ilk kapitalistik munosabatlarining yuzaga kelishiga zamin tayyorlaydi.

Italiyada oldinroq ilk burjuaziya madaniyati yuzaga keldi. Bu madaniyatning nomi Uyg'onish (renessans) davri madaniyati deb nomlanadi. Ilk burjuaziya Italiyasi uchun o'z sanoati, savdo-sotig'i uchun Italiya shaharlariga o'z faoliyatlarini yuksaltirishlari uchun aniq fanlar, jumladan matematikaning zarurligi ko'rinib qoldi. Italiya burjuaziyasi o'z turmush darajasini yaxshilash, chiroyli va hashamatli uylarda hamda did bilan yashash uchun san'ati ham o'zlariga qabul qilishlari zaruriyati

tugildi. Shuning uchun Italiya burjuaziyasi ichidan dastlabki adabiyotchilar, filosoflar, tarixchilar, shoirlar, musiqachilar, arxitekturalar, rassomlar va boshqalar vujudga kela boshladi.

Bularning hammasi Italiyada yangi g'oyalarning vujudga kelishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Tarkib topayotgan g'oyatda boy italyan burjuaziya sinfi bilan bir qatorda Italiya shaharlarida aqliy mehnat vakillarining hamda adabiyot va san'at bilan shug'ullangan kishilarning ko'pdan-ko'p guruhi: ko'pdan-ko'p adabiyotchilar, shoirlar, publitsistlar, vrachlar, o'qituvchilar, injenyerlar, erkin kasb ustalari, rassomlar, haykaltaroshlar, arxitektorlar va boshqalar o'sib bormoqda edi. Yangidan tug'ilib kelayotgan ijtimoiy tabaqaning – intelegentsiyaning bu barcha vakillari Uyg'onish madaniyati yoki gumanizm deb nom olgan yangi madaniyatning bevosita arboblarga aylandilar.

Italiya xalq ommasi yangi progressiv, ilg'or madaniyatning ravnaqiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Xalq ommasining kundalik qattiq mehnati, hali o'z ahamiyatini yo'qotmagan yuksak darajadagi hunarmandlik, xalq ommasining hokim (plutokratiya) boylarga qarshi juda qattiq ba'zan jon-jaxdi bilan olib borgan kurashi, umumiy hayotiy optimizm va birdamlik Uyg'onish madaniyatining eng yaxshi vakillarini ruhantirib yubordi, gumanistlar ijodiga shunday chuqur xalq-demokratik xususiyatlarni kiritdiki, bu xususiyatlar pirovardida ularning asarlarini juda ham jozibador qilib yubordi.

U y g' o n i sh tyermini (fransuzcha «Renessans») yangi madaniyatning antik madaniyat bilan aloqadorligini ko'rsatadi. Sharq bilan, xususan Vizantiya bilan tanishish, salib yurishlari davrida Levant bilan muntazam aloqadorligini ko'rsatadi.

Kitob bosishning ixtiro qilinishi yangi, burjua madaniyatining rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. XV asr boshlaridanoq G'arbiy Yevropa diniy-ommaviy adabiyotni (ibodat va duolar to'plami hamda boshqalarni) tarqatish uchun alohida ksilografik usuldan foydalanildi. Taxtaga rasm va yozuvlarni o'yib yozib, keyin ularni qog'ozga bosardilar. (XIV asrdan e'tiboran Evropada yozuv qog'ozi qo'llaniladigan bo'ldi). Ksilografik usul bilan kitob bosish kitoblar tarqatish masalasini hal qilmadi. Ish sekinlik bilan bordi, taxtadan o'yib yozilgan do'ng harflar, kitob teksti qog'ozga bosib bo'lingandan keyin kyeraksiz bo'lib qolardi. Mayntsda tug'ilib, keyin Strastburgga ko'chib kelgan Iogann Guttenbyerg (1400-1468)ning kitob bosish ishini ixtiro qilishda ko'rsatilgan xizmati shundaki, u harakatlanadigan harflar ixtiro qilib, ular boshda yog'ochdan yasaldi. keyin esa bu harflar metall harflar bilan almashtirildi. bundan tashqari, Guttenbyerg qog'ozning ikkala tomoniga tekst bosish imkoniyatini byeradigan alohida press-dastgoh ixtiro etdi. Bu ixtiro taxminan. 1445 yilda qilingan bo'lib dastlabki paytda u qattiq sir tutildi. Ammo, oradan 15 yil o'tgach, bu ixtiro oshkora bo'lib, u Gyermaniyadan boshqa mamalakatlarga yoyildi.

2- savol bo'yicha dars maqsadi: O'rta asr madaniyatini yuzaga kelish sabablarini aniqlash, uyg'onish madaniyatining yuzaga kelishidagi tarixiy sharoitga baho byerish va iqtisodiy imkoniyat egalarining o'tmish madaniyatini jonlantirish maqsadida qilgan ishlarini ochib byerish.

Indentiv o`quv maqsadlari:

- 1.1. Jahon tarixida o`rta asr madaniyatining yuzaga kelish sabablarini biladi.
- 1.2. Italiyada Uyg`onish davrining shakllanish omillarini ochib byeradi.
- 1.3. Ilk Italyan madaniyatining ravnaq topishi va boshqa mamlakatlar bilan aloqasining o`sha davr uchun Yevropa tarixida tutgan o`rniga baho byera oladi.

2-asosiy savol bayoni:

Sharq bilan, xususan Vizantiya bilan tanishish, Salib yurishlari davrida va undan keyingi davrda Levant bilan muntazam aloqa qilish natijasida italyanlar qadimgi grek qo`l yozmalari, antik tasviriy san'ati va arxitekturasining turli xil yodgorliklari bilan tanishadilar. Bu barcha qadimiy yodgorliklarni qisman Italiyaga olib kela boshladilar, bu yerda ular kolleksiya qilindi va o`rganildi. Ammo Italiyaning o`zida ham ancha-muncha antik Rim yodgorliklari bo`lib, Italiya shahar intelligentsiyasining vakillari ularni ham sinchkovlik bilan o`rgana boshladilar. Italiya jamiyatida qadimiy klassik tillarga, qadimiy falsafa, tarix va adabiyotga chuqur qiziqish paydo bo`ldi. Florensiya shahri bu harakatda ayniqsa katta ro`l o`ynadi. Florensiya shahridan yangi madaniyatning bir qancha atoqli arboblari etishib chiqdi.

Qachonlardir iqtisodiy jihatdan eng gavjum va o`zining siyosiy tuzumi jihatidan eng demokratik bo`lgan qadimiy shaharlarda vujudga kelgan antik ideologiyadan foydalanib, tug`ilib kelayotgan yangi burjuaziya qadimiy madaniyatni oddiy passivlik bilan o`zlashtirmay, balki uni o`zicha qaytadan ishlab chiqdi. Yangi ital'yan madaniyatining ikkinchi nomi, ya'ni *g u m a n i z m* ham xuddi shundan dalolat byeradi. O`rta asr ideologiyasi diqqat markaziga ilohiyni, oxiratni kuygan bo`lsa, gumanizm madaniyati insonning o`zini o`z dunyoqarashining diqqat markaziga qo`ydi. Gumanistik dunyoqarashda asketizmga ega endi o`rin qolmadi. Inson tanasi, uning zavq-shavqi va ehtiyoji gumanistlar tomonidan bostirish yoki azoblash kyerak bo`lgan qandaydir gunoh bir narsa deb emas, balki hayotdagi eng asosiy muddaodir, deb tan olindi. Tabiat bilan insonni e'tirof etish fanning mohiyatidir, deb e'lon qilindi. O`rta asr sxolastlari va mistiklarining dunyo qarashida hukm surgan pessimistik ohanglarga zid o`laroq, Uyg`onish davri kishilarning dunyo qarashi va kayfiyatida optimistik ohanglar ustunlik qilardi, bu kishilar uchun insonga, insoniyatning yorug` kelajagi, inson aql-zakovati va ma'rifatning kelgusida tantana qilishga ishonish harakterli bir hol edi. Bu yangi buyuk aqliy harakatda atoqli shoirlar va yozuvchilar, olimlar va har xil san'at arboblari guruhi qatnashdi. O`rta asr bilan yangi zamon chegarasida turgan eng yirik siymo («O`rta asrning so`nggi shoiri va shu bilan birga yangi zamonning birinchi shoiri») (Florensiyalik Dante Aligyeri 1265-1321 yil) edi. Dante zamonidagi boshqa hech qanday asar uning ilohiy kamediyasidagidek o`rta asrlarning butun ideologiyasini aks ettirmagan edi.

XIV-XV asrlardagi boshqa tarixchi-gumanistlardan Flaviya Bionodo (1388-1463) eng ko`p nom qozongan bo`lib, u «Rim impyeriyasining qulashidan boshlanadigan tarix» (410-1410 davr) nomli umumlashtiruvchi harakterda katta asar yozdi.

Yangi italyan madaniyatining ikkinchi nomi, ya'ni *gumanizm* ham xuddi shundan dalolat byeradi. O`ra asr ideologiyasi diqqat markaziga ilohiyni, oxiratni qo`ygan bo`lsa. *gumanizm* madaniyati insonning o`zini o`z dunyoqarashining diqqat markaziga qo`ydi. Gumanistik dunyoqarashda asketizmga endi o`rin qolmadi. Inson

tanasi, uning zavq-shavqi va ehtiyoji gumanistlar tomonidan bostirish yoki azoblash kyerak bo'lgan. Qandaydir gunoh bir narsa deb emas, balki hayotdagi eng asosiy muddaodir deb qaraldi. Yer yuzidagi hayot birdan-bir real hodisadir, deb tan olindi. Tabiat bilan insonni e'tirof etish fanning mohiyatidir deb e'lon qilindi. O'rta asr sxolatlari va mistiklarning dunyoqarashida hukm surgan psimistik ohanglarga zid o'laroq, uyg'onish davri kishilarining dunyoqarashi va kayfiyatida optimistik ohanglar ustunlik qildi, bu kishilar uchun insonga insoniyatning yorug' kelajagiga, inson aql-zakovati va ma'rifatning kelgusida tantana qilishiga ishonish harakterli bir hol edi. Bu yangi buyuk aqliy harakatda atoqli shoirlar va yozuvchilar. olimlar va har xil san'at arboblari guruhi qatnashdi.

Mavzu bo'yicha nazorat topshiriqlari:

1. Jahon xalqlari tarixida XIV - XVI asrlar Renessans deb yuritilishning asosiy sababi nima?
 - a. Knyaz hokimiyatining kuchayishi. b. Ommaning qashshoqlashuvi.
 - s. Xristyanlikning kuchayishi. d. Hunarmandchilikning rivojlanishi. Shahar savdo tarmog'ini kengayishi.
2. Uyg'onish davrini madaniyati rivojlanishi qaysi o'tmish davrini takrorlaydi.
 - a. Antik madaniyatni. b. Vizantiya san'atini.
 - s. Rim madaniyati. d. Yangi gumanistik madaniyat.
3. Sharqda uyg'onish davri asosan qaysi asrlarni o'z ichiga oladi?
 - a. Xalifalik davri. VII-IX asrlar b. IX-XII asrlar.
 - s. Temuriylar davri. XV d. IX-XV asrlar.
4. Uyg'onish davrining buyuk matematigi, rassom va buyuk injenyer hisoblangan fan arbobi.
 - a. A.Dyudyer. b. Vasko da Gama.
 - s. N. Kopyernik. d A. Vezaliy.
5. Gumanizm atamasini izohlab byering?
 - a. O'rta asr idealogiyasi. b. Yangi Italyan madaniyatining ikkinchi nomi.
 - s. Gumanistik dunyoqarash d. O'rta asr mistiklarning dunyoqarashi.

Mavzu bo'yicha TMI topshiriqlari:

O'rt asrlarda Uyg'onish davrini Sharq va Evropada rivojlanish bosqichlarini qiyoslab o'rganish.

Jahon xalqlari tarixida renessans deb yuritilishining asosiy sabablarini manbalar asosida o'rganib chiqish.

Uyg'onish davri madaniyati rivojlanishi qaysi o'tmish davrini takrorlashini bosqichma-bosqich o'rganish.

Mavzu bo'yicha xulosa:

XI-XII asrlardaek Sharqdagi Fan va madaniyat rivojining ta'sirini XIV-XV asrlar jarayonida Yevropaning g'arbiy qismida shakllangan yangi iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar va madaniy rivojlanish orqali Italiya va Gyermaniya misolida ko'ramiz.

Adabiyotlar.

1. Semyonov V.F. O'rta asrlar tarixi T. 1973 yil 372-378 b.
2. История народов Восточной Центральной Азии М. 1986
3. Люблинская А.Д. Источниковедение истории средних веков Л. 1995.

2- mavzu: Buyuk geografik kashfiyotlar.

Ajratilgan soat – 4 s.

Asosiy savollar:

1. Buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanishi. IX-XVII asrlarda Sharq mamlakatlariga geografik sayohatlar.
2. Jahon ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotida jugrofik kashfiyotlarning ahamiyati va Buyuk geografik kashfiyotlarning oqibatlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Geografiya, Buyuk geografik kashfiyotlar, Ertosfen, O'rta yer dengizi, Magellan, Kolumb, Vespuchchi, mustamlaka, Somiy, Olovli yer, Gaiti, Kuba, Orinoko, Pyeru, Meksika.

Mavzuga oid muammolar:

1. Yangi o'lkalarni izlash va o'zlashtirish qadimgi yunonlar tomonidan boshlangan deyiladi. Undan oldin ham bunday izlanishlar bo'lganmi? Javobingizni asoslang.
2. Buyuk geografik kashfiyotlarni yuzaga kelishida Yevropa uyg'onish davrini ta'siri bo'lganmi? Sizning fikringiz?

1- savol bo'yicha dars maqsadi: Buyuk geografik kashfiyotlargacha bo'lgan izlanishlarning ahamiyatini ochib byerish, buyuk geografik kashfiyotlar davrida mustamlakalarning paydo bo'lishi shart-sharoitlari bilan tanishtirish. Buyuk kashfiyotlar oqibatlarini Yevropa va Sharq tarixida qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida tushuncha hosil qilish.

Indentiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. XV-XVI asrlarda texnika sohasida qanday kashfiyot va ixtiro qilinganini aniqlaydi. Ularning har biri qanday ahamiyatga ega bo'lganini harakterlab byera oladi.
- 1.2. Dunyoning kashf etilishida o'rta asrda Sharq mamlakatlariga qilingan sayohatlarning tutgan o'rniga baho byeradi.
- 1.3. XV-XVI asrlardagi ixtirolar qanday natijalarga olib kelgani, bu natijalarning qaysi biri eng muhimligini tushinib etadi.
- 1.4. Nima uchun kitob bosishning ixtiro qilinishi insoniyat tarixidagi eng buyuk kashfiyotlarning biri hisoblanganligini biladi.

1-savolning bayoni:

Insoniyat tarixida urug'chilik tuzumini so'ngi bosqichiga qadam qo'yishi ibtidoiy insonlar hayotida muhim o'zgarish davrini boshlab byerdi. Tabiatdagi tayyor

mahsulotlardan foydalanish endilikda insoniyat iqtisodiy ehtiyojini qoniqtirmay qo'ydi.

Ibtidoiy hayotning neolit - «yangi tosh» davriga kelib, ishlab chiqarish xo'jaliklari yuzaga keldi. Dehqonchilik va chorvachilikning yuzaga kelishi bilan sopol buyumlar yasash va ulardan foydalanish boshlandi. Ishlab chiqarish xo'jaligining yuzaga kelishi tufayli qadimgi Misr, Old Osiyo, Kichik Osiyo, Markaziy Osiyo va Sharqda dehqonchilik bilan kun ko'ruvchi o'troqlashgan qabilaviy uyushmalar tashkil topdi.

Shimoliy o'lkalarda Afrikaning saxrolarida va Avstraliya dashtlarida ko'chmanchi badaviy qabilalari davom etdi. Dehqonchilik maqsadida insonlar o'zlari uchun qulay tabiiy sharoit izlab yangi yyerlarni o'zlashtirishi uchun vohalar va daryo qirg'oqlariga borib o'rnasha boshladilar.

Lekin, yyer yuzasini o'rganish uchun emas, yaqin atroflardagi qulay o'lkalarni o'zlashtirish uchun urinish edi xolos. Uzoq o'lkalarga borish va o'zlashtirish eramizdan avvalgi 2 mingi yilliklar oxirlarida Finikiyaliklar tomonidan boshlandi. Finikiyaliklar Afrikaning shimoliy qirg'og'iga O'rta yer dengizi orqali borib o'rnashganlar. Eramizdan oldingi VI-V asrlarda Sharqiy yunonlar qora dengiz sohillarida o'zlarini shaharlarini barpo etishgan. O'rta yer dengiz sohillarida boshlangan dengizda yurishi Rim imperiyasi davrida yanada rivoj topa boshladi.

Sayohatchilar va ular bilan bog'langan savdogarlar orasida asta-sekin yyer yuzasini tasvirlaydigan olimlar aralashadigan bo'lishdi. Eramizdan avvalgi III asrda yashagan yunon geografi Ertosfen yyer yuzini tasvirini chizishga urinib ko'rdi. Misrdagi Iskandariya shahrida Muston ilmiy muassasasi tashkil etilgan bo'lib, ptolomeylar hukmronligi davrida barcha turdagi fan olimlari to'plangan edi.

U yer shari aylanisini uzunligini ko'p darajada aniqlik bilan o'lchab chiqib, fizikaviy va matematik geografiyani asosini yaratdi. «Geografiya» yunoncha – «Geo» –yyer, «grafa» - yozaman yoki yyerni tasviri ma'nosidagi atamani fanga kiritdi. Yangi o'lkalarni izlash va o'zlashtirish qadimgi yunonlar tomonidan ham davom etdi. Eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarda O'rta yer dengizining ayrim orollari va Italiyaning janubiy qismida mustamlakalar ochdilar. XV asr davomida portugaliyaliklar mavrlar bilan bo'lgan urush jarayonida va ular bilan olib borilgan savdo-sotiq natijasida Afrikaning shimoliy-g'arbiy qirg'oqlariga kirib bordilar. 1415 yilda Seutanning istilo qilinishi portugaliyaliklarga afrikaning g'arbiy qirg'oq sohili bo'ylab janubga tomon siljib borish uchun muhim ba'za yaratib byerdi. Portugaliyada dengiz sayohatlariga hukumatning o'zi homiylik qilardi. Infant (Shag'zoda) Genrix dengiz sayohti (1460 yilda vafot etgan) G'arbiy Afrika qirg'oq bo'ylarini tekshirish uchun katta flot qurdi. 1445 yilda shaxzoda Genrix hali hayot ekanligida portugaliyaliklar Yashil Burunni ochdilar. 1471 yilda ular Gvinniyaga borib yetdilar va u yyerda Oltin qirg'oq deb atalgan joyda ku'chli harbiy faktoriya qurdilar. Portugaliyaliklar janub tomonga siljishni davom ettirib, 1486 yilda Afrikaning janubidagi Bartolomeo Dias (1450-1500) tomonidan kashf etilgan Yaxshi Umid burniga borib yetdilar. Shundan keyin qidirilayotgan Hindistonni topish qiyin bo'lmay qoldi. Vaskoda Gama (1469-1524) boshchiligidagi 4 ta kemadan iborat kichik bir flotilya 1497 yil yozida Lissabondan chiqib 1498 yil bahorida Hindistonning g'arbiy qirg'oqlariga borib yetdi va Kalkutta shahriga tushdi. 1499

yilning avgustida sayyohlar kemalarga olitn va hind zirovarlarini ortib qaytib keldilar. Hindistonda, qisman hindi Xitoydagi asosiy(Mallakka) va Indoneziya orollaridagi asosiy mustamlakalardan tashqari, Portugaliyaliklar XVI asr boshlarida yana Amyerikaning Braziliyasini ham bosib olgan edilar; Braziliya uzoq vaqt davomida Hindistonga boradigan ikki yo'l o'rtasidagi bekat bo'lib xizmat qilib kelgan edi.

Muhokama uchun savollar:

1. Buyuk geografik kashfiyotlar Yevropaliklar tomonidan olib borilganligini tarixiy ildizini qanday ochish mumkin?
2. Bu kashfiyotlar O'rta Osiyoliklar tomonidan olib borilganda qanday o'zgarilishi mumkin edi?

2 – savol bo'yicha dars maqsadi: O'rta asrlarda bo'lgan jug'rofik kashfiyotlar tarixining hozirgi payidagi rolini tushuntirib byerish va unda Sharq mutafakkirlarining tutgan o'rmini ochib byerish.

Indentiv o'quv maqsadlari:

1. Haritaga qarab Vasko da Gama ekspeditsiyasi haqida gapirib byera oladi va Yevropaliklarning Hindistonga nima uchun faqat XV asr oxiridagina bora olishini tushunib etadi.
2. Dunyo aylana birinchi sayohat, yyerning shar shaklida ekanligini isbot qilib byerganligini va shu haqda ilgari nimalar deyilgani haqida fikrini bayon eta oladi.
3. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Amyerika xalqlari yevropaliklardan nimada orqada qolganini tushintirib byera oladi.

2 – asosiy savolning bayoni:

Dunyo haritasini qiyofasini va har bir o'lkalarini qaysi iqlimda joylashganligini ko'rsatgan. Olimlardan yana biri Mahmud Qoshg'ariy edi. Mahmud Qoshg'ariy tuzgan haritani V.V. Bortold ancha aniq va to'liq ma'lumotli deb ko'rsatgan. Biz Sharq xalqlari tarixida ko'plab uchratamizki, XIII asrda Marko Polo tomonidan qoldirilgan ma'lumotlar bayonini asli Venetsiyalik bo'lgan sayyoh Marko Polo 1271-1295 yillar davomida Sharqiy o'lkalarga sayohat qilib hatto Xitoyda yirik lavozimida ishlagan. Uning sayohati Qaroqurum, Mo'g'uliston, Hindi-Xitoy, Xitoy va Koreyaqirg'oqlari bo'ylab Indoneziya orqali Xindiston, Eron, Ikki daryo oralig'i O'rta yer Dengizigacha bo'lgan o'lkalarni sayr qilish va o'zi bo'lgan joylarni ta'riflash bilan yakunlandi.

XV asrning ikkinchi yarmida G'arbiy rus o'lkasidan Sharqiy Kavkaz orqali Eron va Xindistonga yo'l olgan Afanasiy Nikitin sayohati Janubiy Hindistonda bo'lib, dengiz yo'li orqali yana dengiz sohillarini sayohat qilgan. Sayyoh 1466 – 1472 yillar davomida ko'pgina ta'surotlar egasi hisoblangan. Ma'lumki XV asrning oxirgi yillarida Portugallar va Gollandlar Afrikaning G'arbiy qirg'oqlarini asta-sekin o'zlashtira boshladilar.

Afrika orqali Hindistonga borish uchun otlangan sayyoh Bartolemeo Diash 1487-1488 yillarda Afrikaning Gʻarbiy qirgʻoqlari buylab Hind okeanigacha boʻlgan yoʻlni aniqlab bergan.

Vasko da Gama (1469-1524) boshchiligidagi toʻrtta kemadan iborat kichik bir flotiliya 1497 yil yozida Lissabondan chiqib, 1498 yil bahorida Hindistonning gʻarbiy qirgʻoqlariga borib yetdi va Kalikutta shahriga tushdi. 1499 yilning avgustida sayyohlar kemalarga oltin va hind zirotvarlarini ortib qaytib keldilar. Ikki yil davom etgan mashaqqatli dengiz sayohati vaqtida komandaning 168 aʼzosi faqat 55 kishi tirik qoldi.

Vasko da Gama kashfiyoti Portugaliyada gʻoyat katta taʼsir qoldirdi. Bu kashfiyot munosabati bilan Portugaliya qiroli Monoelga (1495 - 1521) «Baxtiyor» laqabi berildi va «Hindiston hokimi» degan unvon oldi.

Portugaliyalar Hindistonga Afrikaning gʻarbiy qirgʻoqlari boʻylab siljib borayotgan bir paytda, qoʻshni Ispaniyada xuddi oʻsha Hindistonga borish yoʻlining boshqa bir varianti chiqib qoldi. Genualik Xristofor Kolumb (1451-1506) 1492 yilda Ispaniyaning Fyerdinand va Izabella hukumatiga Hindistonga gʻarb tomondan boradigan sayohat loyihasini taklif qildi. Kolumb yerning sharsimonligi haqidagi taʼlimotiga asoslanib ish koʻrdi. 1492 yil 12 oktyabrda Kolumb Karib dengizida Markaziy Amerikaga yaqin joydagi Bagama orollaridan birini topdi. Tezda u katta qoʻshni orollar – Gaiti va Kuba orollarini kashf etdi. Shundan keyingi sayohatlaridan birida Kolumb Janubiy Amerika (Orinoko daryosining quyi joyi yaqinidagi) qirgʻoqlarni topdi.

Geografik kashfiyotlar Yevropaning iqtisodiy hayotiga gʻoyat katta taʼsir koʻrsatdi. Bu kashfiyotlar natijasida «Jahon bozorining birdaniga kengayishi, muomiladagi tovarlarning koʻpayishi, Osiyo mahsulotlarining va amerika xazinalarini qoʻlga kiritishga intilgan Yevropaliklar oʻrtasida raqobat paydo boʻlishi, mustamlakachilik sistemasi» yuz berdi.

Savdo yoʻllari va markazlari butunlay oʻzgarib ketdi. Ilgari Yevropa savdosidagi asosiy roʻl oʻynagan. Oʻrta Dengiz geografik kashfiyotlardan keyin, oʻz ahamiyatini ancha yoʻqotdi. Asosiy savdo yoʻllari Atlantika okeaniga va shimoliy (nemis) dengiziga koʻchirildi. Ilgari Yevropadagi savdo-sotiq ishlar eng taraqqiy qilgan Italiya oʻrnini boshqa mamlakatlar- Niderlandiya va Angliya egalladi. XVI asrla Niderlandiya ayniqsa katta roʻl oʻynay boshladi. Antverpen shahri jahon savdosining markazi boʻlib qoldi zirotvarlar savdosi deyarli butunlay bu shaharda toʻplandi. Portugaliyaliklar hind zirotvarlarini odatda faqat Lissabonga olib kelardilar. Bu yerga keltirilgan yuklar keyin Antverpenga borardi va unda butun Yevropaga tarqalardi.

Muhokama uchun savollar:

1. Portugallar va gollandlar XV asrdayoq Afrikaning gʻarbiy qirgʻoqlarini oʻzlashtirganlar. Nima uchun ayrim manbalarda buni inkor etgan? Sizning qarashingiz?
2. Hozirgi Amerika Amerigo Vesputchi nomi bilan yuritiladi, aslida Amerika qitʼasini birinchi boʻlib Kolumb kashf etgan edik-u? Sizning fikringiz?

Nazorat topshiriqlari:

1. Quyidagi olimlardan qaysi biri yyer yuzi tasvirini chizishga urinib ko'rdi? U olim qachon, qayyerda yashagan?
 - a. Erotosfen er.av. III asr Yunoniston.
 - b. Abu Rayhon Byeruniy VIII-IX asrlar Movarounnahr
 - s. X.Kolumb XVI asr Ispaniya.
 - d. Ibn Batuta XIII asr Hindiston
2. Amyerika kim tomonidan kashf etildi?
 - a. Semyon Dejnev.
 - b. Vasko da Gamma.
 - s. Xristofor Kolumb.
 - d. Amyerika Vispuchchi.
3. Xristofor Kolumb kashf yetgan yerlar haritada qanday nom bilan ko'rsatilgan?
 - a. Portugaliya yyerlari.
 - b. Ispaniya yyerlari.
 - s. Yangi yyerlar.
 - d. Amiriko yyerlari.
4. Kiev Rusida Kiev bilan aloqasini uzgan birinchi mustaqil knyazlik nomini toping?
 - a. Buyuk Novgorod.
 - b. Vladimir Suzdal.
 - s. Galich-Volin.
 - d. Moskva
5. Moskva shahriga kim va qachon asos solgan?
 - a. Yuriy Vsevolodovich
 - b. Vladimir Monamax
 - s. Vsevolod Mstislavich
 - d. Yuriy Dolgorukiy

Mavzu bo'yicha echilishi kutilayotgan ilmiy muammolar:

1. Buyuk geografik kashfiyotlarni boshlanishida Yevropada markazlashgan davlatlarning ta'sirini ilmiy asoslab byerish.
2. Yevropa sayohatchi olimlarini kashfiyotlarining mohiyatini ochib byerish.

Mavzu bo'yicha TMI topshiriqlari:

1. Magellanning Dunyo sayohatlarini sharhlab byering.
2. Mavzu yuzasidan Buyuk sayohatlar haritasini ko'rgazmali qurol sifatida tayyorlab keling.
3. Kashf qilingan mamlakatlarni bosib olishda kimlar va nima maqsad bilan qatnashganligini tahlil qiling.
4. Haritadan foydalanib XV – XVI asrlarda qanday texnikaviy kashfiyotlar va ixtirolar qilinganligini aniqlang.

Mavzu bo'yicha xulosa:

Buyuk geografik kashfiyotlar davrigacha yyer yuzasini ishlab chiqarish bosqichiga qadam qo'yish bilan boshlansa, Sharqda esa xalifalikning savdo maydonlarining kengayishi va shaharlar tarmog'ining o'sishiga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'lanadi.

Adabiyotlar.

1. Semyonov V.F. O'rta asrlar T. 1973. 111-140-b.
2. Удальцова С.П.Карпов. История средних веков. Т. 1986 1-2
3. Книга Марко Поло М. Мысл Т. 1995 й.

3-mavzu: XII-XV asrlarda Bolgariya va Syerbiya. Bolqon yarim orolida Turkiya istilolari.

Ajratilgan soat: 4

Asosiy savollar:

1. XII-XV asrlarda Bolgariya
2. XII-XV asrlarda Syerbiya. Bolqon yarim orolida Usmoniy turklarning istilolari

Mavzuga oid tayanch tushunchalar va iboralar:

Bolqon yarim oroli, ikkinchi Bolgariya podsholigi, dehqonlar urushi, Ivaylo otryadi, Syerbiya podsholigi, «Stefan Dushan qonunnomasi», parchalanish, Usmoniylar, istilo, yanicharlar, sipohiylar, Kosovodagi jang.

Mavzuga oid muammolar:

1. Salibchilar harakati yuz byermaganda Bolqon hududida qanday tarixiy vaziyat yuz berishi mumkin edi? Sizning fikringiz?
2. Bolgariya davlatining kengayishiga sabab bo'lgan tarixiy voqealarni qanday baholaysiz?

1-savol bo'yicha dars maqsadi:

Ikkinchi Bolgariya podsholigi haqida ma'lumot byerish, XIII-XIV asrlarda Bolgariyaning iqtisodiy taraqqiyotini ochib byerish, 1277-1280 yillardagi dehqonlar urushining mohiyatini tushuntirish, partizan urushi ahamiyatini ko'rsatish, ikkinchi Bolgariya podsholigining qulashini ochib byerish.

Indentiv o'quv maqsadlari:

1. Ikkinchi Bolgariya podsholigi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi.
2. Bolgariyaning iqtisodiy taraqqiyotini ochib byeradi.
3. 1277-1280 yillardagi dehqonlar urushi mohiyatini tushunadi.
4. Ikkinchi Bolgariya podsholigining tamom bo'lishini izohlaydi.

1-asosiy savol bayoni:

To'rtinchi Salib yurishi vaqtida Vizantiyaning salibchilar tomonidan tor-mor etilishi va Konstantinopolda Latin impyeriyasining Uzoq fursat hukmronlik qilishi natijasida Vizantiyaning qulashi bilan Bolqon yarim orolida Bolgariya va Syerbiya singari slavyan davlatlari birinchi o'rinni egallaydilar.

1185 yilda Vizantiyaning 150 yildan (1018 yildan) ortiqroq davom etgan zulmiga qarshi Tirnovoda bolgarlarning qo'zg'oloni bo'ldi. Shimoliy bolgar boyarlari orasidan chiqqan aka-uka Asen bilan Petr bu qo'zg'olonga boshchilik qildilar. Asen tez orada Ikkinchi Bolgariya podsholigining birinchi podshohi bo'ldi, 1187 yilda Vizantiya bu podsholikni rasmiy ravishda mustaqil deb tan oldi. 1205 yilda Asen I ning taxt vorisi uning ukasi Ivan Kaloyan Konstantinopoldagi latin impyeriyasi feodallarini kattik mag'lubiyatga uchratdi. Latin impyeratori Balduinning o'zi bolgarlar tomonidan asir olinib, shu yyerda u tez orada vafot etdi. Asenning o'gli

Asen II davrida (1218-1241) Ikkinchi Bolgariya podsholigi zo'r qudratga erishdi. Uning davrida bolgarlar Frakiya va Makedoniyani, Epir va Fessaliyaning bir qismini egalladilar. Latin impyeriyasi Nikey grek impyeriyasiga qarshi Asenni o'z ittifoqchisi qilib olishga urinib, uning aytganidan chiqmadi. Chunki nikey grek impyeriyasi Kichik Osiyodan chiqqan salibchilarga xavf-hatar solib turardi. Asen davrida Bolgariya podsholigi Bolqon yarim orolida eng katta davlatga aylandi. Asen II davrida Bolgariyada birinchi marta oltin pul zarb qilina boshlagan edi.

Asen II ning taxt vorislari zamonida Bolgariyada markaziy hokimiyat zaiflasha boshladi. Bolgariyaning hududi qisqardi. Konstantinopolni (1261 yil) o'ziga qaytarib olgan Vizantiya, keyin Frakiyaning katta bir qismini, Makedoniyani va ba'zi bir boshqa viloyatlarni qaytarib olishga muvaffaq bo'ldi.

XIII-XIV asrlarda Bolgariyada ko'pdan ko'p shaharlar mavjud bo'lib, ularda turli xil hunarmandlik – jun, surp va ipak gazlamalar, temir va mis buyumlar ishlab chiqarish, tyeri pishirish va kulolchilik, vinochilik va eg ishlash rivojlangan edi. Bolgariya Dunay daryosi bo'yida va qora dengiz sohillarida zo'r byerib savdo-sotiq olib borardi. Bolgariya savdogarlari Vengriya, Polsha, Vizantiya, Dubrovnik bilan, qo'shni Dunay bo'yi knyazliklari, Valaxiya va Moldaviya bilan, Galich Rusi bilan savdo-sotiq qilardi. Bolgariyadan faqat qishloq xo'jalik mahsulotlari: g'alla, go'sht, jun, tyeri, asal, mum va bosqalargina emas, balki turli hunarmandchilik buyumlari ham olib ketilardi. Bolgar savdogarlarining karvonlari G'arbiy Yevropaga junardiva Fransiyagacha etib borardi. Bolgarlar Flandriya va Shampyan yarmarkalarida qatnashardi. Yuqori sifatli bolgar tyerilari va oyoq kiyimlari G'arbda qadrlanardi. XIII-XIV asrlarda ayrim bolgar shaharlari katta sanoat va savdo markazlariga aylandi. Bu jihatdan Dunay bo'yi shaharlar: Vladin, Silistra, Dorostol, Nikopol, qora dengiz bo'yidagi varna porti, nihoyat ikkinchi Bolgariya podsholigining poytaxti – Tirnovo alohida ajralib turardi. Shunga qaramay Bolgariya ko'proq qishloq xo'jaligi mamlakati hisoblanardi. Mamlakatning ayrim rayonlari notekis rivojlangan edi. Tog'lar va vodiylardagi aholi hali tarqoq yashardi. Natural xo'jalik hukmron edi. Dehqonlar asosan chorvachilik bilan shug'ullanardi. Shahar elementlari zaif edi. Shaharlarning siyosiy ta'siri yetarlicha kuchli emas edi. Mamlakatda hokim sinf feodal boyarlar bo'lib, birinchi galda ularning manfaatlari bilan hisoblashishi lozim edi.

Boyarlar chyerkov bilan birgalikda dehqonchilik qilinadigan yerlarning katta qismiga egalik qilardilar. Krepostnoy dehqonlarning ko'pchiligi shu boyarlarga qarashli edi. Krepostnoylar – pariklar (chyerkov yerlarida ular klyeriklar deb atalardi) ko'p sonli majburiyatlarni o'tar, soliqlar to'lardilar, ya'ni o'z feodallari foydasiga barshchina o'tar va turli xil soliqlar – yyer solig'i, uy solig'i, desyatina va feodal davlat foydasiga boshqa soliqlar to'lardi. Bolgar "«erkin dehqonlari»"ham ko'p sonli soliqlar to'lar va davlat barshchinasi o'tash (yo'l, ko'prik qurish, binokorlikda ishlash) bilan ham juda og'ir majburiyatlarni bajarardilar. Ko'p sonli soliqlar dehqonlarni tamomila honavayron qilishga olib keldi. Boyarlar o'rtasida nizo-janjallar, ko'p sonli urushlar davrida mamlakatga doimiy sur'atda tashqaridan to'xtovsiz bostirib kirishlari, ya'ni tatarlar, polovetslar, vengrlar, vizantiyaliklar hujumlari oqibatida aholi boshiga tushgan kulfatlarni ham qo'shmoq kyerak.

Tashqaridan qilingan hujumlar orasida XIII asrning 2 yarmidagi tatar bosqinlari xalq ommasini uchun ayniqsa og'ir bo'ldi. Vizantiya hukumati nugayxonning tatar o'rdalari bilan ittifoq tuzib, ularni Bolgariya bostirib kirishga gijgijladi. Hukumat qo'shinlarining qarshiligiga uchramagan tatarlar bosqini bolgar dehqonlarining tatarlarga qarshi partizan harakatini keltirib chiqarishga sabab bo'ldi. Partizan otryadlaridan biri cho'pon Ivaylo otryadi edi. Ivaylo tatarlarga qarshi qattiq zarba berishga muvaffaq bo'ldi. Bu g'alaba uning ahvolini mustahkamlab, nomini butun Bolgariyaga yoydi. Dehqonlar Ivaylo huzuriga kelavverdilar. Tashqi dushmani daf etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan partizan harakati tez orada krepostnoy boyarlarga podsho hukumatining o'ziga qarshi antifeodal ichki harakatga aylandi. Qo'zg'olonchilar bir qancha qal'alarni bosib olib, podsho qo'shinlarini yakson qildilar. Podsho Konstanning o'zini asir qildilar, u tez orada o'ldirildi. Shundan keyin Ivaylo Tirnovo shahriga qarab yurdi, shahar unga taslim bo'ldi. Mariya malika taxtni o'z o'gli uchun saqlab qolishga urinib, Ivayloga o'zini hotinlikka olishni taklif etdi. Ivaylo bu taklifni qabul qilib, Tirnovoda podsho deb e'lon qilindi. Biroq yangi podshoga qarshi tatarlar ham, vizantiyaliklar ham kurashdi. Mamlakat ichkarisida boyarlar unga qarshi fitna uyushtirdi, Ivaylo o'rniga o'z oralaridan boshqa nomzodni podsholikka ko'tardilar. Erishgan yutuqlardan keyin dehqonlarning ko'pchiligi uy-uyalariga tarqalib ketishgan edi. Ivaylo vizantiyaliklar bilan kurashda yutuqlarni qo'lga kiritishga qaramay, Bolgariyadan qochib ketishga majbur bo'ldi. U tatarlar huzuriga qochib borib, ularni Vizantiyaga qarshi ittifoq bo'lishga undadi, biroq Nugayxon qarorgohining o'zida o'ldirildi.

1277-1280 yillar harakati yengilishiga va o'z-o'zidan kelib chiqqan bir harakat bo'lishiga qaramay, u o'rta asr Bolgariyasi tarixida eng muhim voqea bo'ldi. Bu bolgar dehqonlarining antifeodal qurolli qo'zg'oloni bo'lib, o'rta asr Yevropasidagi eng ilk dehqonlar urushlarining biri edi.

XIV asrda Bolgariya ayrim mustaqil knyazliklarga parchalanib ketdi. Taxminan 1365 yilda u uchta mustaqil davlatga – Tirnovo, Vidin va Dobrudja davlatlariga uzil-kesil taqsimlandi. Bu davlatlarning har biri o'z navbatida mayda feodal mulklarga bo'lindi, bu mulklar tepasida podsho bilan kam bog'langan boyarlar turgan edi. Ikkinchi Bolgariya podsholigining parchalanib ketishidan Bolgariyaning yangi dushmani – Bolqon yarim oroliga kirib olgan turklar foydalandilar.

Bolgariya parchalanib ketishidan turklar foydalanib, Bolgariyaga hujum qilishadi. Usmon turklarining zarbalari ostida 1363 yildan 1393 yilgacha Bolgariyaning eng yirik shaharlari Plovdiv (filippol), Sofiya, Varna, nihoyat poytaxt Tirnovo (1393) birin-ketin quladilar. 1396 yilda turklar Dunay daryosi bo'yidagi Nikopol shahrini istilo qiladilar va xuddi shu yili siyosiy jihatdan mustaqil bo'lgan feodal Bolgariyasining so'nggi tayanchi bo'lgan Vidin shahri quladi. 200 yildan sal ortiqroq (1187-1396) yashagan ikkinchi bolgariya podsholigi 1396 yilga kelib tamom bo'ldi. Bolgariyada Uzoqqa cho'zilgan Turkiy hukmronligi boshlandi. Bolgariya turk tutqunligi bir necha asrlargacha, ya'ni XIX asrning 2 yarmigacha davom etdi. 1877-1878 yillari rus-turk urushi natijasida rus quroli yordamida Bolgariya turklar zulmidan ozod qilindi.

Muhokama uchun savollar:

1. Usmoniy turklar bosqinchilik yurishini nega janubga qaratmadilar? Buning sababi nimada edi?
2. Bolqon yarim oroli xalqlarining istilochi usmoniylarga qarshi olib borgan kurashining tarixiy ahamiyati nimada edi? Nima deb o`ylaysiz?

2-savol bo`yicha dars maqsadi:

Syerbiyadagi siyosiy vaziyatni tushuntirish, Stefan Dushan podsholigi davrida Syerbiya haqida ma'lumot byerish, "Stefan Dushanning qonunnomasi"ni sharxlab byerish va mohiyatini ochib byerish, Stefan Dushandan keyin Syerbiyaning parchalanish sabablarini tushuntirish.

Indentiv o`quv maqsadlari:

1. Nemanyalar sulolasi davrida Syerbiyadagi vaziyatni biladi.
2. Stefan Dushan davrida Syerbiyaning kengayishini izohlaydi.
3. "Stefan Dushan qonunnomasi" moxiyatini tushunadi
4. Syerbiyaning parchalanib ketish sabablarini ochib byeradi.

2-asosiy savol bayoni:

XII asrda Syerbiya ancha yirik davlatga aylanib, unga ko`p sonli sharqiy syerb va qisman g`arbiy syerb qabilalari kirgan edi. Birlashgan syerb qabilalari tepasida Nemanyalar sulolasi turardi. Bu sulolaning asoschisi Stefan Nemanya (1165-1195) boshqa Sharqiy Syerbiyadan chiqqan "buyuk jupan" bo`lib, Vizantiyaga qaram edi. XII asrning 80-yillar boshida u Vizantiyadan Hish shaharini va Sredts (Sofiya)ning sharqidagi yyerlarni urushib olib, so`ng Vizantiyaga itoat etishdan bosh tortdi. 1190 yildagi shartnomaga kura Vizantiya impyeratori syerbiya davlatining mustakilligini tan olishi lozim edi. Stefan neman Sharqiy Syerbiyadan tashqari Dunay bo`yi Syerbiyasini, shuningdek Dalmatsiya, Gyertsegovina, Chyernogoriyani o`z hokimiyati ostida birlashtirgan edi. Uning davrida syerblar shahri grek urf-odati bo`yicha xristianlikni qabul qildilar.

Stefan Nemanyaning o`g`li Stefan pyervovenchanniy davrida (1195-1224) Syerbiya qirollikka aylandi. Yangi davlat Italiya shaharlari bilan qizgin savdo-sotiq munosabatlari qilishga kirishdi. Syerbiyaning Italiya bilan olib borgan savdo-sotiq ishlarida Adriatika dengizi bo`yidagi erkin Dubrovnik shahri ("slavyanlar Venetsiyasi") vositachilik qildi. Syerbiya Dubrovnik shahri orqali qishloq ho`jalik va chorvachilik mahsulotlarini, Syerbiya tog`laridan qazib chiqarilgan rudalarni Italiyaga chiqaradigan bo`ldi.

Qirol Stefan Dushan podsholigi davrida (1331-1355) Syerbiya eng qudratli davlat bo`lgan. Stefan Dushan Syerbiyani vaqtincha eng yirik Bolqon davlatiga aylantirdi. Stefan Dushan bolgarlar va vizantiyaliklar bilan olib borgan urushlar natijasida Makedoniya, Albaniya, Epir va Vesfaliyani bosib oldi. Bolgariya bir oz vaqt unga qaram vassal bo`lib turdi. 1346 yilda Stefan Dushan Skople shahrida podsholik tojini kiyib o`zini syerblar va romeylar (vizantiyaliklar) podshosi" deb e`lon qildi.

XIU asr o`rtalaridagi Syerbiyadan yirik hujjatli yodgorlik "Stefan Dushan qonunnomasi" nomi bilan mashhur bo`lgan qonunlar to`plami qoldi. Qonunnoma

1349 yilda zodagonlarning Skople shahrida boʻlib oʻtgan “sobori”da tasdiqlangan edi. Dushan qonunnomasi oʻsha davrdagi syerblar ijtimoiy tuzumi haqida tushuncha byeradi. Unda tarkib topgan feodal munosabatlar manzarasi byeriladi. Yirik yyer egalari, ya'ni chyerkov va duneviy katta yyer egalari toʻgʻrisida koʻp gapiriladi. Keyingilar katta hukmdorlarga (katta boyarlarga) yoki kichik hukmdorlarga (kichik boyarlarga) boʻlinadi. Katta hukmdorlar myeros huquqi asosida votchina (bartshina) yyerlariga egalik qilardilar. Kichik hukmdorlarning harbiy benifitsiya (proniya) huquqi asosida muvaqqat pomestelari boʻlardi.

Syerb dehqonlarining bir qismi –syerblar erkin dehqonlar boʻlib, ular jamoa mulkiga (zadruga) egalik qilardi va podsho xazinasiga soliq toʻlardi. Dehqonlar ikkinchi qismi myeropxalar deb atalardi, va ularning ahvoli ilk Gʻarbiy Yevropadagi villanlarning ahvoliga oʻxshab ketardi. Myeropxalar xoʻjayinlar uchun haftada ikki kun barshchinada ishlab byerardilar. Nihoyat, qullar orasidan chiqqan dehqon – oʻtroqlar mavjud boʻlib, ular yyerga biriktirib qoʻyilgan edi va hukmdorlarga tamomila shaxsiy krepostnoy qaramlikda yashardilar. Stefan Dushan oʻlgandan soʻng Syerbiya bir qancha udellarga boʻlinib ketdi. Dushanning oʻgli va vorisi Stefan U Urosh hokimiyati ostida Syerbiyaning ozgina ichki qismi qolgan edi, xolos. oʻz knyazliklarida mahalliy sulolalar vujudga keltirgan katta hukmdorlar oʻzaro urushlar olib borardi. Bu hol Syerbiyani zaiflashtirib, uni mamlakatni mudofaa qila olmaydigan qilib qoʻydi. Dushan vafotidan keyin 15 yil oʻtgach, usmon turklari Syerbiyaning butun janubiy qismini bosib oldilar.

Muhokama uchun savollar:

1. Bolgariya podsholigi Usmoniy turklar davrida zaiflashdi. Bunga toʻrtinchi Salib yurishining ta'siri boʻldimi? Sizning fikringiz?
2. Turklarni umumlashtirgan tarixiy vaziyatni yuzaga keltirgan shart-sharoitni qanday sharhlaysiz?

Nazorat topshiriqlari:

1. Ikkinchi Bolgariya podsholigi qachon tan olindi va uning birinchi podshosi kim boʻlganligini toping.

a. 1187 yilda Asen I b. 1185 yilda Pyotr
s. 1205 yilda Ivan Kaloyan d. 1218 yilda Asen II

2. XII - XIV asrlarda yirik savdo va sanoat markazlari boʻlgan bolgar shaharlarining nomini keltiring _____

Bolgariyada krepostnoy dehqonlar nima deb atalardi va ular kimga qarashli boʻlganini aniqlang.

a. Krepostnoy b. parik va klyerik
s. erkin dehqonlar d. Barshchina

3. Bolgariya nechanchi yilda va qaysi mustaqil davlatlarga taqsimlanganini toping?

a. 1277 yilda b. 1280 yilda
s. 1363 yilda d. 1365 yilda

4.Syerbiya kimning davrida qirollikka aylandi?

- a. Stefan Dushan. b. Stefan Nemanya.
s. Stefan pyervovenfanniy. d. Stefan Urosh.

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

- 1.Bolqon yarim oroli xalqlarining istilochi usmoniylarga qarshi kurashining Yevropa miqyosida ilmiy baholash.
- 2.Usmoniy turklarning Bolqon yarim oroli xalqlari ustidan qozongan g'alabasining tarixiy ahamiyatini ochib byerish.

Mavzu bo'yicha TMI topshiriqlari:

- 1.Bolqon yarim orolidagi usmoniylarning istilolchilik yurishlari marshruti haritasini daftaringizga chizib oling.
- 2.Usmoniy turklar nima uchun aynan bolqon yarim orolini istilo qilishni maqsad qilganligini tushuntirib byering.
- 3.Chingizxonning Yevropaga yurishini izohlang.
- 4.Chingizxon armiyasining O'rta Osiyoga yurishini O'tror voqeasi bilan bog'lang.

Mavzu bo'yicha xulosa:

Bolqon yarim oroli xalqlarining istilosi usmoniylarga qarshi kurashishining Evropa miqyosida baholash va istilochilarning natijalari yechiladi.

Adabiyotlar.

1. Semyonov V.F. O'rta asrlar tarixi T. 1973. 337-346-b.
2. История народов Восточной и Центральной Азии м. 1986. 46-51-с
3. Люблинская А.Д. Источниковедение истории средних веков Л., 1995. 45-67.

4 - mavzu: 1618-1648 yillardagi O'ttiz yillik urush.

Ajratilgan soat 4

Asosiy savollar:

1. XVI asr oxirida Gyermaniyaning iqtisodiy tushkunligi natijasida siyosiy tarqoqlikning vujudga kelishi va gabsburglarning Yevropadaigi rejalari.
2. 1526 yildan keyingi Chexiyaning gabsburglar tomonidan istilo qilinishi va Daniya bilan Shvetsiyaning urushga kirishi. Vestfaliya sulhi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: «O'ttiz yillik urush», sekulyarizatsiya, krepostnoy, absolyutizm, partikulyarizm, «yeres», gyertsog, «Chex birodarlari», ritsar, meshchan, seym, Maestat, arxiepiskop, «defenestratsiya», Turn, pfalts, «konuniy monarxiya», «byerna», Tilli, javdar, «muqaddas va xaloskorlik urushi», pilta, «kun», «Egyer falokat», kralitsiya, kurfyursti, Transilvaniya, Osnabryuk, Myunstyer, episkop, gyertsog, Lujits yyerlari, protestant, eksport, pfaltsgraf, lyutyeran, kalvinist.

Mavzuga oid muammolar:

1. Gabsburglarning kuchayishi Muqaddas impyeriyaga o'z ta'sirini o'tkaza oladimi? Siz qanday tushunasiz?
2. Nega har doim nizolar Avstriya-Vengriya yoki Bolqon o'lkalaridan boshlanadi? Sizning fikringiz?

1-savol bo'yicha dars maqsadi:

Buyuk geografik kashfiyotlarni esga tushirish va uning o'ttiz yillik urushga bo'lgan ta'sirini aytib byerish. XVI asr oxirlaridagi Gyermaniyaning iqtisodiy tushkunlikka uchrashi sabablarini ochib byerish, siyosiy tarqoqlikning asosiy omillarini aniqlash va gabsburglarning Yevropadagi agressiv rejalariga baho byerish.

Indentiv o'quv maqsadlari:

1. Buyuk geografik kashfiyotlarni esga tushiradi.
2. XVI asr oxirida Gyermaniyaning iqtisodiy tushkunlikka uchrashi sababini ochib byeradi.
3. Gyermaniyada siyosiy tarqoqlikning vujudga kelish shart-sharoitlarini aniqlaydi.
4. Gabsburglarning Yevropadagi agressiv rejalarini tahlil qiladi.
5. Protestant knyazlarining tutgan siyosatiga baho byeradi.

1-asosiy savol bayoni:

Buyuk geografik kashfiyotlar va bu kashfiyotlar bilan bog'liq tarzda savdo yo'llarining o'zgarib ketishi Gyermaniyaning iqtisodiy taraqqiyotiga yomon ta'sir qildi. XVI asrning ikkinchi yarmida buning oqibati shu bo'ldiki, nemis savdo sotig'i tushkunlikka yuz tutdi. Ammo ularning roli shu qadar past ediki, ularni Amstyerdamga ham, Londonga ham sira taqqoslab bo'lmas edi. Butun Gyermaniya tobora agrar mamlakatga aylanib borar, unda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari sanoati ko'proq taraqqiy qilgan mamlakatlarga chiqarilar edi. Gollandiya, Shvetsiya, Angliya ko'proq Gyermaniyaning shimoliy – sharqiy viloyatlaridan mahsulotlar sotib olar edi. Gyermaniyaning siyosiy tarqoqligi saqlanibgina qolmay, balki asr davomida yana ham avj oldi. Knyazlar chyerkov mulklarini musodara (sekulyarizatsiya) qilish hisobiga o'z yyerlarini ko'paytirdilar. Ular ichki va tashqi (eksport) savdodan o'z daromadlarini oshirish yo'lida foydalanib, o'zlarining mahalliy knyazlik absolyutizmini o'rnatdilar. Lyutyeran chyerkovining mahalliy hokimlarga batamom bo'ysundirilishi munosabati bilan mahalliy knyazlarning siyosiy hokimiyati kuchaydi. Diniy nizolar knyazlarning impyertorga qarshi olib borgan kurashlarini ham niqoblab turavyeradi. Impyertor avvalgidek mamlakatdagi katoliklar partiyasiga raxbarlik qilar va papalik bilan mahkam ittifoqda edi. Eng yirik knyazlarning ko'pchiligi protestant edi, ulardan ko'pi lyutyeran, bir qismi (pfaltsgraf Reynskiy) edi. Impyertor knyazlari o'ziga buysundirishga harakat qilar va bunga «yeres»ning kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, cheklab qo'yish istagini vaj qilib ko'rsatardi. Knyazlar kuchayib, natijada knyazlik absolyutizmi joriy qilinganiga qaramay, impyertor hokimiyatining kuchi hali ozmuncha emas edi. Ammo gabsburgalar faqat Gyermaniyadagina hukmronlik qilib qolmadilar. Gabsburglarning urug'lari Ispaniyani ham idora qildilar. Ispaniyadagi Gabsburglar avstriya – gyerman Gabsburgalarini qullab-quvvatlar edi. Karl Vning dunyoga

hokim bo'lish ishtiyoqi Filipp II ga ham myeros bo'lib o'tgan edi. Filipp III zamonida Ispaniya zaiflashib qoldi. Shu sababdan u vaqtda boshqa mamlakatlarga va ichki dushmanlarga qarshi kurashda ispan Gabsburglari bilan Avstriya Gabsburglarining kuchlarini birlashtirish g'oyat kuchli masala bo'lib qolgan edi. Gyermaniyani birlashgan, markazlashgan davlatga aylantirilishini mo'ljallar edi. Ammo bu vazifaning uddasidan chiqib bo'lmadi. Mamlakat iqtisodiy tushkunlikni boshidan kechirayotgan, shaharlar iqtisodiy jixatdan zaiflashib qolganligi tufayli ularning ijtimoiy va siyosiy roli pasayib ketgan, krepostnoylikning o'sishi tufayli feodalarning ta'siri kuchaygan bir sharoitda mamlakatni birlashtirish ishi ayniqsa keyin va murakkab vazifa edi. Bundan tashqari, Gabsburglar faqat Gyermaniyani o'zlariga bo'ysundirish masalasi bilangina mashg'ul emas edilar. Ular XVI asr oxirida ham, XVII asr boshida ham o'zlariga qo'shni mamlakatlarga nisbatan agressiv siyosatni davom ettirdilar. Ular XVII asrda sanoat va savdo-sotig'i taraqqiy qilgan bir qancha Yevropa mamlakatlarini, shu jumladan. Gollandiya, Angliya, Fransiya, Daniya, Shvetsiyani o'zlariga qarshi qilib qo'yidilar. Nemi protestant knyazlarining o'zlari ham impyertorga qarshi kurashda Gyermaniyadan tashqari ittifoqchilar qidira boshladilar. Ichki ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar g'oyat murakkab bo'lgan tashqi xalqaro munosabatlar bilan chirmashib ketganligi tufayli gyermaniya vayron qiluvchi O'ttiz yillik urush maydoni bo'lib qoldi. Bu urush uning mavjud siyosiy tarqoqligini yanada ko'proq mustahkamladi.

Gyermaniya katoliklar reaksiyasi Karlning dastlabki taxt vorislari – Fyerdinand I (1555-1564) va Maksimilian II (1564-1576) davridayoq katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Ammo Karl V dan keyin uchinchi bo'lib hukmronlik qilgan impyertor Redolf II (1576-1612) vaqtida reaksiya ayniqsa kuchayib ketdi. Katoliklar Bovariyasida ham ular uya ko'rgan edilar. Katolklar protestantlarini Reyn viloyatlaridan muvaffaqiyat bilan siqib chiqara boshladilar. Katoliklar reaksiyasi G'arbiy-shimoliy Gyermaniyaga kirib bordilar. To'g'ri, Gabsburglar yirik va mayda feodal yyerlarining gyerman konfedyeratsiyasigagina boshchilik qilar edi. Ularning avvalgidek hozir ham umum impyeriya boshqarma organlari va sudlari, umumimpyeriya moliyasi (soliqlar) yuk edi. Gyermaniyani aslida idora qiluvchi ular emas edilar. Lekin Gabsburglarning kuchi o'zlariga myeros qolgan juda keng yyerlarga egalik qilishda edi. Bu yyerlarda qisman nemislar, ko'proq esa slavyanlar, vengyerlar, italyanlar va boshqa xalqlar yashardi.

Ittifoq va liga tuzilishi bilan bu ikki lagyerning bir-biriga dushmanlik munosabati shu qadar keskinlashdiki, ular o'rtasida 1610 yildayoq urush boshlanishi mumkin bo'lib qoldi. Biroq. Genrix IV Fransuzskiy o'lni tufayli urush bu o'rtada boshlanmay qoldi, chunki ittifoq a'zolari undan yordam olish umidida edilar.. Urush Rudolf II ning taxt vorisi impyertor Matvey (1612-1619) davrida boshlandi. Chexiyada yuz byergan voqealar urushning boshlanib ketishida katta rol o'ynadi.

Muhokama uchun savollar:

1. O'ttiz yillik urushni Yevropada yyer egaligi munosabatlarining inqirozi desa bo'ladimi? Bunga sizning munosabatingiz?

2. Urush tufayli gabsburglar o'z maqsadiga erisha oladilarmi? Yevropadagi o'ttiz yillik urush Sharqqa o'z ta'sirini o'tkaza oldimi?

2-savol bo'yicha dars maqsadi:

1526 yildan keyingi Chexiyaning ijtimoiy hayotini tushuntirish, Chexiyaning gabsburglar tomonidan bosib olish shart-sharoitlarini ko'rsatish va O'ttiz yillik urushning «chexiya-pfalts davri» deb atalishi sabablarini ochib byerish. Daniya va Shvetsiyaning urushga kirishi sabablarini aniqlash hamda Rus davlatining pozitsiyasiga baho byerish.

Indentiv o'quv maqsadlari:

1. 1526 yildan keyingi Chexiyadagi ijtimoiy ahvolni aytib byeradi.
2. Chexiyaning gabsburglar tomonidan istilo qilish sabablarini tushunadi.
3. O'ttiz yillik urushdagi «chexiya-pfalts davri» deb atalishi sababini ochib byeradi.
4. Daniya va Shvetsiyaning urushga kirish shart-sharoitlari Aniqlaydi.
5. Rus davlatining pozitsiyasiga baho byeradi.

2 – savolning bayoni:

Chexiya 1526 yilda yana impyeriya sostaviga kirdi va u Gabsburglar xonadonining myeros yeri deb hisoblana boshlandi. Chexiya Gabsburglar sostaviga kirayotganida chexlarga ularning avtonomiyasini, chex seymini, davlat tili sifatida chex tilini va milliy chyerkov sifatida chexlarning isloh qilingan chyerkovini saqlab qolish va'da qilingan edi. Amalda esa Gabsburglar behayolik qilib, o'z va'dalarini bajarmadilar. Vena xukumati chexlarning davlat idorasi ishlariga bevosita aralashadigan bo'ldi. Chexiyaga nemis amaldorlari yuborilardi. Nemis dvoryanlari chexlarning yyerlarini sotib olardilar. Chexiyaga iezuitlarning suqulib kirishi natijasida bu yyerda kotolitsizmning tiklanish masalasi ko'ndalang bo'lib qolgan edi. «Chex birodarlari» jamoalarinii ayniqsa kisar va uning faoliyatini har qanday yo'llar bilan cheklardilar. Guschilikning eng jiddiy ta'siri XVI asr Chexiyasida ana shu jamoalarda saqlanib qolgan edi.

1547 yilda seymning oppozitsion tarzdagi chiqishidan keyin uning huquqlari yana ham kamaytirilgan edi. Jumladan, shaharlik, (meshchan)larning vakillari seymga butunlay deyarli kiritilmay qo'ygan edi. Chexiyada yuz byergan jiddiy ahvol 1609 yilda qo'zgolon ko'tarilishiga olib keldi. Pragada Gabsburglarga qarshi namoyishlar bo'lib o'tdi. Seym chex soslovielari nomidan, agar Rudolf II chexlarning siyosiy va diniy huquqlarini e'tirof qilmasa, uni o'zlarining qiroli deb tanimasliklarini aytgan edi. XVII asrning yigirmanchi yillari oxiriga kelganda Chexiya iqtisodiy jihatdan juda og'ir ahvolda qolgan edi. Savdo-sotiq va sanoat orqaga qarab ketmoqda edi. Bu tushkunlik qisman shu vaqtlarda Markaziy va sharqiy Yevropa boshidan kechirayotgan og'ir ahvolni aks ettirsa, qisman Chexiyada Gabsburglarning idora qilish siyosatining chex millatiga qarshi qaratilganligi oqibati edi. Shunday qilib, Gabsburglarning siyosiy va diniy zulmi Chexiyadagi inqirozning umumiy manzarasini yanada yomonlashtirirar edi. Qo'zg'olon 1618 yilning 23 mayida «defenstratsiya» deb atalgan narsadan boshlanib ketdi.

1621 yil 21 iyunda Pragada Qo'zg'olon rahbarlaridan 27 kishi, shu jumladan, uchta shaharlik umum oldida jazolab o'ldirildi. 1627 yilda Praga seymida Maestat tugatilishi rasman e'lon qilindi. Chexiyada katoliklar chyerkovi tamomila tiklandi. Nemis tili birdan-bir davlat tiliga aylandi. Hamma yyerda chex amaldorlari o'rniga nemis amaldorlari o'tirib oldi. Ko'plab chex yyerlari musodara qilindi. Avstriya Gabsburglarining Chexiyaning tor-mor qilishi va ispanlarning Pfaltsni bosib olishi O'ttiz yillik urushning «chexiya-pfalts davri» deb atalgan birinchi davrining oqibatlarini edi. Katoliklarning g'alabasi musodara qilingan chyerkov yyerlaridan tashkil topgan pretestant knyazlar mulkini xavf ostiga kuydi. Impyeratorning g'alabasi 1624 yildan byeri boshida kordinal Rishle turgan Fransiyan ham tashvishga solib qo'ydi. Shunday qilib, impyerator bilan knyazlar o'rtasidagi, katoliklar bilan protestantlar o'rtasidagi, gabsburglar bilan Chexiya o'rtasidagi munosabatlariga doir ichki masala chet ellarga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Daniyaliklarga qarshi o'z ko'shinini tashkil etish uchun Fyerdinand II ning etarli mablag'i yuk edi. katoliklar ligasining qo'shini ozgina bo'lib, uni ham to'ldirish kyerak edi. Shundan keiyin impyerator qo'shin tashkil etish to'g'risida boy dvoryan Albyerx Vallenshteyn (1583-1634) ga murojaat qildi. Vallenshteyn asli chex bo'lsa ham, batamom nemislashib ketgan va chex dvoryanlarining yyerlari musodara qilingan vaqtda ko'p yyer, o'rmon, kon va shu kabilarni sotib olgan edi. Biroq katoliklar lagyerining g'alabasi bu lagyer rahbarlari o'rtasidagi nizo-janjallar tufayli bo'shashib ketdi. Liganing yo'lboshchisi Maksimilian Bavarskiy va boshqalar Vallenshteynni yomon ko'rar edilar. Ularning talabiga muvofiq 1630 yilda Vallenshteynni iste'foga chiqartishga va uning ko'shinini tarqatish to'g'risida buyruq byerishga majbur bo'ldi.

Gabsburglarning yangi g'alabasi Fransiyan impyeratorga qarshi kurashda yangi ittifoqchi qidirishga majbur etdi. Shvedlar qiroli Gustav Adolf (1611-1632) Fransiya ana shunday ittifoqchi bo'ldi. Rishle shved qiroliga katta subsidiya byerdi. Ammo urushga aralashish uchun Gustav, Adolfning o'zida ham ancha vaj bor edi. Impyeratorning Daniya ustidan qozongan g'alabasi va Vallenshteyn bilan Vena saroyining Shimoliy va Baltika dengizlarida kuchli gyerman floti barpo qilish to'g'risidagi rejasi Gustav Avgustni jiddiy tashvishga solib qo'ydi. Bundan tashqari, shved feodallari allaqachonlardan byeri yangi yyerlar bosib olishni niyat qilib yurardilar. Fransiya o'z tomonida ko'pgina ittifoqchilarga ega bo'lgani holda Gyermaniya bilan Ispaniyaga qarshi urush boshladi. Urushni davom ettirayotgan Shvetsiyadan tashqari, Gollandi, Savoyya, Venetsiya, Vengriya, Fransiya tomonida edi. Polsha Fransiya do'stona xayrixox bo'lib, betaraflik saqlashni bildirdi. Urush harakatlari fakt Gyermaniya tyerritoriyasidagina emas, balki Ispaniyada, ispaniya Nidyerlandiyasida, Italiyada va Reynnning har ikki qirg'og'ida olib borildi. Shunday bo'lsa ham birinchi davrda ittifoqchilar muvaffaqiyat qozona boshlamadilar. Ittifoqning o'zi sostavi jihatidan uncha mustahkam emas edi.

Ittifoqchilar bir-birlari bilan yaxshi kelishib olib harakat qilmadilar. Faqat 40 yillar boshida, Rishle ham o'lgandan keyin, Fransiya bilan Shvetsiyaning qo'li aniq baland bo'lib qoldi. Fransuz qo'shinlari 1643 yilda g'arbda Roqrua (Sharqiy Fransiya) nidagi jangda ispan piyodalarini g'oyat katta mag'lubiyatga uchratdilar. Shundan keyin fransuz qo'shinlari butun Elzani bosib olishdi. 1645 yilda shvedlar

sharqda, Chexiyaning yankovitsi shahri yonida impyeriya qo'shinlarini tor-mor keltirdilar. Daniyaning endi bu safar Gabsburglar tomonini olib, urushga kirishishi ham impyertorga yordam byera olmadi. (1643-1645) yillardagi Daniya-Shvetsiya urushi. Frantsuzlar va shvedlarning birlashgan armiyasi 1646 yilda Bavariyaga bostirib kirdi. Urushning yutqazilayotganligi Vena saroyi uchun ayon bo'lib bormoqda edi. Fyerdinand II dan keyin 1637 yilda taxtga o'tirgan impyertor Fyerdinand III xukumati sulh muzokaralarini boshlashga majbur bo'ldi.

Muhokama uchun savollar:

1. Bolqon hududida turklar bostirib kirganlarida Yevropadagi qo'shni davlatlarni munosabati qanday bo'ldi? Ko'proq kimlar Bolqon ahliga hayrixohlik bildirdilar?
2. Bolqon xalqlari va ruslar o'rtasida qanday umumiylik mavjud edi?

Nazorat savollari:

1. Gyermaniyaning tushkunlikka tushish oqibati nima bo'ldi?
 - a) Nemis savdo-sotigi tushkunlikka yuz tutdi.
 - b) Savdo yo'llari o'zgarib ketdi.
 - s) Ganza ittifoqi tamomila barbod bo'ldi.
 - d) Gyermaniya agrar mamlakatga aylanib qoldi.
2. Siyosiy tarqoqlik qaysi asrlarda avj oldi?
 - a) XVI asrda
 - b) XVII asrda
 - s) XVII asr oxirida
 - d) XV asrda
3. Gabsburglarning asosiy maqsadi nimalardan iborat edi?
 - a) Gyermaniya ustidan hukmronlik o'rnatish.
 - b) Gyermaniyani birlashgan, markazlashgan davlatga aylantirish.
 - s) o'zining myeros yyerlariga ega bo'lish.
 - d) Gabsburglarning kuchlarini barlashtrish.
4. Chexiyadagi birinchi seym qachon bo'lib o'tdi?
 - a) 1543 yilda
 - b) 1542 yilda
 - s) 1546 yilda
 - d) 1547 yilda
5. Rus davlatining pozitsiyalari nimalardan iborat edi?
 - a) Shvetsiya impyertoriga qarshi kurash.
 - b) Gabsburglarga qarshi kurashi.
 - s) Rossiyaning Daniyaliklar ustidan hukmroligi.
 - d) A va V javob tugri.

Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:

- 1) O'rta asrlarda Gyermaniyadagi siyosiy tarqoqlikning sabablari va iqtisodiy tushkunlikka uchrash shart-sharoitlarini aniqlash.
- 2) O'ttiz yillik urushning Yevropadagi tutgan o'rniga baho byerish va ularning agressiv rejalarini ochib byerish.

Mavzu bo'yicha TMI topshiriqlari:

- 1.XVI asr oxirida Gyermaniyaning iqtisodiy tushkunlikka uchrash shart-sharoitlarini aytib byering.
- 2.Gyermaniyada siyosiy tarqoqlikning kelib chiqish sabablarini aniqlang.
- 3.Gyermaniyaning parchalanib ketishi va vayron bo'lishida Vestfaliya sulhining rolga baho byering.

Mavzu bo'yicha xulosa:

1618-1620 yillardagi qo'zg'olon asosiy nuqta bo'lib, o'ttiz yillik urushning asosiy sababchisi bo'ldi va shuning uchun ham xalqaro ahamiyatga aylanib qoldi.

Adabiyotlar.

1. Semyonov V.F. O'rta asrlar tarixi T. 1973. 424-490-b.
2. Удальцова З.Д. Карпов С.П. История средних веков Т., 1986 34-40 б.

5-mavzu: XVI-XVII asrlarda Turkiya.**Ajratilgan vaqt-4soat****Asosiy savollar:**

1. Usmoniylar impyeriyasining o'sishi va Turkiyadagi ichki siyosat.
2. XVI-XVII asrlarda Bolqon xalqlarining turklar zulmiga qarshi ozodlik harakati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Azov, Kichik Osiyo, hiroj, Porta, "katta urush", "Qonunnomai Sulaymoniy", yanicharalar, zoimlar, beylar, timariotlar, sipohiylar, gayduk, kift, uskoklar, "Harbiy bosqinchilar", "buyuk davlatlar", syerblar, ruminlar.

Mavzuga oid muammolar:

1. XVI – XVII asrlarda Turkiya sultonlarini Shimolga va Sharqqa yurish qilib g'alabaga erishdilar. Siz nima deb o'ylaysiz Usmoniy turklardan mag'lubiyatining sababi nimada edi?

2. Turkiya Eronga qarshi kurashda bir qator talofatlar ko'rdi. Bunda Abbos I ning ichki siyosatini qanday baholaysiz? Sizning fikringiz?

1-savol bo'yicha dars maqsadi: XV asr va XVI asrlarda Usmoniylar impyeriyasining o'sishi sabablarini aytib byerish, Sulaymon 1 ning Turkiyada tutgan o'rnini aniqlash va o'sha paytdagi ichki siyosatiga baho byerish.

Indentiv o'quv maqsadlari:

1. XV asr va XVI asrlarda Turkiyaning ijtimoiy hayoti bilan tanish bo'ladi.
2. Usmoniylar impyeriyasining o'sish sabablarini tushuntiradi.
3. Sulaymon 1ning ichki siyosatini tahlil qilib byeradi.

1-asosiy savolning bayoni:

Turkiya imperiyasi 1453 yilda Konstantinopol shahrini bosib olgandan keyin boshladi. Muhammad II 50 va 60-yillarda Bolqon yarim orolida Dunay bo'yidagi Syerbiyani, Bosniyani, Gyertsegovinani va Albaniyani istilo qildi. Bolqon yarim oroli bilan qo'shni bo'lgan Valaxiya vassal qaram qilib qo'yildi. 70-yillarning o'rtalarida turklar Krimni va tanu (azov) shahrini bosib oldilar. Taxminan shu vaqtlarda turklar Kichik Osiyoda Trapezund shahrini, deyarli butun Anatoliyani to Frot daryosigacha istilo qildi. Ammo Muhammad II ikki marta katta muvaffaqiyatsizlikka ham uchradi: u Belgradni ishg'ol qila olmadi, turklar uni 1456 yilda qamal qilgan bo'lsalar-da, maqsadlariga erisha olmadilar; shuningdek, Rodos orolini ham ololmadilar (1480 yilgi muvaffaqiyatsiz bo'ldi).

Muhammad II ning nabirasi Salim I zamonida (1512-1520) turklarning istilolari yana boshlandi. Salim Eronga qarshi qilgan g'olibona urushida Zakavkaz'e mamlakatlaridan Ozarbayjonni, Armanistonning va Gruziyaning bir qismini, Dogiston va Kurdistonni istilo qildi. Sungra Salim Suriya bilan Misrni (1517yil) bosib olib, butun islom dunyosining boshlig'i sifatida o'ziga xalifa unvonini oldi. Krit, Kipr va O'rta dengizdagi boshqa yyerlarini o'z qo'lida saqlab qolish uchun Venetsiya Turkiya sultoniga har yili katta hiroj to'lab turishga majbur edi.

Sulaymon davrida Turkiya Yevropa siyosatida juda katta rol o'ynadi. Fransuz qiroli Frantsisk I Gabsburglarga qarshi Sulaymon bilan rasmiy suratda ittifoq tuzdi. 1529 yilda Sulaymonning Avstriyaga qilgan yurishi Gabsburglarning Valuaga qarshi olib borgan «katta urush»ning bir xalqasi edi. Sulaymon chet el savdogarlariga imtiyozli savdo yorliqlari byera boshlagan birinchi sulton edi. Sulaymon o'zining qonunlar to'plamini («Konunnomai Sulaymoniy»sini) qoldirib ketdi. Bu qonunnomaga 1566 yil sanasi qo'yilgan. XVI asrda Turkiyaning ichki tuzilishi qanday bo'lgani haqida shu to'plamga qarab ham fikr yuritish mumkin. Turk sultonlari istilo qilgan ko'pdan-ko'p tyerritoryadlarning ma'muriy tuzilishi Sulaymon vaqtida bir xil formaga solindi. Butun imperiya 21 viloyatga bo'linib, ular o'z navbatida 250 sanjak (rayon)ga taqsim qilindi.

Yangi tashkil topilgan harbiy feodal-imperiya ishlarga katta e'tibor byerdi. Sulaymon turk qo'shinlarining ya n i ch a r l a r deb atalgan imtiyozli qismini tartibga solgan maxsus reglament tuzdi. Sulaymon dehqonlarning feodal majburiyatlarini o'zi chiqargan qonunlarda belgilab byerishga urindi. Turk dehqonlari davlatga soliq to'lash bilan birga o'z pomeschchiklariga ham yer va suv haqi, imorat, chorva, tegirmon haki va boshqa shu singari soliqlar to'lashlari lozim edi. Feodal o'z yeridan qochib ketgan dehqonni ma'lum muddat ichida qidirishga haqli edi. Mexnatkash aholidan juda ko'p har xil soliqlarni talab qilgan feodallashtirish jarayoni va Turkiyani markazlashtirishning kuchayishi munosabati bilan XVI asrda turk dehqonlarining ahvoli ancha yomonlashdi.

Turk dehqonlarining ahvoli qanchalik og'ir bo'lsa, diniy e'tiqod jihatidan xristianlarga mansub bo'lib, istilo qilingan mahalliy aholining ahvoli undan og'ir edi. Syerblar, greklar, bolgarlar, valaxlar (ruminlar) va boshqa riyolar (musulmon bo'lmaganlarning hammasi turk davlat tilida shunday deb atalardi) musulmonlarga qaraganda davlatga ikki baravar ko'proq soliq to'lashga majbur edilar.

Ular mol-mulkining daxlsizligi butunlay ta'min etilmagan edi, o'zlari ham doim turk ma'murlari va harbiylarining o'zboshimchaligidan va taxqirlashidan azob chekar

edilar. Diniy rasm-odatlarining ijro qilinishiga ijozat byerilar ekan, buning uchun xristian aholisidan yana qo'shimcha ravishda og'ir soliqlar olinardi. Riyolilar ozgina norozilik bildirganlari taqdirda, ular ustiga jazo ekspeditsiyalari tinch aholini talar, o'ldirar edi.

Bolqon yarim orolidagi xalqlar turklar istilosi natijasida qandaydir sun'iy bir to'siq bilan butun Yevropadan ajratilganidan turklar zulmi sharoitida juda sekin rivojlanib bordilar. Savdo-sotiq ishlari tor doirada olib borildi va faqat mahalliy harakterdagina edi. Sanoat juda sekin rivojlandi. Bolqon yarim oroli xalqlari (juda ko'pchiligi slavyan xalqlari) boshiga g'oyat zo'r ofat bo'lib tushgan turklar istilosi shu bo'ldiki, qishloq xo'jaligi texnikasi pastligicha qolavyerdi, bir qator viloyatlarda natural ho'jalik hukmron bo'lib keldi, krepostnoylik munosabatlari saqlanib qoldi, madaniyat turg'unlikka uchradi.

Muhokama uchun savollar:

1. Turk inqirozi nima? Ichki va tashqi munosabatga bog'liqligini qanday tushintirsa bo'ladi?
2. Turkiyaning inqirozga uchrashidagi asosiy sabab ichkimi yoki xalqaro munosabatlarmidi? Sizning fikringiz?

2- savol bo'yicha dars maqsadi: XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning birinchi yarmida Bolqon xalqining Turklar zulmiga qarshi harakat sabablarini tushuntirib byeradi. 1598 yilgi Tirnovo qo'zgolonining sabab va oqibatlarini ochib byerish.

Indentiv o'quv maqsadlari:

- 1) XVI – XVII asrda Bolqon xalqlarining ichki siyosatini biladi.
- 2) XVII asrning boshlarida Turk qo'shinlariga lalofat yetkazgan Syerb va chyernogoriyaliklarning qo'zgolonining asl mohiyatini tushuntiradi.
- 3) Turklarga qarshi kurashda slavyan davlatining roliga baho byera oladi..

2 – asosiy savolning bayoni:

Turklar zamonidan bo'ysundirilgan Bolqon xalqlari zulmiga indamasdan bo'ysunavvermadilar. XV asr- XVI asrning boshlarida Bolqon yarim orolidagi mamlakatlarning turklar tomonidan zabt etilgan davrdan boshlab keyingi asrlar mobaynida Bolqon yarim orolidagi mazlum millatlarning kurashi ularning butun tarixi davomida to'xtamasdan davom etib keldi. Juda katta armiya, ko'pdan-ko'p chinovniklar, turk feodal-okko'pantlarining butun bir sinfidan iborat g'oyat katta majbur qilish vositasiga tayanuvchi turklarning zulmini ag'darib tashlash imkoniyatiga ega bo'lmagan tobe aholi partizanlar urushini olib bordiki, bu urush aslida XV – XVII asrlar davrida ham, shundan keyingi davrda ham mustaqil davom etdi.

Partizanlar tog'lik joylar sharoitidan foydalanib va dehqon jamoalari madadiga tayanib yarim orolda turk hukmronligining asoslariga putur etkazdilar, zabtchi turklar obro'sini tushirdilar, hamda turk ma'muriyati va turk mahalliy feodallarining eng yozuv vakillariga qarshi xalq qasoschilari bo'lib chiqdilar. Partizanlar turli nomlarga ega edilar; bolgarlar va syerblarda - gayduklar, Gretsiyada - kleftlar, Dalmatsiyada-

uskoklar va xokazo deb atalardilar. Partizanlarning qahramonona kurashi Bolqondagi barcha xalqlarning turklar hukmronligi davridagi xalq qo'shiqlarida yaqqol aks ettirildi. Ammo partizanlik har holda Turkiya hukmronligiga qarshi kurashning etarli metodi emas edi, u tarqoq, va parokanda edi. Turkiya ma'murlari partizanlarning chiqishlariga qarshi kurashning o'zlariga xos tyerroristik metodlarini qidirib topdilar. Har holda partizanlar Bolqon yarim orolidagi turklar hokimiyatini o'z kuchlari bilan tugata olmadilar.

Turklar zulmiga qarshi muzlum xalqlar tomonidan olib borilgan kurashning yana bir formasi – ayrim joylarda, ko'pincha eng yirik shahar punktlarida tez-tez fitnalar va qo'zg'olon ko'tarishga bo'lgan urinishlardan iborat bo'ldi. Odatda bu fitnalar va qo'zg'olonlar chetdan bo'ladigan madadga, yani Yevropadagi biror davlatning madadiga umid bog'lar edi. Avstriya qo'shinlarining madadidan umidvor bo'lgan 1598 yilda Ikkinchi Bolqon saltanatining poytaxti Tirnovoda mitropoliti Dionisiy qo'zg'olon qo'shni Transilvaniya va Valaxiya feodallari tomonidan madad olishni mo'ljallab ko'tarilgan edi. Ammo 1594 yilgi Banata qo'zg'oloni ham, 1598 yilgi Tirnovo qo'zgoni ham etarli tayyorlanmagan bo'lib, muvaffaqiyatsiz tugadi.

XVII asrning boshlarida ayrim turk qo'shinlariga talofat etkazgan syerblar va chyernogoriyaliklar (1603 yildan Kris shahri rayonidagi syerblar qo'zgoni, 1604 yilgi chyernogoriyaliklar harakati) ba'zi muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi.

Turklarga qarshi kurash jarayonida slavyan mamlakatlarining vatanparvarlari bir dindagi va qarindosh bo'lgan xalq-ruslar madadiga tobora ko'proq umid bog'lay boshladilar. XVI va XVII asrlarda rus davlati qudratining o'sishi bu umidni ayniqsa rag'batlantirardi. Bolgarlarda va Bolqondagi boshqa xalqlarda ruslar ertami-kechmi jaf chekayotgan Bolqon xalqlariga madad ko'rsatadilar va ularni turk zulmidan ozod qiladilar, degan qat'iy ishonch oshib bordi. Bolqondagi mazlum xalqlar orasida «dyado Ivan» (ya'ni Ivan bobo) haqida afsona vujudga keldi. Bu obrazda ular o'zlarini turklarning og'ir zulmidan ozod qiladigan ulug' rus xalqi va kuchli Rus davlatini mujassamlashtirgan edilar.

Muhokama uchun savollar:

1. Bolqon hududida turklar bostirib kirganlarida Yevropadagi qo'shni davlatlarni munosabati qanday bo'ldi? Ko'proq kimlar Bolqon ahliga hayrixohlik qilindi?
2. Bolqon xalqlari va ruslar o'rtasida qanday umumiylik mavjud edi?

Nazorat topshiriqlar:

1. Turklar Yevropaliklar bilan bo'lgan to'qnashuv qayyerda sodir bo'ldi.
a) Chexiyada 1571 yilda. b) Turkiyada 1571 yil.
s) Lepantoda 1571 yil. d) Polshada 1569 yil.
2. Muhammad III podsholik qilgan yillarni aniqlang.
a) 1595-15603 yillar b) 1592-1600 yillar.
s) 1585-1590 yillar d) 1593-1603 yillar.
3. Rossiya bilan Turkiya o'rtasidagi to'qnashuv qachon bo'ldi.
a) XV asrning boshida b) XVI asrning ikkinchi yarmida

s) XV asrning oxiri d) XIV asrning oxiri

4. XV – XVI asrda Turklar Albaniyani necha marta istilo qildi?

a) Bir marta. b) Ikki marta.

s) Uch marta. d) Turt marta.

2. Sulaymon I “Qonunnomai Sulaymoniy” qonunlar to’plamini qachon yozib tugatdi?

a) 1556 yil. b) 1557 yil. s) 1565 yil. d) 1566 yil.

5. “Ramya” so’zining ma’nosini ayting?

a) Armiya. b) Shahar. s) Xalq. d) Impyeriya.

Mavzu bo`yicha xulosa

Usmoniy turklarning Bolqon yarim oroli xalqlarining xalqlari ustidan qozongan g`alabasining tarixiy ahamiyati echiladi.

Mavzu bo`yicha mustaqil topshiriqlari:

1. Turkiya impyeriyasining zaiflashuvining asosiy mohiyatini tushuntirib byering.

2. Lepanto turk xalqining mag`lubiyatini sabablarini ochib byering.

3. Turklarning sharqdagi talofatini tahlil qilib byering. .

4. Turkular zulmiga qarshi mazlum xalqlarning ijtimoiy ahvolini aytib byering.

5. Sulaymon 1 ning ichki siyosati natijasida aholining ijtimoiy ahvolidan qanday o`zgarishlar ro`y byerdi?

6. Turkiyaning tushkunlikka yuz tutishi va turklarning sharqdagi talofatining asl mohiyatini haritadan foydalangan holda gapirib byering?

Mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1) O`rta asrlarda Turkiya xalqlari taraqqiyotidagi notekislik sabablarini ilmiy asosda tahlil qilish.

2) O`rta asrlarning yetuk davrida Turkiya impyeriyasida inqirozning sabablari va Bolqon xalqlarining turklar zulmiga qarshi ozodlik harakatining asl mohiyatini ochib byerish..

Адабиётлар.

1. Semyonov V.F. O`rta asrlar tarixi T. 1973. 101-114-b.

2. Еремеев Д.Е. История Турции. М. 1987 78-79-б.

6-mavzu : XII-XV asrlarda Rus davlati

Ajratilgan soat: 4

Asosiy savollar:

1) Rusda feodal tarqoqlik.

2) Mo`g`ul - tatar istilosi hamda nemis va shved bosqinchilariga qarshi kurash.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Feodal tarqoqlik, Kiev Rusi, knyazliklar, Buyuk Novgorod, Vladimir-Suzdal knyazligi, Mo`g`ul-tatarlar, nemis va shved ritsarlari, dvoryan va chyerkov yer egaligi, Moskva yuksalishi, Kulikovo jangi, markazlashgan davlat, Rus madaniyati.

Mavzuga oid muammolar:

1. Rusda feodal tarqoqlikning tugab, davlatlarning birlashishida -tatarlarning roli katta deymiz. Yana boshqa sabablar bormidi? Sizning fikringiz?
2. Skiflar, qipchoqlar, sarmatlar va alanlarni Rus davlatiga munosabati qanday vaziyatni yuzaga keltirgan edi?

1-savol bo`yicha dars maqsadi:

Rusda feodal tarqoqlik sabablari va mohiyatini tushuntirish, Kiev Rusidagi mustaqil knyazliklar haqida ma'lumot byerish, Buyuk Novgorodning ahamiyatini ochib byerish, Vladimir-Suzdal yeri hakida ma'lumot byerish, Rus siyosiy tuzumini tushuntirish, feodal yer egaligi haqida gapirib byerish.

Indentiv o`quv maqsadlari:

- 1.1. Rusdagi feodal tarqoqlik sabablari va oqibatini ochib byeradi.
- 1.2. Rusdagi mustaqil knyazliklarni biladi.
- 1.3. Moskva shahriga qachon asos solganligini biladi.
- 1.4. Kiev Rusi hamda uning tarkibidagi knyazliklar ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida tushunchaga ega bo`ladi.

1-asosiy savol baeni:

1X asrning o`rtalarida vujudga kelgan qadimgi Rus davlati poytaxti Kiev shahri bo`lgan. Slavyan qabilalari feodal jamiyatiga urug`chilik jamoasining yemirilishi natijasida o`tdilar. Kiev Rusining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida Vizantiyaning roli nihoyatda katta bo`lgan.

Rus yerlarida XI asr oxiri-XII asr boshlarida feodalizm uzil-kesil o`rnatildi. Mamlakatda boshlangan iqtisodiy taraqqiyot, uning turli qismlarida yirik yer egalari, knyaz va boyarlarning kuchayishiga olib keldi. Kievdan Uzoqdagi va endilikda yetarlicha rivojlangan Novgorod, Polotsk, Smolensk, Rostov, Suzdal, Ryazan kabi yirik shaharlar o`z viloyatlarining mustaqil markazlari bo`lishga intilishar edi.

Vladimir Monomax va uning o`g`li Mstislavning qipchoqlarga qarshi harbiy yurishlari, ularning xavfini vaqtinchalik bo`lsada bartaraf etdi va markaziy harbiy birlikka birmuncha zaruriyat bo`lmay qoldi. Yirik shaharlarning boyarlari bundan foydalanib, Kievga qaram bo`lmagan mustaqil knyazliklar barpo qilishga ko`maklashib, ayrim knyazlarni o`zlariga hukmdorlikka taklif qila boshladilar. Knyazlarning 1097 yili Lyubechda bo`lgan s'ezdi: «har kim o`z yurtiga ega bo`lsin» deb qaror chiqardi. Bu esa feodal tarqoqligi boshlanishini tantanali ravishda e`lon qilinishi edi. Solnomachi 1132 yili «butun Rus yeri bo`linib ketdi» deb yozgan edi. Rusda feodal tarqoqlik davri boshlandi.

Kiev Rusi buyuk knyazlari hokimiyatining zaiflashuviga janubiy viloyatlardagi tushkunlik ham sabab bo`ldi. Kiev va uning atrofidagi yerlarga turli knyazliklarning taxdidi, shuningdek ko`chmanchi polovetslar hujumlari to`xtovsiz davom etardi.

Natijada XP asrdan boshlab ko'plab dehqonlar va shahar aholisi tinchroq joylarni axtarib, janubi-g'arbiy va ayniqsa shimoli-sharqiy, Volga-Oka daryolari havzasiga ko'cha boshladi. Yangi yerlarda tez orada shahar va qishloqlar barpo etilib, ulardagi aholi soni ko'payib bordi.

Kiev Rusidan mustaqil knyazliklar: Chyernigov, Polotsk, Pyereyaslav, Galitsk, Volinsk, Smolensk, Ryazan, Rostov-Suzdal, Novgorod yeri, Kiev knyazligi va bir qator mayda knyazliklar tashkil topdi. Har bir knyazlik butunlay mustaqil bo'lib, o'zining ichki tartiblarinigina emas, balki tashqi siyosat olib borishi, urush va tinchlik muammolarini hal etish huquqlariga ham ega edi.

Rusdagi feodal tarqoqlikning to'rtta salbiy xususiyatini alohida ko'rsatish lozim: 1) o'zaro feodal urushlarining to'xtovsiz bo'lishi; 2) mamlakat mudofaa qobiliyatini zaiflashuvi; 3) knyazliklarning vorislar orasida taqsimlanib yanada maydalasha borishi; 4) knyazlar va mahalliy boyarlar orasida nizolarning kuchayishi hollari ro'y byerdi.

Novgorod yeri Kiev bilan ochiqdan-ochiq aloqasini uzgan birinchi mustaqil knyazlik bo'ldi. Kichkina kal'a sifatida paydo bo'lgan Novgorod XI asrga kelib faqat Rus yerlarining emas, balki Yevropaning hunarmandchiligi va savdosi yuksak rivojlangan shaharlaridan biriga aylandi. Shahar mo'ynalarga boy shimoliy-sharqiy rayonlarga hukmronlik qilardi. Novgorod bir necha savdo yo'llarining kesishgan yerlarida joylashgani, uning Boltiq dengizi orqali Yevropa, Volga daryosi va Kaspiy dengizi orqali esa Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro savdo aloqalarini olib borishi imkoniyatini yaratdi. Shu sababdan Novgorodda yaratilgan xalq ogzaki ijodi asarlari qahramonlari kemasoz-dengiz sayyohlari Sadko va Vasiliy Buslaevlar bo'lgan.

XI asrda Novgorodda an'anaga ko'ra knyaz-noib Kiev Buyuk knyazining katta o'g'li bo'lgan. Lekin bora-bora boyarlarning mavqeyi oshib, ular knyaz hokimiyatini cheklab qo'yganlar va Novgorod boyarlar respublikasiga aylangan. Novgorodliklar vechesi 1136 yili Monomaxning nevarasi –Vsevolod Mstislavichni knyazlikdan chetlatib qamoqqa olishga qaror qilgan. Shu vaqtdan boshlab shahar butunlay feodal respublikasiga aylanadi. Novgorodning siyosiy hayotida, xalq vechesida zodagon boyarlar ichidan saylanadigan shahar hokimi va «shahar kengashi» va saylab quyiladigan episkop bosh rolni o'ynardi.

Moskva, Rus yerlaridagi Kiev, Galich-Volin, Vladimir –Suzdal knyazliklarida ham XII –XIII asrlar boyarlarning knyazlarga qarshi kurashi ostida o'tdi. Jumladan, Vladimir Monomaxning o'g'li Yuriy Dolgorukiy XII asrda Rusning shimoliy-sharqida Volga va Oka daryolari orasiga ko'chib kelib joylashgan hamda mahalliy tub fin-ugor qabilalari bilan yaqinlashayotgan aholiga knyazlik qilardi. Vladimir-Suzdal yerlarida XI-XII asrlar davomida: Rostov, Suzdal, Yaroslavl, Vladimir, Yurev, Dmitrov kabi shaharlarga asos solindi. Knyazlik yerlaridagi Kuchkov qishlog'ida 1147 yilning bahorida Yuriy Dolgorukiy Kiev ustidan erishilgan g'alabalardan birini nishonlagan. Moskva deb atala boshlagan bu joyda 1156 yili yog'ochdan birinchi qal'a qurildi.

Yuriy Dolgorukiyning avlodlari Vladimir yerlarida va Moskvada Ivan 1U Grozniyga (1584 y) qadar hukmronlik qildilar. Vladimir –Suzdal knyazligi kelajakda rus yerlarining birlashishiga asos bo'ldi. Moskva XIU asrda ana shu birlashish jarayonining markaziga aylandi.

Muhokama uchun savollar:

1) Bosqinchilari rus davlatiga bostirib kelishini necha bosqichi mavjud? Bunga qarshi rus knyazlarining maqsadida umumiylikni yo`qligini qanday baholaysiz?

2-savol bo`yicha dars maqsadi:

Mo`g`ullarning Rossiyaga bostirib kirishi va hujumlari haqida gapirib byerish, Botuxon tomonidan Rus yerlari harobazorga aylantirganligini ochib byeradi, Nemis ritsarlari va shvedlarning Novgorodga bostirib kirishini yeritish, Aleksandr Nevskiy jasorati haqida gapirib byerish,»Muz ustidagi jang» ahamiyatini ochib byerish, talabalarga barcha xalqlar o`z qahramon vatanparvarlari bilan gururlanishini tushuntirish, baynalmilalchilikni tarbiyalash.

Indentiv o`quv maqsadlari:

- 1) Ruslarning mo`g`ul-tatarlarga qarshi kurashini ochib byeradi.
- 2) Tarixiy ahamiyatga ega bo`lgan janglar sanasini va tafsilotini biladi.
- 3) Aleksandr Nevskiy jasoratini ochib byeradi.
- 4) «Muz ustidagi jang»ning ahamiyatini biladi.

2-asosiy savol bayoni:

O`rta Osiyo va Kavkaz orti yerlarini bosib olgan Chingizxon Rus yerlariga 1223 yili bostirib keldi. Qipchoq xonlarining yordam so`rab qilgan murojaatlariga javoban janubiy rus knyazlarining drujinalari Kalka daryosi bo`yida dushmanlikga ro`para bo`ldi.

Mo`g`ul-tatarlar quyi chekingan bo`lib, rus drujinachilarini chalg`itib, o`z otlik askarlari uchun qulay maydonga chiqib olib, ularni to`la mag`lubiyatga uchratdilar. Asir olingan knyaz va drujinachilar ustiga taxta bostirgan g`oliblar, uning ustida o`tirib bazm qurdilar. Shunday keyin Mo`g`ullar Volga orti dashtlariga yo`l olib u yerda bir necha yil davomida Sharqiy yevropaga yangi yurishlarga tayyorgarlik ko`rdilar.

Mo`g`ul-tatarlarning Rusga qarshi keng ko`lamdagi hujumlari 1237 yilning oxirida boshlandi. Ularning 140 ming qo`shiniga Chingizxonning nevarasi Botu boshchilik qildi. Rus yerlarida davom yetayotgan feodal tarqoqlik Mo`g`ul-tatarlarga qo`l keldi. Dastlab qamal qilingan Ryazan shahri aholisining mardonavor qarshiligi kuchlar teng emasligidan natija byermadi. Vladimir knyazi o`ziga raqib hisoblangan Ryazanga yordamga kelmadi. Mudofaachilarning qat`iyatidan g`azablangan Botu shaharni butunlay vayron qilishni buyurdi.

Shimoliy-sharqiy Rusning ichkarisiga siljiy boshlagan dushman lashkarlari Kolomna ostonalaridagi jangda rus drujinachilarini yengib, Moskvani egalladilar. Botu qo`shini 1238 yilining fevral oyi davomida Volga va Oka daryolari xavzasidagi 14ta rus shahrini, jumladan Vladimiri vayronaga aylantirdi. Vladimir knyazi Yuriy Vsevolodovich qo`shini mart oyida Siti daryosi yaqinidagi jangda tor-mor qilindi, knyazning o`zi halok bo`ldi. Butunlay vayron qilingan Vladimir-Suzdal knyazligi shahar va qishloqlarida ming-minglab aholi halok bo`ldi, ko`plab qo`lyozmalar, moddiy madaniyat durdonalari yondirib yuborildi.

Yangi yurishlar 1239 yilda boshlanib, Botuxonning asosiy qo'shinlari Rus yerlarining janubiy qismiga zarba berdi. 1240 yili Kiev qamal va shiddatli janglardan keyin taslim bo'ldi. Janubiy Rus knyazliklari yerlari ham harobazorga aylanti rildi.

Bosib olingan yerlarda Chingizxon tuzgan saltanatning bo'linib ketgan qismlaridan biri, yangi davlat – Oltin O'rda qaror topdi. Hozirgi Astraxan shahri yaqinidagi Saroy shahri uning poytaxti edi. XIII asrning o'rtalaridan Rus knyazliklari Oltin O'rda xonligiga qaram yerlar sifatida, ularga katta o'lpon to'lay boshladi. Endi knyazlar Mo'g'ul xonlaridan olingan yerlikka binoan o'z yerlarini boshqarar, xalqqa zulm o'tkazib, ulardan og'ir soliqlar yig'ib olardilar. Knyazlarning o'zaro urushlarida Oltin O'rda xonlari o'z manfaatlarini ko'zlab goh birlariga, goh boshqaldiriga hokimlik qilar, natijada yana oddiy xalqning koni to'kilar, shahar va qishloqlar yonardi.

Mo'g'ullar istilosi rus yerlaridagi iqtisodiy taraqqiyotga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatda iqtisodiy rivojlanish sekinlashdi.

XIII asrning boshlarida Boltiq dengizi qirg'oqlarida yashaydigan est, liv qabilalariga qarshi nemis feodallarining urushlarini Rim papalari Salib yurishlari deb e'lon qildi. Bu urushlar mahalliy aholini xristian katolik diniga o'tkazish bayrog'i ostida olib borildi. Urushlar natijasida nemislarning Livoniya ordeni ritsarlari estlar yerlarini bosib olib Novgorod-Pskov knyazligi chegaralariga yaqinlashib qoldilar. Boltikbo'yi nemis ritsarlari bilan hamkorlikda harakat qilgan shved feodallarining katta qo'shini 1240 yilning yozida Neva daryosi bo'ylab Novgorod yerlariga bostirib kirdi.

Novgorod knyazi 18 yoshli Aleksandr Yaroslavich 1240 yil 15 yo'lda o'zining unchalik katta bo'lmagan drujinasi bilan shvedlar qarorgoxiga quqqisdan xujum qildi. Esh knyaz va uning dovyurak drujinachilari ko'rsatgan jasorat tufayli Aleksandrqa Nevskiy degan faxrli nom byerildi. Bu nom tarixda asrlar bo'yi saqlanib kelmokda.

Mo'g'ul-tatar bosqinidan chetda bo'lgan novgorod-Pskovning boy yerlari nemis ritsarlarini o'ziga tortardi. Bu borada ularni hatto shvedlarning muvaffaqiyatsizliklari ham to'xtata olmadi. Pskov yaqinidagi Izborsk qal'asini 1240 yili olgan ritsarlar, Pskov noibi Tvyerdila va boyarlar hoinligidan foydalanib shaharni egallashdi. Nemis feodallari o'sha yili qishdayoq novgorodning chegara rayonlariga ham bostirib kirishdi. Novgorodning dushmanga qarshi kurashini yana

Knyaz Aleksandr Nevskiy boshqardi. Knyaz Suzdal qo'shini yordamida Pskov va unga qarashli yerlarni ozod qildi.

Aleksandr Nevskiyning nemis ritsarlariga qarshi hal qiluvchi jangi 1242 yili 5 aprelda Chud ko'li ustida bo'lib o'tdi. Uning og'ir qurollangan otlik nemis ritsarlari bilan muz ustida jang qilishi oson bo'lishi haqidagi mo'ljali to'g'ri chiqdi. Jang boshlanishi bilan ritsarlarning pona shaklidagi asosiy kuchlari rus qo'shinining markaziga hujum qilib, uni yorib o'tmoqchi bo'ldi. Buni oldindan sezgan Nevskiy asosiy kuchlarni qanotda to'pladi.

Markazni osonlikcha yorib o'tgan nemislar uchun kutilmagan voqea – yontomondan kuchli hujum boshlanib, jang taqdirini hal qildi. Bu jangda nemis ritsarlaridan 500 kishi halok bo'ldi. Ko'p o'tmay Livoniya ordenining Novgorodga kelgan elchisi rus yerlariga da'vo qilishdan voz kechganliklarini ma'lum qildi.

Muhokama uchun savollar:

1. Rus knyazliklarini Moskva atrofida birlashuviga asos bo'lgan sabablarni ochib byering.
2. Oltin O'rda xonliklaridagi ichki inqiroziy hodisalarni sabablari nimalarda ifoda etiladi? Siz nima deb o'ylaysiz?

Nazorat topshiriqlari:

1. Chingizxon Rus yerlariga qachon bostirib kirganini toping.
a) 1147 yimlda b) 1156 yilda s) 1223 yilda d) 1237 ymilda
2. Botu qo'shini _____yil fevral oyi davomida _____ta rus shahrini vayronaga aylantirdi.
3. Shvedlar Novgorod yerlariga qachon bostirib kirganini toping
a) 1239 yilda b) 1240 yilda s) 1242 yilda d) 1243 yilda
4. «Muz ustidagi jang» qachon va qayerda bo'lib o'tganini ko'rsating
a) 1242 yili Chud ko'li ustida b) 1240 yili Izborsk qal'asida
s) 1238 yili Volga daryosi bo'yida d) 1223 yili Kalka daryosi bo'yida
5. Rus yerlarining markazlashish bosqichlarini to'g'ri ko'rsating:
a) 1471-1478 yillarda b) 1485 yilda
s) 1501 yilda d) 1514 yili

Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1) Buyuk Novgorod shahrining vujudga kelishidagi muhim omillarni ko'rsating.
- 2) muz ustidagi jangning ahamiyatini misollar bilan ochib byerinng.
- 3) Rusda markazlashtirish jarayoni qanday tarzda borganligini tushuntiring.

Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. Rus davlatidagi yer egaligi tarqoqligining sabablari va oqibatlarini ochib byering.
2. Rus knyazlarining birlashish sabablarini aniqlang.
3. Kiev Rusining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida Vizantiyaning roliga baho byering.

7- mavzu: XI-XV asrlarda Fransiya
Ajratilgan vaqt- 2soat

Asosiy savollar:

1. G'arbiy Yevropada siyosiy markazlashishning boshlanishi.
2. Fransiyaning birlasha boshlashi, genyeral shtatlarning tashkil topishi.

Mavzu oid tayanch iboralar va tushunchalar: Monarxiya, «Korol hokimiyati», Truada, Provenda, Brida, Lanida, Ovyern, Tuluza, Shampan, Burgundiya, «Kari qirol», Akvitaniya, balyaj, seneshallar, «sud maxmadonalari», legistlar, chuponlar harakati, «shtor jangi», «Genyeral shtatlar», «Sali haqiqati», yomon, «Qora

shaxzoda», «yangi villanlar», «qora o`lim», kapitanlar, «Jamiyat baxt-saodati uyushmasi», Yuz yillik urush, «fransuz».

Mavzuga oid muammolar:

1. XI-XV asrlarda Fransiyada siyosiy markazlashishning sabablarini nimalarning rivojlanishi zaminida bo`ldi? Shaharlarning rivojlanishimi? Tovar-pulning vujudga kelishimi yoki boshqa narsalarmi?

2. Franklar va inglizlar o`rtasidagi munosabatni qanday baholaysiz? Agarda inglizlar va franklar o`rtasida ziddiyat yuzaga kelmaganida qanday holat yuz berishi mumkin edi?

1-savol bo`yicha dars maqsadi:

XI asrda G`arbiy Yevropada shaharlarning va tovar-pul xo`jaligining rivojlanish bosqichlarini tushuntirib byerish, Angliya va Fransiyada davlatlarning tarkib topish shart-sharoitlarini tushuntirish.

Indentiv o`quv maqsadlari:

- 1) G`arbiy Yevropadagi siyosiy markazlashuvning sabablarini biladi.
- 2) Janna d Ark Qo`zg`olonining Fransiyada tutgan o`rniga baho byera oladi.
- 3) Yevropada tovar-pul ho`jaligining rivojlanish bosqichlarini tushuntirib byeradi.

1-asosiy savol bayoni:

XI asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran shaharlarning va tovar-pul xo`jaligining rivojlanishi zaminida Garbiy Yevropada siyosiy markazlashish jarayoni boshlandi. Parchalanib ketgan davlatlarni birlashtirish, qirol hokimyatini mustahkamlash va kuchaytirish jarayoni yuzaga keldi. «Tenglar o`rtasida birinchisi» gina qirollikdan iborat shaklsiz feodal monarxiyasi asta-sekin, ancha markazlashgan va tartibli tushgan toifaviy monarxiyaga aylandi. XV-XVI asrlarda esa mutlaq monarxiyaga o`tdi.

Garbiy Yevropaning ikkita mamlakatida – Angliyada va Fransiyada markazlashgan davlatlar juda tez tarkib topdi. Bu mamlakatlarda siyosiy markazlashish jarayoni, asosan XIII- XI asrlardayoq tugallandi.

Fransiyada ham, Angliyada ham birlashish jarayoniga qulaylik tug`dirgan tarixiy shart-sharoitlar, avvalo, har ikkala mamlakatdagi sanoat, savdo-sotiq sohasida, shaharlar va ichki bozorning tashkil topishida iqtisodiy rivojlanishning jadallik bilan borishi bo`ldi. Mamlakatning turli tumanlari bilan bog`langan yirik shaharlarning, jumladan, Parij va London shaharlarining ertaroq vujudga kelishi siyosiy jihatdan markazlashishni ayniqsa yengillashtirdi. U yoki bu mamlakatda tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi zaminida kuchli uchinchi toifa – shaharliklar maydonga keldi. Aholining barcha guruhleri orasida shaharliklar tarqoq feodal monarxiyasini tepasida kuchli qirol hokimiyati turgan, isyonchi feodallarni tartibga chaqirishga va mamlakatda mustahkam «qirollik osoyishtaligini» ta'minlashga qurbi etadigan markazlashganqirollikka aylantirishdan juda manfaatdor edilar.

XV asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran shaharlarning va tovar-pul xo'jaligining rivojlanishi zaminida G'arbiy Evropada siyosiy markazlashish jarayoni boshlandi. parchalini ketgan davlatlarni birlashtirish qirol hokimyatini mustahkamlash va kuchaytirish jarayoni yuzaga keldi. «Tenglar o'rtasida birinchisi» gina bo'lgan. Qirollikdan iborat shaklsiz feodal monarxiyasi asta –sekin ancha markazlashgan va tartibga tushgan toifaviy monarxiyaga aylanib XV-XVI asrlarda esa mutloq monarxiyaga o'tdi. G'arbiy Evropaning ikki mamlakatida-Angliyada va Fransiyada markazlashgan davlatlar juda tez tarkib topdi. Bu mamlakatlarda siyosiy markazlashish jarayoni, asosan XIII-XV asrlardayoq tugallandi.

Fransiyada ham, Angliyada ham birlashish jarayoniga qulaylik to'g'ridigan tarixiy shart-sharoit avalo, har ikkala mamlakatdagi sanoat savdo-sotiq sohasida, shaharlar va ichki bozorning tashkil topishida iqtisodiy rivojlanishning jadallik bilan borishi bo'ldi. Mamlakatning turli rayonlari bilan bog'langan yirik shaharlarning, jumladan, Parij va London shaharlarining ertaroq vujudga kelishi siyosiy jihatdan markazlashishini ayniqsa yengillashtirdi. U yoki bu mamlakatda tovar - pul munosabatlarning zaminida kuchli uchinchi toifa shaharliklar maydonga keldi. Aholining barcha guruhlari orasida barcha shaharliklar tarqoq feodal monarxiyasi tepasida kuchli qirol hokimiyati turgan, isyonchi feodallarni tartibga chaqirishda va mamlakatda mustaxkam, «qirollik osoyishtaligi»ni ta'minlashga qurbi etadigan markazlashgan qirollika aylantirishidan juda manfaatdor edilar.

Shaharlarning o'sishi bilan ozuqa mahsulotlari-non, go'sht, yog', sabzavot va boshqalarga, shuningdek turli qishoq xo'jalik xom-ashyosiga (jun, tyeri va x.k) bo'lgan. Talab ko'paydi. Tovar munosabatlari Fransuz qishlog'iga kira boshlab, uni mahalliy shaharlar bilan juda yaqindan bog'ladi. Parij o'sib borishi bilan u faqat o'ziga tutashgan okruglardagi qishloqlardagina emas balki ancha uzoq okruglardagi qishloqlardan ham o'zini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashni talab qildi. XI-XIII asrlarda Fransiya shaharlari katta yuksalishni boshidan kechirdi. Janubdagi shaharlarning ko'pchiligi shu jumladan ko'pgina Ko'hna Rim shaharlari ancha katta sanoat markazlariga aylanibgina qolmay balki ular Italiya va Yaqin Sharq (Livand) bilan ham qizg'in savdo-sotiq olib bordilar. Bular orasida Marsel Tuluza, Manpele, Narbonna ajralib turardi.

Muhokama uchun savollar:

1) XI-XIII asrlarda shaharlarning rivojlanishidagi omillarni qanday izohlaysiz? Buning salbiy va ijobiy tomonini qanday baholash mumkin?

2-savol bo'yicha dars maqsadi:

O'qituvchi bayoni oldiga ko'yilgan talablarni tushuntirish, Fransiyaning birlashish shart-sharoitlarini aniqlash, genyeral shtatlarning tarkib topishi va davlatni idora qilish uslublari bilan tanishtirish hamda davlatdagi reformalar va dehqonlar harakatining mohiyatini ochib byerish.

Indentiv o'quv maqsadlari:

1) Fransiyaning birlashishida genyeral shtatlarning roliga baho byera oladi.

- 2) Davlatdagi reformalarning joriy qilinishi va dehqonlar harakatining asl mohiyatini anglab etadi.
- 3) XII-XIII asrda Fransiyaning ijtimoiy va siyosiy hayotidagi inqirozlarni ochib byera oladi .

2-asosiy savolning bayoni:

XII-XIII asrlarning ikkinchi yarmida Fransiya ishlab chiqaruvchi kuchlarning juda tez rivojlanganligi ko'rdi. Dehqonchilik ancha o'sdi. Yerning bir qismi bir juft xo'kiz qo'shilgan gildiraksiz yengil plug bilan, boshqa bir qismi ikki yoki uch juft xo'kiz qo'shilgan og'ir plug bilan yaxshilab haydalar edi. Bug'doy, javdar, suli, arpa vaboshqa boshqali ekinlar hosili ko'payib, ekilgan urug'likka qaraganda besh va hatto olti xissa ortiq g'alla yig'ib olinadigan bo'ldi. Bog'dorchilik, polizchilik, uzumchilik sohasida katta yutuqlarga erishildi. Shaharlarning o'sishi bilan ozuqa maxsulotlari – non, go'sht, yog', sabzavot va boshqalarga, shuningdek, turli qishloq ho'jalik xom-ashyosiga (jun, zigir, tyeri va xokazolarga) bo'lgan talab ko'paydi. Tovar munosabatlari frantsuz qishlog'iga kira boshladi. Parij o'sib borishi bilan u faqat o'ziga tutushgan okruglardagi qishloqlardagina emas, balki ancha Uzoq okruglardagi qishloqlardan ham o'zini qishloq ho'jalik maxsulotlari bilan ta'minlashni talab qildi.

XI-XIII asrlarda Fransiya shaharlari katta yuksalishni boshidan kechirdi. Janubdagi shaharlarning ko'pchiligi, shu jumladan, ko'pgina ko'hna Rim shaharlari, ancha katta sanoat markazlariga aylanibgina qolmay, balki ular Italiya va yaqin sharq (Levant) bilan qizg'in savdo sotiq olib bordilar. Bular orasida Marsel, Tuluza, Narbonna alohida ajralib turardi. Ayni zamonda shimolda va shimoliy-sharqda Am'en, Suasson, Lan, Sanlis, Bove, Ruan, Reyms, Trua va boshqa ko'pgina shaharlar o'sib chiqdilar va sanoatning muhim markazlariga aylandilar. Bu shaharlarda movut va kanop gazlamalari etishtirilardiyo mo'yna ishlanardi, temir, qalayi, kumush, emal va boshqalardan turli metall buyumlar tayyorlanardi.

Birinchi Kapetinglar hokimiyati dastlab tamomila zaif edi. X-XI asrlarda Fransiya Garbiy Yevropaning eng tarqoq monarxiyalaridan biri edi. Qirol bu yerda knyaz-feodallardan birining, hattoki kuchli bo'lmagan knyaz'-feodalning oddiygina o'rnini egallardi. Ko'pgina qo'shni yirik feodallar, har qaysisi o'z holicha qirolidan kuchliroq edi. Va faqat feodallarning o'zaro raqibligi, chyerkovning, keyinroq esa shaharning Kapetinglarni qullab-quvvatlashi, bu dinastiya vakillarining ustalik qilib, oxista siyosat yurgizishi birinchi paytlarda loaqal o'z urug'ining qirollik unvonini qo'ldan chiqarmay, balki uni nasldan-naslga myeros qilib qoldirish imkonini byerdi. Qirol o'zining myerosiy domenida – Il de Frans gyertsogligida ozmi-ko'pmi xo'jayin edi.

XII asrning birinchi yarmidagina Lyudovik XI va Lyudovik XII hukmronlik qilgan davrda qirol hokimiyati bir qadar yuksala boshladi. Lyudovik VI Semiz (1108-1137) deyarli butun o'ttiz yillik hukmronlik davrini o'z domenidagi baronlarga qarshi kurash bilan o'tkazib, pirovardi ularni o'ziga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Shimoliy Fransiya sanoat shaharlarning gurillab o'sishi muhim siyosiy natijalarga ega bo'ldi. Fransiyaning bu qismida yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, shaharlar kommuna xuquqini olish uchun zo'r byerib va qattiq harakat qildilar. Lyudovik VI

boshda ikkilanib, shahar harakatiga nisbatan darhol qulay mavqeyni egallamadi. Ammo Lyudovik VII davrida (1137-1180), ayniqsa undan keyingi qirol – Filipp II Avgust davrida yoki qirollik hokimiyati shaharlarning mahalliy feodallariga qarshi olib borgan kurashida shu shaharlarni qat'iy qullab-quvvatladi.

Lyudovik VII ikkinchi salib yurishda qatnashdi, lekin bu yurish unga kam foyda keltirdi. Lekin kiro yuk vaqtida mamlakatni idora qilib turgan abba Sugyeriy ham maxalliy baronlarga qarshi muvaffaqiyatli kurashni davom ettirdi.

Shaharlarning feodallarga qarshi olib borgan kurashlarida Sugyeriy ham bu shaharlarni zo'r byerib qullab-quvvatladi. Nihoyat, savdo bojlari ko'payib borganligi tufayli, shuningdek, kiro yer-mulklaridan keladigan daromadlarning ortib borishi natijasida o'sib borgan qirollik moliya ishlarini g'oyat zo'r qobiliyat egasi bo'lgan Sugyeriy tartibga tushirdi.

Lyudovik VIIning o'gli Filipp II Avgust (1180-1223) o'z hukmronligi ostida frantsuz yerlarini birlashtirish siyosatini izchillik bilan olib borib, bu ishda porloq yutuqlarni qulga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Filipp qirollik domenida joylashgan frantsuz shaharlariga ham, boshqa knyaz-feodallarga qarashli tyerritoriyadagi shaharlarga ham hokimlik ko'rsatdi. Filipp II o'zi hukmronlik qilgan davrning boshlaridayoq shimoldagi Pikardiyani va Vyermanduani qirollik demeniga qo'shib olgan edi. Uning Plantagenetlar bilan bundan keyingi olib borgan kurashi katta g'alaba bilan tamom bo'ldi. XIII asr boshlarida Filipp II frantsuz mulklarining ko'pchiligi: Normandiya, Anju, Men, Turen. Puatuning bir qismi (1204-1214) ni Plantatg`genetlardan tortib oldi.

Lyudovik IX tanga-chaqa zarb qilishda feodallar bilan raqobat qildi. U boshqa gyertsog va grafliklarning tanga-pul chiqarish va uni amalda yurgizishni bekor qilmasa ham, lekin qirollik tang-chaka pulining shu gyertsog va graflarning mulklarida o'zlariniki bilan bab-barovar yurgizilishiga monelik qilmaslikka o'z vassallarini majbur etdi. Natijada eng salmoqli qirollik tang-chaka puli odatda feodallarning yomon sifatli pullarini siqib chiqarar edi. XIII asr o'rtalarida qirol byudjeti juda o'sdi. Savdo-sotiqdan, sanoatdan va qirollik yer- mulklaridan keladigan daromadlarning tobora ko'payib borishidan tashqari, Lyudovik IX xazinani boyitish maqsadida feodallarning tanxo yerlaridan ustalik bilan foydalandi. Lyudovik IX zamonida yirik feodalarni undiriladigan vassallik to'lovi yuqori darajada oshdi.

Umuman Lyudovik IX davrida qirollik daromadlarining o'sishi o'sha zamonida Fransiyaning ho'jalik jihatdan yuksala borganligini ochidan-ochiq ko'rsatar edi. Pul xo'jaligining rivojlana boshlashi, shaharlar, sanoat va savdo-sotiqning o'sishi oqibatida mamlakatning siyosiy jihatdan markazlashuvi xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarining taraqqiy qilishiga ijobiy ta'sir etdi.

XIII asrda Fransiya qishloqning ahvolidan ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar yuz berdi. Mamlakatda shaharlarning o'sishi va tovar xo'jaligi rivojlana boshlashi munosabati bilan krepostnoy dehqonlarning bir qismi (syervlar) feodallar tomonidan pul obrogiga ko'chirildi. Bu masala Salib yurishlari dehqonlarni ozod qilishga birinchi sababchi bo'lib, ancha katta rol o'ynadi. Salib yurishiga ketayotib va bunda odatda pulga muxtojlik sezgan feodal o'z krepostnoyylariga pul to'lab ozodlikka chiqishni yoki shu pul evaziga loaqal eng og'ir krepostnoylik majburiyatlardan kutilishni taklif etar edi.

XIII asrning oʻrtalarida fransuz qishlogidagi dehqonlar ommasi ahvolining yomonlasha borishi zaminida koʻplab har qanaqangi mahalliy janjallar va dehqonlarning sen'orlarga qarshi chiqishlari yuz byerib turdi. Dehqonlarning bu chiqishlari ba'zan ancha tus olib, butun-butun viloyatlarni oʻz ichiga olgan ommaviy gʻalayonlarga aylanib ketardi. Fransiyaning anchagina qismiga yoyilgan bunday yirik qoʻzgʻolonlar jumlasiga 1251 yilda chuponlar harakati nomi bilan mashxur boʻlgan harakat kiradi.

Filipp IV davrida «mustaqil» vassal knyazliklar soni tamomila oz qoldi. Flandriya grafligidan tashqari, faqat Burgundiya, Bretan, Akvitaniya gyertsogliklari hali qoʻshib olinmagan edi.

Qirolning papa bilan qilgan majarosi munosabati bilan birinchi marta chaqirilgan Genyeral shtatlar, keyin Filipp IV davrida 1308 va 1313-1314 yillarda yigʻildi. Doimo moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirgan Filipp IV har safar yangi soliqlar uchun rozilik byerishni shtatlarga taklif qilardi. Yangi soliqlarni tasdiqlash funksiyasi XIV asrning birinchi yarmida Filipp IV ning vorislari davrida Genyeral shtatlarning bundan keyingi faoliyati uchun katta ahamiyatga ega boʻldi. Genyeral shtatlari tuzilishi natijasida Fransiyaning davlat tarqqiyoti olgʻa qarab bir qarab bir qadam tashladi, chunki qirolni aholining keng va eng nufuzli tabaqalari bilan bogʻlovchi yangi muhim organ paydo boʻldi. Genyeral shtatlarga boy shaharliklardan vakillar tortilishi ayniqsa muhim edi. Bu narsa shaharliklarning siyosiy ta'siri oʻsib borganligini koʻrsatar edi. Genyeral shtatlar endilikda butun mamlakat miqyosida qirol hokimiyatning shaharlar bilan tuzgan ittifoqining yangi formasi edi. Qirol uchinchi toifaga tayanib, oʻz moliya ishlarini mustahkamlay oldi va qaysar feodalarni yana koʻproq cheklab qoʻydi. Dastlabki tarqoq feodal monarxiyasi oʻz oʻrnini markazlashagan toifaviy monarxiyaga boʻshatib byerdi, bu monarxiyani boshqarishda mamlakatdagi uchta rasmiy toifa vakillarining majlisi, shu jumladan, yangidan shakllanib kelayotgan sinf – burjuaziya vakillari ham ishtirok qildi.

Muhokama uchun savollar:

1. Yuz yillik urushning boshlanish sabablarini ochib byering. Urush nima uchun yuz yilga choʻzildi? Agar sababni biz Akvitaniya deb bilsak, Flandriya qanday rol oʻynadi? Sizningcha qaysi davlat gʻalabaga erishishi mumkin edi?
2. Yuz yillik urushining oqibatlari Fransiyaning gʻalabasi bilan tugagan boʻlsa, nima uchun Vestfaliya sulhida Angliyaga koʻproq hudud ajratildi? Buning sababi nimada edi? Agar Janna d'Ark qoʻzgʻoloni boʻlmaganda Angliya gʻolib kelishi mumkinmidi? Sizning fikringiz?

Nazorat topshiriqlari:

1. Fransiya nechanchi asrlarda shaharlar yuksalishini boshidan kechirdi?
a. X-XI asrlarda b. XI-XII asrlarda
s. X-XIII asrlarda d. XI-XIII asrlarda
2. Qirollikka qarashli mulklar qanday nom bilan atalardi?
a. Senashalar. b. Langedok. s. Bal'yaj. d. Plantagenet

3. Legistlar kimlar?

- a. Feodallarni shunday nom bilan atashgan.
 - b. Pasi tabaqadan chiqqan, lekin baland martabaga erishganliklari uchun butkul qirolga xizmat qiladigankishilar.
 - s. Feodallarga xizmat qiladigan tofa.
 - d. Qirol qo`l ostidagi xizmatchilar.
4. Yuz yillik urushning goh to`xtab, goh davom etgan sanasini aniqlang?
- a. 1337-1447 yy. b. 1340-1445 yy.
 - s. 1337-1453 yy. d. 1338-1454 yy.

5. Inglizlar nechanchi yilda qat'iy harakatlar boshlab frantsuzlarning Sleys yonida turgan flotini yuk qilganlar?

- a. 1337y. b. 1338y. s. 1339-1340 y. d. 1340y.

6. Eduard III Kale portini nechanchi yilda bosib oldi?

- a. 1345 y. b. 1346y. s. 1347 y. d. 1349 y.

7. "Jamiyat baxt-saodati" uyushmasining asosiy rahbari kim edi.

- a. Lyudovik XI b. Karl V
- s. Lyudovik XI ning o`g`li. d. Burgundskiy.

8. Lyudovik XI ning ugli Karl VIII Bretan gyertsogligini nechanchi yilda bo`ysundirib oldi.

- a. 1489 y. b. 1492 y. s. 1495 y. d. 1490 y

9. Avstro -Vengriyaning shaxzodasi Maksimilianning qizi Mariya quydagi qaysi davlatga turmushga chiqqan?

- a. Lion b. Nidyerlandiya s. Gabsburg d. Parij

Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1) XI-XV asrlarda Fransiyaning ijtimoiy tuzum negizida qaysi tuzum saqlanib qolgan edi? O`rta asrlarda Fransiya'dagi tuzumni tabaqalashtiring.
- 2) Fransiyaning birlasha boshlashining asl mohiyatini ochib byering. Fransiyaning birlashishida yuz yillik urushning ta'sirini qanday baholaysiz?
- 3) Yuz yillik urushning oqibatlari umum Yevropada qanday ahamiyatga ega bo`lib qolganini tahlil qiling.
- 4) Karl V ning qanday reformalarni bilasiz? Uning reformalarni o`sha davrdagi davlat reformalari bilan qiyoslang.

Mavzu bo`yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

- 1) Yuz yillik urush misolida urushning sababi bilan bahonasi o`rtasida farqni tushintirib byerish.
- 2) Yuz yillik urush boshlanishida frantsuzlar uchun adolatlimidi? Oxirida-chi? Frantsuz qo`shinlarining yengilish sabablarini ochib byerish.

8- mavzu: XIII asrda Mo`g`ul davlati va uning istilolari.

Ajratilgan vaqt-4 soat.

Asosiy savollar:

- 1) Mo`g`ul qabilalarining hayoti va ijtimoiy tuzumi.
- 2) Chingizxonning tatar-mo`g`ul qabilalarining birlashtirilishi va davlatni idora qilishi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: , qushxona, kure, noyonlar, bagaturlar, navkar, harachu, urug ittifoqi, xon, «harbiy demokratiya», xiroj, «ko`chmanchi feodalizm», zodagon, rezyerv, Timuchin, votchina, mingboshi, Moraviya, vengr koroli, lennik, «impyeriya», bek, sirkulyar, xristian, ulus, «Darband darasi», ekspluatatsiya, polovets, aillar, kuren.

Mavzuga oid muammolar:

1. O`rta asrlarda qabilasini markazlashuviga olib kelgan vaziyatni qanday baholaysiz?
2. Ko`chmanchi chorvador aholisi va boshqa qabilalarni orqasidan ergashishiga majbur etgan holatni qanday tushuntirib byera olasiz?

**1-savol bo`yicha** dars maqsadi: Mo`g`ul qabilalarining hayoti haqida aytib byerish, ularning ijtimoiy tuzumini ochib byerish va Mo`g`ullarning o`rta asrlarda tutgan o`rniga baho byerish.

Indentiv o`quv maksadlari:

- 1) Mo`g`ul davlatining tashkil topishi haqida biladi.
- 2) Mo`g`ul qabilalarining hayoti juda katta ahamiyatga ega ekanligini tushunadi.
- 3) Ularning ijtimoiy tuzumini aniqlaydi.
- 4) Mo`g`ullarning o`rta asrlarda tutgan o`rniga baho byeradi.

1 – asosiy savolning bayoni:

XII asrda hozirgi Mongoliya, Manjuriya terrytoriyasida va Sharqiy Sibirning Janubiy qismida Mo`g`ullarning ko`p sonli qabilalari istiqomat qilar edilar. Mo`g`ullarning ko`pchilik qismi dashti-biyobonda yashab, chorvachilik, yilqi, qoramol va qo`y-echki boqish bilan shug`ullanar edi. Mo`g`ullarning bir qismi o`rmonlarda yashab, mo`ynali hayvonlar ovlar va baliqchilik qilar edi. Dasht Mo`g`ullari ko`proq sonni tashkil qilib, ancha rivojlangan edi. Ular o`rmonlarda yashovchi Mo`g`ullar ustidan hukmronlik qilib ulardan majburiy suratda mo`yna solig`i olardilar.

XII asrdagi Mo`g`ullarning ijtimoiy tuzumida urug`chilik tuzumining xususiyatlari hali juda ko`rinib turardi. Ko`chmanchi Mo`g`ullar urug`-urug` bo`lib yashardilar. Ko`chmanchi Mo`g`ullarning manzillari kuren (qushxona)dan, ya'ni urug` boshlig`i – oqsoqol o`tovi tevaragida guruh-guruh bo`lib joylashgan bir necha o`nlab yoki hatto yuzlab o`tovlar yig`indisidan iborat bo`lardi. Urug`chilik qasosi Mo`g`ullar hayotida juda katta ahamiyatga ega edi. Ularning dinida avlod-ajdodlar ruhiga sig`inish katta o`rin tutardi. Har bir urug`ning izzat-hurmat qiladigan o`z hudolari – eng shuxrat qozongan urug`doshlari orasidan chiqqan ajdodlari bo`lardi.

Biroq XII asrning ikkinchi yarmida – XIII asr boshlarida Mo`g`ullarning ijtimoiy tuzumida urug`chilik munosabatlari sezilarli darajada yemirila boshlaganligi ko`rinadi. Ko`chmanchilarning urug`chilik kureni o`rniga yakka-yakka holdagi ko`chmanchi xo`jalik – oilalar tobora ko`paydi; odatda o`zining ko`y-echki podasi va yilqisiga ega bo`lgan katta patriarxal oiladan iborat bo`lar edi. Urug`chilik yemirila borishi natijasida boylar, ya'ni noy onlar va bagaturlar n ing dongdor oilalari ajralib chiqadi. Noyonlarda ma'lum miqdorda qo`l (harachu)lari bo`lardi. Noyonlar tevaragida drujinachilari —navkarlari bo`lardi. Noyonlar bilan bagaturlar o`rdaga (urug`lar ittifoqi) boshchilik qilardilar. O`rdalar o`z navbatida ancha yirik qabila ittifoqlari uyushgan edilar. Bu yirik qabila ittifoqlari tepasida x on l a r turardilar. Xonlar va ularning tevaragida harbiy – qabila zodagonlari bo`ysundirilgan qabilalardan xiroj olardilar. Mo`g`ullarda davlatning varvarlik formasi ana shu tariqa vujudga keldi. Bu davlat boshda «harbiy demokratiya» xususiyatlariga ega bo`lib, bu o`ziga xos Mo`g`ul feodalizmi («ko`chmanchi feodalizm») yanada rivojlana borishi bilan harbiy demokratiya asta-sekin buziladi va ahamiyatini yo`qotadi. Ittifoqchi qabilalarning zodagonlari vaqti-vaqti bilan alohida s'ezdlarga, ya'ni qurultoylarga yig`ilardilar. Qurultoylarda xonlarni saylardilar, dushman qabilalar va xalqlar bilan urush va yarash masalasini xal qilardilar. Ba'zan gunoxkor deb topilgan ayrim noyonlar va hatto xonlarning o`zlarini sud qilardilar.

Chingizxon vafot etgan fursatga kelib 1227 yilda mo`g`ul davlati juda oulkan tyerritoriyan, ya'ni sharqda hozirgi Oxota dengizlari sohillaridan tortib, g`arbda Kaspiy dengizning janubiy qirg`oqlarigacha cho`zilib ketgan teritoriyan egallar edi. Mo`g`ulistonning o`zidan tashqari, unga Shimoliy Xitoy, O`rta Osiyoning katta bir qismi Janubiy Sibir, Kavkazning bir qismi kirar edi.

1235 yildan boshlab Mo`g`ullarning rasmiy poytaxti O`rxun daryosi bo`yidagi Qoraqurum shahari bo`lib u tom ma'nodagi shahardan ko`ra, tezroq harbiy manzilni eslatardi . Ya'ni davlat ochiqdan ochiq harbiy harakterdagi davlat edi. Ko`plab qo`shin tashkil etishi, tob'e etilgan aholidan xiroj, yig`ish, bo`ysundirilgan xalqlarni bostirish Chingizxon va uning eng yaqin yordamchilari ko`proq ana shu narsalar bilan band bo`ldilar. Qo`shinlar tanlab olish tajribasiga asoslanib mo`g`ul hukumati istilo qilingan. Mamlakatlarni harbiy belgiga ko`ra ma'muriy jihatdan bo`lish usulini joriy qildi. Mamlakatlar tumanlarga bo`lindi. Ma'muriy okruglar va rayonlarning boshliqlari ham tumanlar mingboshilar yuzboshilar va boshqalar deb atalar edi.

Muhokama uchun savollar:

1.Timuchin 1206 yilda Onon daryosi vodiysidagi qurultoyda ulug` xon deb ataldi. Unda nima uchun Chingizxon deb ataladi?

2.Chingizxon mustaqil holda davlatchilik siyosatini olib bordi. Uning bu siyosati qabilalar ittifoqi asosidamidi? Sizning mulohazangiz?

**2-savol bo`yicha dars maqsadi:** Chingizxon hukmronligi davrida Mo`g`ullarning ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli haqida aytib byerish, Chingizxon davlatining idora qilinishi to`g`risida tushuntirish, uning tatar-Mo`g`ul qabilalarni birlashtirishidagi shart-sharoitlarni aniqlash va ijtimoiy harakteriga baho byerish.

Indentiv o`quv maqsadlari:

- 1) Chingizxonning hukmronligi davrida Mo`g`ul davlatining ijtimoiy va iqtisodiy ahvolini biladi.
- 2) Chingizxon davlatining idora qilinishini tushuntiradi.
- 3) Chingizxonning hukmronligidagi ijtimoiy hayotni ochib byeradi.
- 4) Mamlakatlarning tumanlarga bo`linishiga baho byerish.

2 – asosiy savolning bayoni:

XIII asr boshlarida Amur daryosining yuqori qismlari bilan Xitoyning shimoliy chegarasi o`rtasidagi tyerritoriyada yashagan Mo`g`ul qabilasining xonlaridan biri bo`lgan Timuchin (1155-1227) Mo`g`ullarning turli qabilalarini va ko`p sonli tatarlarni birlashtirishga muvaffaq bo`ldi. 1206 yilda Onon daryosi vodiysida to`plagan qurultoyda Timuchin ulug` xon deb e`lon qilindi va u Chingizxon deb atala boshladi.

Mo`g`ullar katta harbiy ittifoqning vujudga keltirilishi eng yirik istilolarini keltirib chiqardi. Buning uchun ko`pgina shart-sharoitlar mavjud edi. Timuchin kuchli Mo`g`ul harbiy- qabila zodagonlariga boshchilik qilardi, bu harbiy qabila zodagonlari bungacha harbiy o`ljani qumsagan o`z drujinachilarnidan iborat tajribali harbiy kuchga ega edilar. Mo`g`ul qabilalari oddiy jangchilarning katta rezyervlariga ega edilar. Mo`g`ullarning ko`chmanchi chorvadorlar hayotini kechirishi ularda a`lo darajadagi otliq askarlarni o`stirishga sababchi bo`ldi, dehqonchilik bilan shug`ullanuvchi xalqlar bu otliq askarlar bilan qo`shnichilik yashab va u bilan ko`pincha urushlar qilish bilan bir vaqtda, harbiy-texnika ko`pgina narsalarni shu xitoyliklardan qabul qilib olgan edilar. Jumladan, Mo`g`ullar alohida devor teshadigan va o`t sohadigan qurollar yordamida shaharlar olish san`atini batamom egallagan edilar.

Eng yaqin yillar ichida Chingizxon Janubiy Sibirda yashagan ko`pgina xalqlarni o`ziga bo`ysundirdi. Ular orasida buryatlar, yoqutlar, qirgizlar va boshqa xalqlar bor edi. 1211 yilda Chingizxon Shimoliy Xitoyni istilo qilishni boshlab, uni umrining so`ngi yillaridagina tamom qildi. Ammo Xitoyni u`zil-kesil istilo qilishdan avval, Chingizxon O`rta Osiyoda keng istilochilik ishlarini boshlab yubordi. 1218-1228 yillar davrida keng Xorazm davlatini istilo qildi, unga Xorazmdan tashqari Sharqiy Eron, Buxoro, Afgoniston davlatlari ham kirar edi. Chingizxon istilo qilgan mamlakatlarni va ulardagi shaharlarni g`oyat shavqatsizlik bilan vayron qilib tashladi. Chingizxon qarshilik ko`rsatmoqchi bo`lgan Buxoro, Samarkand, Urganch (Xorazm poytaxti) Marv va boshqa shaharlardagi aholi (moxir hunarmandlardan tashqari)ning ko`pchilik qismi qirib tashlandi. Moxir hunarmandlarni esa Mo`g`ullar qullarga aylantirdilar. Yengilganlarning barcha molu mulki Mo`g`ul o`rdalarining o`ljasi bo`lib qoldi. Mo`g`ullar O`rta Osiyodagi irrigatsiya sistemasini yakson qildilar(jumladan, ular Marv yaqinidagi mashxur Murg`ob to`g`onini buzib tashladilar).

Chingizxonning eng yaqin noyonlar boshchiligidagi Mo`g`ul qo`shinlarining bir qismi Kaspiy dengizining janubiy sohili bo`ylab Zakavkazega o`tib kirib, so`ng Kavkaz (Darbant darajasi) orqali Donga, qipchoq cho`liga chiqdi. Bu yerdan, Kalka daryosi bo`yida, Mo`g`ullar 1223 yilda birinchi marta ruslar bilan to`qnashdilar, ruslar qipchoq(polovets)larning ittifoqchisi sifatida ularga yordam byermiqchi

boʻlgan edilar. Rus knyazlari bilan qipchoq knyazlarining bir-birlari bilan kelishmasdan harakat qilishlari oqibatida ittifoqchilar magʻlubiyatga uchradilar. Tatar-moʻgʻullariga qarshi kurashda rus milliy hayotining mustaxkam markazi – Moskva vujudga keldi. Ammo kurash xalq ommasidan juda koʻp qurbonlar talab qildi. Moʻgʻullar hukmronlik qilgan davrda russining qadimgi madaniy markazlardan- Vizantiyadan va Janubiy Slavyanlardan aloqasi uzulib qoldi. Xolbuki, rus koʻp asrlar davomida Vizantiya va Janubiy slavyanlar bilan aloqa qilib kelar edi. Shu bilan bir vaqtda, moʻgʻullar hukmronlik qilgan davrda rus Gʻarbiy yevropa mamlakatlari bilan ham normal iqtisodiy va boshqa xil munosabatlarni rivojlantira olmadi. Oʻrta Asrlarni soʻnggi asrlarida Gʻarbiy Evropa mamlakatlari oʻzi ishlab chiqaruvchi kuchlarini birmuncha tez rivojlantirmoqa edi. Tatar-Moʻgʻullar hujumi Vengriya va Polshaning rivojlanishiga ham yomon taʼsir qildi. Bu mamlakatlar moʻgʻullarning hujumidan rusga qaraganda beqiyos darajada kam zarar koʻrgan boʻlsalarda Lekin ular ham zaiflashgan edi. Buning natijasida Vengriya bilan Polsha gyerman feodallari bilan juda qaram boʻlib qoldi. Gyerman feodallari Vengriya bilan Polshaning milliy davlat boʻlib yashashiga jiddiy xafv soldilar. Moʻgʻullar istilosi osiyo mamlakatlari boshiga ham haddan tashqari ogʻir musibatlar soldi. Qadimgi iqtisodiy va madaniy markazlar vayron qilindi.

Muhokama uchun savollar:

Chingizxon armiyasini Oʻrta Osiyoga yurishini Oʻtror voqeasi bilan bogʻlaymiz. Unda Yevropaga yurishini qanday izohlaysiz?

Nazorat topshiriqlari:

- 1) Chingizxon istilolari nechanchi yillarini koʻrsating?
a) 1206-1227 yillar b) 1205-1225 yillar
s) 1204-1224 yillar d) 1207-1227 yillar
- 2) Chingizxon «Ulugʻ xon» nomini qayerda va qachon oldi?
a) Amur daryosi vodiysida, 1202 yilda
b) Sharqiy Sibirda, 1204 yilda.
s) Xitoyda, 1206 yilda.
d) Anon daryosi vodiysida, 1206 yilda.
3. Chingizxon nevarasi Xulagu Bogʻdodni nechanchi yilda oldi?
a) 1255 yilda b) 1257 yilda s) 1260 yilda d) 1258 yilda
4. Moʻgʻullar nechanchi yillarda butun Zakavkazeni bosib oldilar?
a) 1230-1250 yillarda b) 1232-1242 yillarda
s) 1230-1240 yillarda d) 1229-1242 yillarda
5. Moʻgʻullar davlati nechanchi asrlarda tashkil topdi?
a) XI-XII asrlarda. b) XI-XIII asrlarda
s) X-XII asrlarda d) XII- XIV asrlarda

6. Mo'g'ul qabilasi ittifoqi tepasida kimlar turar edilar?

a) Zodagonlar. b) Mo'g'ullar s) Xonlar d) Noyonlar

Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:

3) Mo'g'ul qabilalarining ijtimoiy tuzumidagi hali o'zil kesil tugallanmagan urug'chilik tuzumini tahlil qiling.

4) Chingizxon istilolarining maqsad va oqibatlarini ochib byering.

5) Chingizxon davrida davlatni idora qilinishi va ijtimoiy harakterini izohlab byering.

6) Chingizxon vafotidan keyingi mo'g'ullarning ijtimoiy ahvoliga baho byering.

7) Mo'g'ul istilolarining Yevropa va Osiyoda tutgan o'rmini tahlil qiling.

Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammo:

1) Tatarlar deb umumiy nomlanishini ilmiy asoslab byerish.

2) Chingizxonning olib borgan siyosatiga baho byerish.

3) Chingizxon istilolarining Yevropa va Osiyoda tutgan o'rniga ilmiy asosda baho byerish.

9-mavzu: XII-XV asrlarda Chexiyada guschilar harakati
Ajratilgan vaqt-2 soat.

Asosiy savollar:

1) XII-XIII asrlarda Chexiyaning sotsial – iqtisodiy taraqqiyoti va milliy ziddiyatlarning keskinlashishi.

2) Guschilar urushi va ular olib borgan urushlarning tarixiy ahamiyati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Lexlar, vladiklar, otroqlar, panlar, «lesi», sedlyaklar, «Villanlar», barshchina, dedich, renta, «ozod etiluvchi», xalupnik, zeman, Yan Gus, panlar, obroch, episkop, monastir, «vatanparvar», London arxiepiskopi, Briksen episkopi, Jur episkopi, Konstantsa episkopi, Chyerkov, sobori, guschilar, toboriylar, «daxshatli kur», Lipa, chashniklar, podoboylar, «to'rtta modda», seym, dvoryan, katolik.

Mavzuga oid muammolar:

XII-XIII asrlarda Chexiyada sotsial-iqtisodiy ziddiyatlar keskinlashib ketdi. Buning sababini Chexiyadagi nemislarning sinfiy kurashi dedik, chunki ular Chexiyada katta siyosiy rol o'ynar edi. Bu ziddiyatlar nima uchun milliy tus oldi? Siz nima deysi? Sizning fikringiz.

1-savol bo'yicha dars maqsadi: XII – XIII asrlarda Chexiyaning ijtimoiy ahvoli bilan tanishish, unda milliy ziddiyatlarning kelib chiqish shart – sharoitlarini ochib byerish va Yan Gus islohotlariga baho byerish.

Indentiv o'quv maqsadlari:

1) XII – XIII asrdagi Chexiyaning ijtimoiy hayoti bilan tanish bo'ladi.

2) Chexiyada XIV asrdagi siyosiy yuksalish mamlakatning iqtisodiy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatganligini tushuntiradi.

3) Chexiyadagi milliy ziddiyatlarning kelib chiqish sabablarini ochib byeradi.

1-asosiy savolning bayoni:

X-XI asrlarda uzil-kesil rasmiylashgan Chexiya davlati XII-XIII asrlarga kelib, Yevropaning boshqa mamlakatlariga o'xshash feodal mamlakatga aylandi.

Qirol drujinachilari lexlar va vladiklarning eski zodagon oilalari bilan birlashib, feodal tipidagi katta va ancha mayda yer egalariga aylandilar. Ular mamlakatdagi yerlarning katta qismini bosib oldilar. Ularning yer-mulklarida krepostnoylar birinchi navbatda qo'liga yer byerilgan qullardan tashkil topgan krepostnoylar (otroqlar yoki erksiz dexkonlar) ishlardilar. Feodallar dehqon aholisini sud qilish muddaosida qirolidan huquqlar olardilar. Chexiyada oliy tabaqa feodalar, panlar (jupanlar, ya'ni qabila boshliqlari nomidan kelib chiqqan suz) quyi tabaqa feodalar-vladiklar deb atalardi. Umuman olganda, panlar-baronlar va vladikalar-ritsarlar imtiyozli toifa-shlyaxtani tashkil qilardilar.

Sobiq erkin jamoachi dehqonlardan chiqqan qaram dehqonlar qullardan tashkil topgan krepostnoylarga asta-sekin kelib qo'shildilar. Bunday qaram dehqonlar degan nom bilan atalardi, bu nom frantsuzcha «villanlar» degan so'zga to'g'ri keladi. Vakt o'tishi bilan sedlyaklar pomesteni tashlab ketish huquqidan mahrum etildilar. Ular muayyan (kesib kuyilgan) barshchinani ado etib, oldindan belgilab quyilgan obroq haqi to'lardilar. Ammo XIII asrning to oxirigacha va qisman hatto XIV asrda ham Chexiyada ham erkin dehqonlar-dedichlar tabaqasi xali ancha-muncha saqlanib qolgan edi. Dedichlar eski vorislik (dedich) xuquqiga ko'ra, o'zlarining jamoachilik tartib-qoidalarini tamomila saqlab qolgan va asosan sud bo'yicha feodallarga qaram edilar (lekin bu sudga ularning qilgan bircha ikir-chikir gunohlari va ayb ishlari kirmasdi, albatta). Dedich huquqiga ko'ra, dehqonlar o'zlariga qarashli yer uchastkalarining myerosxo'rlari hisoblanardilar. Feodal muayyan miqdorda haq to'lamay turib, ularni o'tirgan yerlaridan haydab yubora olmasdi. Bu kategoriyadagi dehqonlarning majburiyatlari muhim bo'lib, ular urf-odat bo'yicha belgilab byerilardi, hamda chinakam krepostnoy dehqonlar o'taydigan majburiyatlarga nisbatan ancha-muncha yengil edi.

Chexiyada XIV asr o'rtasidan boshalanib siyosiy yuksalish mamlakatning iqtisodiy yutuqlarini aks ettiradi. Bu vaktga kelib Chexiya iqtisodiy jihatdan g'oyat darajada rivojlangan mamlakat hisoblanardi. Chexlarning kumush konlari, movut to'qishi, surp sanoatining rivojlanganligi, qishloq xo'jaligidagi yutuqlari Chexiyada dehqonchilikdan tashqari, bog'dorchilik, baliqchilik xo'jaligi, uzumchilik, zig'irchilik, nasha, xmel o'stirish va x.k. mana shularning biridir degan shon-shuxrat keltirdi. Chexiya qirolidan olgan behisob daromadlarni Gyermaniyaning birorta ham badavlat knyazi ololmasdi. Praga yirik savdo markaziga aylandi. Chexiyaning ko'pdan-ko'p boshqa shaharlari u bilan juda yaqindan aloqa qilardilar. Bu shaharlar orasida Brano, Plzen, Xeb, Kutna gora, Lolomouts alohida ajralib turardi. XIV asrda Chexiya, Gyermaniya, Polsha, Vengriya, Kuyi Dunay bo'yi mamlakatlari, Janubi-Garbiy Rus bilan keng xalqaro savdosi olib borardi. Mamlakatda tovar-pul xo'jaligi tobora o'sib, u qishloqni ham qamrab olgan edi.

Chexiyada g'oyat darajada keskinlashib ketgan ijtimoiy ziddiyatlar ochiqdan-ochiq milliy tusga kira bordi. Chexiya dehqonlari, o'rta va mayda darajadagi shaharliklar, shuningdek, quyi ritsarlar (zemanlar) asosan badavlat nemis sinflarini o'zlarining sinfiy dushmanlari deb bilardilar, chunki Chexiyadagi nemislar bu vaqtga kelib juda katta boylik orttirib, bu mamlakatda katta siyosiy rol o'ynar edilar.

Ruhoniy va Praga univyersitetining professori Yan Gus milliy va diniy-reformatorlik kayfiyatidagi chex jamiyati ilg'or tabaqalarining ifodachisi bo'ldi. Dehqon oilasidan chiqqan Yan Gus, 1369 yilda Gusinets degan joyda dunyoga keladi. Praga univyersitetining shogirdi bo'lgan Yan Gus 1398 yilda univyersitet professori, 1402 yilda esa uning rektori bo'lgan. Yan Gusning g'ayrati tufayli Chexiya qiroli Vatslav 1409 yilda Praga univyersitetining ustavini uzgartirib, professor chexlarga univyersitetni idora qilishda raxbarlik rolini topshirdi. Yan Gusning zamondoshi ingliz reformatori Jon Viklefning ta'siri ostida Gusning diniy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari ancha rivoj topdi. Ammo bir kancha masalalarda Gus Viklefdan o'tib ketdi va dadilroq harakat qildi.

Gusning faoliyati Praga arxiyepiskopini, so'ngra esa papa kuriyasini ham unga qarshi oyoklantirdi. Gusga toat-ibodat qilish man etildi. U professorlik va rektorlik lavozimlaridan ketishga majbur bo'ldi. Segizmund o'z suzidan xoinona qaytib Gusga yordam byerishni istamadi. 1415 yilning 6 iyulida Yan Gus Konstants maydonlaridan birida olovda kuydirildi.

Muhokama uchun savollar:

1. Inkivizatsiya siyosati faqat Yevropaga xos edimi? Sizning fikringiz?
2. Yan Gus va guschilar qo'ygan talablar bajo keltirilganda Yevropada tinchlik hukmron bo'lar edimi?

2 – savol bo'yicha dars maqsadi: Chexiyadagi guschilar harakatining asl mohiyatini tushuntirish, Guschilar xarakatidagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatlar haqida aytib byerish, Yan Gusning islohatlaridagi maqsad va mohiyatni ochib byerish va guschilar harakatiga baho berish.

Indentiv o'quv maksadlari:

1. Guschilar harakatining boshlanish tarixini biladi.
2. Uning asl maqsad va mohiyatini tushuntiradi.
3. Yan Gus islohatlariga baho beradi.
4. XV asrlarda Chexiyaning ijtimoiy hayotini yoritib beradi.

2 – asosiy savolning bayoni:

XV asrning birinchi yarmida kichik bir slavyan mamlakati – Chexiyada boshlanib ketgan qudratli sinfiy va xalq ozodlik kurashi feodal Yevropani larzaga keltirdi. Asoschisi Yan Gus nomi bilan atalgan guschilar harakati avvalo feodal tuzumning eng katta tayanchi-katolik chyerkoviga qarshi karatilgan edi.

XIV asr o'rtalarida chex qiroli Karl 1 (1346-1378) Muqaddas Rim saltanatining impyeratori qilib saylandi. Chexiya saltanatining eng kuchli davlati bo'lib qoldi. Chex qiroli impyerator saylash huquqiga ega bo'lgan knyazlar o'rtasida birinchi

o'rinni egallagan edi. Karl 1 urushlardan bo'yin tovlasa-da, yer sotib olib, farzandlarini foyda keltiradigan qilib uylantirish va erga berish bilan chex qirolligining xududini

Kengaytirishga muvaffak buldi. U yirik feodalarning huquqlarini cheklashga urinmadi, ammo bu ishida jiddiy muvaffakiyatlar kozona olmadi. Qirol kasb-xunar, konchilik, savdo-sotiq va madaniyatning rivojlanishiga hokimlik qildi.

Bu vaktda Chexiyaning xujaligi yuksalib bormoqda edi. Juda ko'p yangi yeralar ochildi. Chexiyani har tomondan urab olgan toglardan yangidan-yangi mis, qalay va ruda konlari topildi. Pul zarb qilinadigan kumush qazib chiqarish bo'yicha Chexiya Yevropada oldingi urinlardan biriga chiqib oldi. Shaharlarda hunarmandchilikning turlari bor edi, movut to'qish va shishasozlik shular jumlasidan edi. Yevropaning deyarli markazida joylashgan Chexiyada muhim savdo yullari kesishib utardi. Paragada har yili ikki marta katta yarmarka tashkil qilinar edi, unga Polsha, Gyermaniya va Italiyadan savdogarlar kelardi. Karl I davrida saltanatning poytaxti bo'lgan Praga u zamonning katta shaharlaridan bo'lib, unda salkam 40 ming aholi yashardi.

Ho'jalikning yuksalishi xalqqa yengillik keltirmadi. Yirik feodallar – panlar zebziynat ichida, farogatda yashar, har xil o'llar bilan ritsarlarni kisib, hatto ularning yeralarini ham tortib ola boshladilar. Xonavayron bo'lgan ko'pchilik ritsarlar o'z yurtida yoki begona yurtlarda yollanma qo'shinlarda xizmat qilishar, ba'zilar yullarda qaroqchilik bilan shug'ullanishardi. Katolik chyerkovi Chexiyaning goyat katta yer egasi edi. Mamlakatda eng unumdor yerlarning uchdan bir qismi usha cherkov qo'lida edi. 14 ta shahar, 900 ta kishlok chex cherkovining boshligi Praga episkopiga qarardi. Ministrlar ayniksa boy edi. Bexisob chyerkov tulovlaridan dexkonlar va shaharliklarning tinkasi kurigan edi. Ruxoniylar Chexiyadan oladigan daromadlarining ancha qismini Rimga yuborardi. Chexiyada katolik chyerkoviga qarshi umumiy norozilik tugilmokda edi. Episkop va ministrarning boyligi va yer-mulklari panlar va ritsarlarning gayirni kuzgardi, ular cherkov yerlari xisobiga o'z yer-mulklarini ko'paytirishdan qaytmas edi.

XV asr boshlarida Praga kuchalaridan biridagi chyerkov juda ko'p odamlarni jalb etardi. Shaharliklar, dehqonlar va ritsarlar bu yerga Praga univyersiteti professori Yan Gusning otashin nutqlarni eshitgani kelishardi.

Yan Gus (1371-1415) dehqon oilasida tugilgan. Iste'dodli va mexnatsevar yigit univyersitetda ta'lim olish uchun ko'p mashaqqatlarni boshidan kechirgan. Ko'p o'tmay Gus professor darajasiga kutarilib, chexlar orasida birinchi bo'lib, Praga univyersitetini boshqardi. Yan Gus ruxoniylarning kilmishlarini shavqatsizlik bilan fosh etardi. U Rimda chyerkov mansablariga pulga sotilayotganligidan gazablanib, papani qalloblar piri deb atardi. Gus Chexiyada indulgentsiyalar savdosini qattiq qoralardi: «Bechora kampirning oxirgi chaqasini ham nomunosib ruxoniy shilib oladi. Shundan keyin bunaqa chyerkov xodimini ugridan ham mug'ambirroq va yovuzroq demay bo'ladimi?

Rim papasi Gusni Gyermaniya janubidagi Konstantsa shahrida majlis kuruvchi oliy ruxoniylar s'ezdi-chyerkov soboriga chaqirtirdi. Impyerator Gusga ximoya yorligi bergan bo'lib, bu yorliqda Gus uchun xech qanday xavf-xatar yukligi va'da qilingan edi. Gus o'z qarashlarini ximoya qilmoq uchun Konstantsaga borishga qaror

qildi. Kostantsada Gusni zanjirband qilib zax va sovuq qorongi zindonga tashladilar. U olti oy zindonda yotdi, so'ngra uni sud qildilar. Sobor uni bid'atchi deb e'lon qildi va o'z karashlaridan voz kechishni talab etdi.

1415 yili Yan Gus utda kuydirildi. U azobli o'limni mardonavor kutib oldi.

Muhokama uchun savollar:

- 1) Yan Gus isyonkor jinoyati sifatida o'tda kuydirildi. Sizningcha yana qanday holat yuz berishi mumkin edi? Tarixiy ahamiyatini qanday baholaysiz?
- 2) Taboriylar harakatini inqirozi va guschilar ta'limotini amalga oshmaganligini qanday tushunasiz?

Nazorat topshiriklari:

1. Guschilar harakatining asoschisi kim?

- a) Yan Gus. b) Karl I.
s) Sigismund d) Yan Jijka

2.XIV asr o'rtalarida Muqaddas Rim impyeratori kim edi?

- a) Yan Gus b) Yan Jijka
s) Karl I d) Sigismund

3.Yan Gus qachon va qayerda tugilgan?

- a) 1371 yil Gusinets b) 1372 yil Praga
s) 1370 Chexiyada d) 1375 yil Gyermaniyada

4.Chexiya davlati nechanchi asrlarda rasmiylashgan?

- a) X-IX asrlarda. b) X-XI asrlarda.
s) IX_X asrlarda d) X-XII asrlarda.

5.«Sedlyaklar» so'zining ma'nosi nima?

- a) Zodagonlar b) Qaram dexkonlar
s) Feodallar d) Impyeratorlar.

6.Yan Gus qanday oiladan kelib chiqqan edi?

- a) Zodagonlar. b) Feodal
s) Dexkonlar. d) Qirol

7.«Xalupnik» deb kimlarga aytishadi?

- a) Yersiz kambagal dehqonlar b) Zodagonlar
s) Feodallar d) Hunarmandlar.

8.Kimlar o'zlarini guschilar deb atashgan?

- a) Yan Gusning barcha tarafdorlari. b)Feodallar.
s) Toboriylar d) Faqat dehqonlar

9.Guschilar qo'shinining asosiy tashkilotchisi kim edi?

a) Karl I b) Yan Jijka s) Yan Jivskiy d) Sigizmund

10. Praga kompaktlari nomi ostidagi bitim kachon tuzildi?

a) 1430 yilda b) 1431 yilda s) 1432 yilda d) 1433 yilda

11. Chexiya Gyermaniya impyeriyasi sostaviga kachon kirdi?

a) 1520 yilda b) 1524 yilda s) 1526 yilda d) 1529 yilda

Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:

2. Guschilar harakatining boshlanish sabablari va mohiyatini ochib byering.

3. Chexiya davlatining tashkil topish shart-sharoitlarini aytib byering.

4. Yan Gus islohotlarining mohiyatlarini tushuntirib byering.

5. Guschilar va salibchilar o'rtasidagi ziddiyatlar, uning oqibatlari.

6. Guschilar olib borgan urushlarning ahamiyatini ayting.

7. Guschilarning Chexiyada tutgan o'rniga baho byering.

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. XII-XV asrlarda Chexiya va guschilar urushi mavzusini o'rganildi.

2. Chexiya davlati XII-XV asrlarda rasmiylashib, feodal davlatga aylandi.

10-mavzu: XVI-XVII asrlarda Polsha.

Ajratilgan vaqt 2 soat

Asosiy savollar:

1. XVI-XVII asrlarda Polshaning iqtisodiy va siyosiy tuzumi.

2. Polshada reformatsiya harakatlarining keng tarkala boshlanishi va qirol hokimyatining zaiflashib ketish oqibatlari. Napyerskiy qo'zgoni.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Buyuk polsha, Mazoviya, Liflandiya, Nemon, port, javdar, statut, xolop, pomeschchik, xristian, Dantsig, poshlina, panlar, shlyaxta, «Dexkonlar urushi», reduktsiya, «chex birodarlari», «chyerkov uniyasi», «artikullar», seym, protestant, karolin, «Erkin veta», Zit Stvoli.

Mavzuga oid muammolar:

1. Polshada yangi shaharlarning paydo bo'lishini Sharqdagi qaysi voqea bilan bog'lay olasiz? Sizning fikringiz?

1- savol bo'yicha dars maqsadi: XVI-XVII asrlardagi Polshaning iqtisodiy va siyosiy tuzumini tushuntirib byerish, Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida Polshaning xalqaro savdosining inkirozga uchrashi sababalarini ochib byeradi va bu davrda ko'pgina yangi shaharlarning vujudga kelish shart-sharoitlariga baho beradi.

Indentiv o'quv maqsadlari:

1. XVI-XVII asrlarda Polshaning iqtisodiy va siyosiy tuzumi bilan tanish bo'ladi.

2. Bu davrlarda polyak shaharlarining vujudga kelish shart-sharoilarini tushuntirib beradi.
3. XVI asrda Polshadagi feodal tarqoqlikning asl mohiyatini anglab etadi.
4. XVI asrda Polshada dehqonlarning ijtimoiy ahvoliga baho byeradi.

1-asosiy savolning bayoni:.

XVI asrda Polsha katta davlat edi. Buyuk Polsha, Mazoviya, Kichik Polsha, Litva, Galitsiya, Janubi-Garbiy Rus, Garbiy va Sharkiy Prussiya (bu o`lka qaram, vassal mamlakat sifatida), Livoniyaning bir qismi (Liflandiya) Polsha davlati sostaviga kirgan edi. XVI asr boshlarida Polshaning besh milnga yaqin aholisi bor edi (o`sha davrdagi Angliya yoki Nidyerlandiyadagiga qaraganda ancha ortiq edi).

Ammo shu bilan birga XVI asrda Polsha tipik agar mamalakat bo`lib qolaverdi. Umumuan uning sanoati va savdosi yaxshi rivojlanmagan edi. Turklarning Sharqi-Janubiy Yevropadagi istilolari munosabati bilan va Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida Polsha xalqaro savdoning asosiy yullarida chetda qolib ketgan edi. Sharkiy Yevropadagi boshka mamlakatlar (Sharqiy Gyermaniya, Baltika bo`yi mamlakatlari) kabi Polsha ham Garbiy Yevropadagi sanoat sohasida ancha taraqqiy qilgan mamlakatlarga qishloq ho`jalik maxsulotlari etkazib byeradigan agrar mamlakatga aylanib bormoqda edi. Visla va Neman daryolaridan Baltika dengizi portlariga Polshadan juda ko`p mikdorda javdar, bugdoy, arpa, suli, zigir, xmel, kun, yog, mum, smola, yogoch, qora mol va shu singlarlar tashib borilardi. Polshaning o`ziga esa chetdan turli gazmol, metall buyumlar va panlarning ko`pdan-ko`p kasr va kurgonlari uchun har xil jixozlar va ziynat buyumlari keltirilardi.

Chetga kishlok xujaligi maxsulotlari chikarish va birinchi navbatda galla sotishga asoslangan tashki savdoning rivojlanib borishi negizida Polshada XV asr oxiri va butun XVI asr davomida krepostnoy huquq kuchayib bormoqda va tobora umumiy tus olib, dexkonlar ommasining axvolini ayniqsa ogirlashtirmoqda edi. Seymda ketma-ket qabul qilingan konunlar polyak dehqonlarini asoratga solishni yuridik jixatdan rasmiylashtirib berar, dehqonni panlar ixtiyoriga tamomila topshirardi.

1496 yilda qabul qilingan qonun (statut) tirikchilik uchun pul topish maqsadida bir dehqon oilasidan faqat bir kishinigng chetga ketib ishlashi mumkin deb, dehqonlarning chetga chiqib ketishlarini cheklab qo`ygan edi. 1520 yilda qabul qilingan qonun ilgari barshchiga bilan sira aloqasi bulmagan dehqonlarni ham xaftada bir kun barshchina ishlab berishga majbur etar edi. 1543 yilda qabul qilingan qonunda pomeschchik yerlarida yashagan dehqonlar uchun «pan xoxish-irodasi bilan» cheksiz barshchina urnatildi.

Savdo-sotik ishlari bilan shug`ullanuvchi polyak shlyaxtasi iqtisodiy monopoliyani faqat o`z sinfi qo`lida saqlab qolishga intildi. Hukumat shlyaxtaning chet ellarga qishloq ho`jalik maxsulotlarini boj tulamay chiqarishi uchun imkoniyat bergan va spir tayyorlash monopoliyasini shlyaxta kuliga topshirib kuygan edi. qishloqdagi karvon saroylar, temirchilik ustaxonalari va tegirmonlarning hammasi pomeschchiklar monopoliyasi edi.

Pomeshchiklar manfaatini kuzlab, hukumat chet ellardan kiritiladigan sanoat mollardan boj olmas va pomeshchiklarga zarur bo'lgan sanoat mollari Polshadan chetga chiqartirmas edi.

Polshada XV asrning ikkinchi yarmi XVI asrning birinchi yarmida shahar rivojlanishida davom etdi. Bu davrda ko'pgina yangi shaharlar vujudga keldi, bular orasida tez usayotgan Varshava ham bor edi. Eski shaharlardan Janubda Krakov, Lyublin: Sandomir, Shimolda Torun va Gdansk(yoki Dantsig) ajralib turardi. Polsha savdogarlari Gardan janubi-Harkka (Qora dengizning shimoliy sohilidan, Moska davlatidan) yullar Polsha orkali utganligi munosabati bilan vositachi savdogarlar sifatida katta foyda oladilar.

Polsha-Gyermaniya, Vengriya-Italiya, Skandinaviya mamlakatlari va Rossiya bilan intensiv savdo olibboardi. Polsha shaharlarida bu davrda sanoatning turli tarmoqlari; movut, tukish, turli gazlamalarga gul bosish, metallurgiya, kunchilik, kogoz, shisha va boshka ishlab chiqarishlar ancha muvaffakiyatli rivojlandi. Boy shaharliklar orasida mahalliy polyak elementlari ustunlikni kulga ola boshladilar. Kelgindi nemis hunarmandlari va savdogarlari sekin-asta polyaklar bilan qo'shilib ketdilar. Ammo Polshadagi shahar hayotining bu yuksalishi uncha Uzoqqa chuzilmadi. Bunga qisman savdo yullarining uzgarishi, xususan turkiyaning Bolqon yarim orolidagi istilolari munosabati bilan qora dengizning Janubi-Sharqida va Dunay sohilida savdoning kasodga uchrashi sabab buldi.

Krepostnoy huquq avjiga chiqqan hamda polyak shaharlari iqtisodiy va siyosiy jihatdan zaif bo'lgan sharoitda feodallar (panlar va shlyaxtalar) mamlakatda butun hokimiyatni o'z kullarida saklab turar edilar. O'rta asrlar oxirida Yevropaning ko'pchilik mamlakatlarida markazlashgan davlatning siyosiy formasi bo'lgan absolyutizm tashqil topgan holda, Polshada aslida XVI asrda ham feodal tarkok monarxiyasi hukm surmoqda edi. Qirol hokimiyati juda zaif bo'lib, nomigagina mavjudedi. Polsha qirolligi chin ma'nodagi monarxiya emas edi. Dvoryanlar seymi saylab kuyadigan va huquqlari shu seym tomoniadn cheklab qo'yilgan qirol chinakkam qiroldan kura, o'ziga xos polyak, dvoryan, shlyaxta respublikasining umrbod prezidentiga uxshar edi.

Polsha qirolining doimiy armiyasi yuk edi. Shuning uchun u tomomila shlyaxta lashhkariga, ya'ni (Pospolita kulatuvchilari) ga qaram edi. Qirolning moliyaviy ahvoli ham nixoyatda tang edi. hatto bir zamonlar qirolga karashli yer mulklarining ham ko'p qismi XV asr davomida va XVI asr boshlarida magnatlar kuliga utib ketgan edi. Qirollar bu yerlarni qirollik ixtiyoriga kaytarish (reduktsiya qilish) masalasini ko'p marta kutarib chikkan bulsalar ham, lekin natijasiz qolgan edi.

Muhokama uchun savollar:

1. Polshadagi shaharlarning tezroq vujudga kelishida Buyuk geografik kashfiyotlarning ta'siri bo'lgan bo'lsa, Polshadagi reformatsiya harakatlarining keng tarqalishi oqibatlariga nima deysiz?

2-savol bo'yicha dars maqsadi: Polshada reformatsiya harakatlarining tez tarkala boshlashi sabablarini tushuntirish, Yagellolar sulolasining tugashi va Voza sulolasi davrida Polshaning ijtimoiy hayotiga baho berish.

Indentiv o`quv maksadlari:

1. Polyak reformatsiyasining xususiyatlarini biladi.
2. Yagellolar sulolasining tugashi natijasida qirol hokimyatining zaiflashib ketish sabablarini tushuntirib beradi.
3. Sigizmund III va uning ugli Vladislav IV zamonida Polshaning ichki hayotidagi axvolga baxo beradi.

2-asosiy savolning bayoni: Polshada reformatsiya harakatlari keng tarkala boshladi. Polyak reformatsiyasining xususiyati uning juda xilma-xil ekanligida edi. polshaga lyutyeranlik, ham kalminizm, guschilar chyerkovi (chex chyerkovlari) va boshqalar kirib kela boshladi. Ammo uning ta'siri ham etarli darajada keng emas edi. Dehqonlar ommasi orasida reformatsiya umuman keng tarqaldi. polyak dehqonlari ideologik jixatdan tamomila katolik chyerkovi ta'siri ostida qoldilar. Polyak bulmagshan dehqonlar (ukrainlar va belaruslar) sharqiy pravoslaviy aqidasiga amal qilardilar. reformatsiya asosan dvoryanlarni va qisman shahar doiralarini qamrab oladi. Chyerkovga karashli juda ko`plab kotolik yerlarning suyaklarizatsiya qilinishi ko`pgina panlar va shlyaxtalar orasida xayrixoxlik tugdirdi. Aslida bu narsa turli feodal tudalarining uzaro kurashishiga aylanib ketdi, chunki har bir refarmatsion okimning u yoki bu magnatlaridan iborat xomiylar bor edi. 1570 yilda Sandomirdagi s'ezdda milliy polyak reformatsiyalashtirilgan yaerkovini yaratish yulidagi urinish muvafaqiyatsiz chiqdi.

Sigizmund II Avgust vaqtida (1548-1572) Polsha o`z yerlarini ancha kengaytirdi. 1561 yilda Ivan Grozniyga qarshi olib borilgan Livoniya urushi davomida Liflantiya Polshaga kushib olindi. Shundan bir necha yil keyin usha Livoniya urushi tufayli Polsha Litva bilan yangi ittifoq tuzdi. 1569 yilda polyak va litva feodallarining Lyublanda bo`lib utgan kshma seyminda umumiy polyak –litva seymiga ega bo`lgan va umumiy tashki siyosat olib boradigan birlashgan Litva – Polsha davlati tuzilganligi e'lon qilindi. Keng litva –rus yerlarining kushib olinishiga va kolonizatsiya qilishiga keng imkon byerdi.

Sharkdagi kollonizatarlik siyosati katoliklar reaksiyasining o`zil-kesil galabasi uchun sharoit tugdirib byerdi. Endi polyak dvoryanlari Polshaning o`zida katolik chyerkovining yerlarini musodara qilishdan bemalol voz kechishlari mumkin edi. Buning ustiga katolik chyerkovi polyaklarning hukmron sinflari uchun nihoyat darajada zarur bo`lib qolgan edi. Janubiy rus yerlaridagi mahalliy dehqon aholisi orasida bosqinchi va krepostnik polyak panlariga qarshi qattiq norozilik va dushmanlik boshlangan edi. Dehqonlarni ideologiya jihatidan polyaklar ta'siriga buysundirish maqsadida panlar provaslav dinidagi rus-ukrain axolisini katolik diniga kiritish aholining qarshiligiga uchraganligidan, katolik ruhoniylari «chyerkov uniyasi» deb atalgan o`rta bir utish yulidan foydalandilar. Provaslav chyerkovi o`z diniy rasm-odatlarini va ibodat qilishda slavyan tilini saqlab qolgani holda Rim papasiga buysunishi lozim edi. Shu chyerkov uniyasi tugrisidagi qaror 1596 yilda Brest shahridagi chyerkov soborida qabul qilingan edi.

1572 yilda Yagellolar sulolsi tugadi. Bu sulolaning sungi namoyandasi bo`lgan Sigizmund II Avgustdan farzadn qolmadi. Saylovlarda (eleksiyada) pnlar Polshaning

toji-taxtini fransuz shaxzodasi va keyinchalik Genrix III nomi bilan Fransiyaning qiroli bo'lgan genrix Valuaga taklif qildilar. Genrix atigi bir necha oygina Polshaning qiroli bo'lib turdi. U akasi Karl IX ulgaligi tugrisidagi xabarni eshitishi bilan oq Polshadan junab ketdi. Ammo uning nomi Polsha qirollarining huquqini yana ham cheklab kuyish bilan mashhurdir. 1573 yilda Genrix «artikullar» (moddalar) ni imzolashi kyerak edi; bu «artikullar» qiroлга taxt vorisi belgilashni man qilgan, seymlar chikargan qarorlarni tasdiklash yoki rad qilish, sulh tuzish va lashkar tuplash (pospolit kulashi) huquqlaridan qirolni maxrum kilar edi.

Stefan Batoriyning vorislari bo'lgan va shved qiroli Vaza xonadonidan chikkan qiroл Sigizmund III (1587-1632) hamda uning ugli Vladislav IV (1632-1648) zamonida qiroл hokimyatining obrusi birmuncha kutarildi. Shu bilan birga yangi sulolaning kushni xalqlarga nisbatan tutgan agressiv, bosqinchilik siyosati okibatida Polsha davlatiningn mustahkamlanishiga emas, balki aksincha, uning ochiqdan-ochiq zaiflashishiga olib keldi. Polsha XVII asrning birinchi yarmida o'zining tashqi siyosatida bir necha marta jiddiy muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Sigizmund III shved yerlarini o'z hukmronligi ostida birlashtirish uchun juda ko'p kuch sarf etdi. Ammo u buning uddasidan chiqa olmadi. Shvetsiyada Vaza sulolasining boshqa bir protestant nasl-nasabi (butogi) mustahkamlanib olgan edi. Sigizmund III va Vladislav IV ning Moskva davlatiga nisbatan olib borgan agressiv siyosati ham muvaffaqiyatsiz bo'lib chiqdi.

Muhokama uchun savollar:

1. Polsha tashqi siyosatda bir necha marta jiddiy muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Buning sababi qo'zg'olonlarning ko'payishi bo'lsa, Polshaning Moskva davlatiga qarshi olib borgan kurashini qanday izohlaysiz?

Nazorat topshiriklari:

1. XVI asrning 20 – yillarida Polshada aynan kanday voqea yuz byerdi?

- a) Reformatsiya harakatlari keng tarkaldi.
- b) Polsha o'z yerlaini ancha kengaytirdi.
- s) Chyerkov uniyasi haqida qaror qabul qilindi.
- d) Yagellolar sulolasi tushkunlikka uchradi.

2. Brest shahridagi chyerkov uniyasi kachon qabul qilindi?

- a) 1596 yil b) 1593 yil s) 1592 yil d) 1591 yil.

3. Yagellolar chulolsi kachon tugatildi?

- a) 1571 yilda b) 1573 yilda s) 1570 yilda d) 1572 yilda.

4. XVII asrning birinchi yarmida Polshaning hayotida kanday voqea yuz byerdi?

- a) Tashki siyosatida bir necha marta jiddiy muvaffakiyatsizlikka uchradi. b)
- Polsha parchalanib ketdi.
- s) Taxtga Sigizmund keldi. d) Prussiya Polshaga urush e'lon qildi.

5. Buyuk geografik kashfiyotlarning Polshaga kanday ta'siri buldi?

- a) Shaharlar vujudga keldi. b) Savdo-sotik rivojlandi.

s) Savdo-sotiq pasayib ketdi. d) Kuzgolonlar kutarildi.

6. Polshada yangi shaharlarning vujudga kelishi qaysi davrlarga tugri keladi? a) XV-XVI asrlar.

a) XVI-XVII asrlar.

b) XV asrning ikkinchi yarmi XVI asrning birinchi yarmi.

s) XV asrning oxiri – XVII asrning birinchi yarmi.

d) XIV-XV asrlar.

7. Polshada feodal tarqoqlik qachon boshlandi?

a) XV asrda. b) XVI asrda.

s) XVII asrda d) XIV asrda.

8. XVII asrning 20 va 40 – yillarida panlarga qarshi kurashda kim boshchilik qildi?.

a) Kosinskiy. b) Pavel But.

s) Bogdan Xmelnitskiy. d) Sigizmund III

9. Rossiya-Polsha o`rtasidagi urush nenchanchi yillar oraligida davom etdi?

a) 1655-1666 yillar. b) 1654-1660 yillar.

s) 1666-1700 yillar d) 1654-1667 yillar.

10. Usha davrda Polshadagi xalq harakatlarining vujudga kelish sababalarini aniqlang?

a) Ogir krepostnoylik zulmi va polyak dehqonlarining huquqsizligi.

b) Krepostnik polyak panlariga qarshi qattiq norozilik va dushmanlik boshlangan edi.

s) Krepostnoy huquq kuchayib bormoqda va tobora umumiy tus olib, dehqonlar ommasining axvolini ogirlashtirdi.

d) Soliqlar turining ko`payib ketdi.

11. Koska Napyerskiy kuzgolonining asl moxiyati nimada edi?

a) Krepostnoylik huquqini tamomila tugatish va butun yerni dehqonlar kuliga byerish.

b) Butun ommani o`z hukmronligi ostida birlashtirish va o`z davlatini tuzish.

s) Dehqonlarni huquqsizlantirish.

d) Polshaning yagona qiroliga aylanish.

Mavzu bo`yicha mustakil ish topshiriqlari:

1. Asrlarda XVI Polshaning iqtisodiy taraqqiyoti va krepostnoylikning kuchayish sabablarini aytib byering?

2. Polyak shaharlarining evolyutsiyasi deganda nimani tushunasiz?

3. O`sha paytdagi Polshaning siyosiy tuzumi haqida nimalarni bilasiz?

4. Qirol hokimiyat va XVII asrning ikkinchi yarmida Polshadagi feodal anarxiyaning kuchayish sababalari.

Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. XVI asrlarda Polshaning iqtisodiy taraqqiyoti va krepostnoylikning kuchayishi sabablarini aniqlash.
2. O'sha paytdagi Polshaning siyosiy tuzumiga baho byerish.

11-mavzu: XVI-XVII asrlarda Shvetsiya**Ajratilgan vaqt- 4 soat:****Asosiy savollar:**

1. Shvetsiyaning Daniya hukmronligidan ozod bulishi. Shvedlar reformatsiyasi
2. XVI-XVII asrlarda Shvetsiyaning iqtisodiy tarakkiyoti

Mavzuga oid tayanch tushincha va iboralar: Kalmar, uniya, Stokgolm fojeasi, Sture, milliy shved sulolasi, shved dvoryanlari ruhoniylari, graf, baron, nyerke kuzgoloni, reduktsiya.

Mavzuga oid muammolar:

Biz Yevropa madaniyatining yuksak cho'qqisi deb o'rta asrlarni oladigan bo'lsak, Shvetsiyaning yuksak taraqqiyotini nima uchun so'ngi o'rta asrlarda o'rganamiz? Buni qanday izohlaysiz?

1-asosiy savol:

Shvetsiyaning Daniya hukmronligidan ozod bulishi. Shvedlar reformatsiyasi.

1-savol bo'yicha dars maqsadi: XV-XVII asrlardla Shvetsiyadagi ijtimoiy hayot bilan tanishtirish, Gustav Vazaning idora qilishda uning reformalrini ochib berish va dehqonlar qo'zg'olonga baho berish.

Indentiv o'quv maqsadlari:

1. Shvetsiyaning ijtimoiy hayotini biladi.
2. Shvetsiyaning idora qilinishi va reformatsiya haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
3. Shvetsiyaning Daniya hukmronligidan ozod bulish omillarni tushunib etadi.
4. Shvetsiyadagi qo'zgonlarning sabablari va oqibatlariga baho beradi.

1 - savolning bayoni:

Shvetsiyada Kalmar uniyasidan norozilik XVI asr boshlarida Daniya oldi. Bu hukmronligiga qarshi keng milliy harakat tusini oldi. Bu hukmronlikka qarshi dushmanlik ruhi Shvetsiyada tobora kuchaymokda edi. shimoliy va Baltika dengizlarida daniyaliklarning savdo-sotik ishlari kengaya borgan sari Daniya xukumati Baltikabo'yida yanada ko'proq mustahkamlanib olishga harakat kilar va Shvetsiya hududini Daniyaning shimoliy-sharkidagi ta'sirini kuchaytirish uchun zarur baza deb bilar edi.

Daniya qiroli Kritian II (1513-1523y) bu masalada ayniksa katta planlar tuzdi, u zaiflashib qolgan ganzaning urnini Daniya bosadi va Baltika dengizida savdo-sotik ishlarini tamomila o'z kuliga kiritib oladi, deb hayol qilgan edi. Daniya kushinlari

1520 yilda Stokgolmni bosib oldilar, Sture xonadoni regentligi tugatildi, shved dvoryanlari, ruhoniylari va shaharliklarining ko'pgina nomoyandalari uldirildi, daniya hokimyatiga oppozitsion kayfiyatda bo'lganlardan jami 100 dan ko'proq kishi kirib tashlandi. Daniya feodallarining shved milliy oppozitsiyasiga nisbatan qilgan bu kirgini Shvetsiya tarixida "Stokgolm fojiasi" (1520 yil noyabr) deb ataladi. Ammo daniyaliklarning bu tyerrori milliy harakatning yanada kuchayishiga sabab buldi, xolos. Mamlakatning turli joylarda dehqonlar, shaharliklar, o'rta va mayda dvoryanlar Daniya hukmdorlariga qarshi bosh kutardilar. Shvetsiyaning togli rayoni bo'lgan Delekarliyada milliy harakat ayniksa keng va kat'iy tus oldi, bu yerda dehqonlar otryadlar tuzdilar va bu otryadlar daniyaliklarning kushinlarini muvaffakiyatli ravishda surib chikardilar.

O'rta dvoryanlardan chikkan Gustav Vaza butun milliy harakatga boshchilik qilib, mamlakatdagi barcha kuchlarni: dvoryanlar, shaharliklar va dehqonlarni bir qancha vaqtgacha umumiy bir milliy front qilib birlashtirib turishga muvaffaq buldi. Milliy harakat galaba bilan tugadi. Shvedlar Skandinaviyasining eng janubiy qismidagina daniyaliklar bir necha viloyatni o'z kullarida saklab qoldilar. 1523 yilda Gustav Vaza Stokgolm shaxriga tantanali suratda kirib borib, Kalmar uniyasini bekor qildi va Shvetsiyani mustaqil deb e'lon qildi. Uning o'zi Shvetsiyaning qiroli qilib saylandi (u 1523-1560 yillarda hukmronlik qildi); Gustav Vaza asos solgan "milliy" shved sulolasi bundan keyingi asrlarda Shvetsiyanigina emas, balki XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrda kuhni Polshani ham idora qildi. Avvalboshda yangi shved xukumatining axvoli juda ogir edi. Mamlakat daniyalik zulmi va Uzoqqa chuzilgan ozodlik urushi tufayli xonavayron buldi. Sanoat va savdo-sotik ishlari kasod buldi. Xazinada pul qolmadi. Mahkamaning 1527 yilda qirolga yozgan dokladida bunday deyilgan edi; "Sizning kasr va kal'alaringiz vayron bo'lib yotibdi. Qirolning daromadlari tamoman sarf bo'lib ketgan.

Reformatsiya va sekulyarizatsiya qilish yuli bilan bu mushkul ahvoldan kutilish chorasi topildi. Shvetsiyadagi katolik chyerkovi boliklarning hatto dvoryanlar orasida ham allakachon burdi ketgan edi, chunki eng kuzga kuringan episkoplar shved milliy doiralari bilan emas, ko'proq Daniya qiroli bilan aloqada edilar. Gyermaniyada utkazilgan reformatsiya bu yerda ham alakachonlar xavas kuzgatib kuygan edilar. Shuning uchun 1527 yildayok Shvetsiyaning Vestorosdagi seymida Shvetsiyada ham reformatsiya qilingan injilchilar chyerkovi urnatish, chyerkov yerlari sekulyarizatsiya qilish masalasi asosan hal qilingan edi. Shvetsiyada uzul-kesil islox 1536-1539 yillarda utkazildi. Angliyadagi kabi Shvetsiyada ham sekulyarizatsiya qilish natijasida qirol va ayniqsa dvoryanlar boyib ketishdi, chunki sekulyarizatsiya qilingan mulklarning ko'p qismi dvoryanlar kuliga o'tdi.

o'zining moliyaviy ahvolini mustahkamlash uchun Gustav Vaza yana bir qancha boshqa tadbirlarni ham kurdi. U 1542 yilda maxsus farmon chiqarib, qirollikdagi ishlanmay bush yotgan barcha jamoa yerlarini o'z mulki deb e'lon qildi. 1551 yilda chikarilgan farmonda barcha yer osti boyliklari, ya'ni Shvetsiyada juda ko'p bo'lgan har xil konlar qirol mulki deb e'lon qilingan edi. Dvoryanlar xukumatining yer masalasidagi siyosati dexkonlarning axvolini yomonlashtirib kuydi. Ilgari chyerkovga karashli bo'lgan yerlarni o'z kullariga kiritib olgan yangi yer eralari barshchina va obroqni ko'paytirdilar, hamda erkin va yarim qaram bo'lgan

dexkonlarni mumkin qadar krepostnoy qilishga harakat qildilar. Bu xol, shuningdek dehqonlar ixtiyoridagi yerlarning tortib olinishi ham dehqonlarda qattiq norozilik tugilishiga sabab buldi. Bir vaktlar daniyaliklarga qarshi kurashda qaror topgan milliy fronti tarkalib ketib, uning urniga maxalliy (shved) feodallariga qarshi va qirol xukumatiga qarshi dehqonlar kurashi boshlanib ketdi.

30 va 40-yillarda Shvetsiyada dehqonlarning bir necha marta katta qo'zgolonlari buldi. Bu kuzgolonlardan eng mashxurlari: Dalekarliyada bo'lgan 1526-1533 yillardagi kuzgolon: Ost-Gollanddagi 1538 yilgi kuzgolon va dexkonlarning 1536-1543 yillarda bo'lib utgan janubiy shved harakatidir. Janubiy, shved harakati vaqtida urmonlarda juda ko'p "urmon axli" dan otryadlar uyushtirilib, bu otryadlarga kushilgan kishilarning soni mingga etgan edi. Pirovard natijada bu kuzgolonlarning hamasi bostirildi. Qirolning moliyaviy ishlari yaxshilangandan keyin xukumat katta yollanma armiya saklash imkoniyatiga ega buldi va bu armiyadan dexkonlar harakatini bostirish uchun foydalandi. Asosan dexkonlardan tashkil topgan qirol armiyasiga sekin-asta dehqonlarning eng aktiv elementlari kushila bordi va shunday qilib, dehqonlardan oppozitsiyasiga raxna solingan edi.

Muhokama uchun savollar:

Shvetsiyaning tashqi siyosatida muhim o`rin tutgan omillarni o`sha davrda qaysi davlat tashqi siyosati bilan taqqoslay olasiz?

Dars maqsadi: Shvetsiyaning iqtisodiy tarakkiyoti bilan tanishtirish, chet davlatlar bilan savdo-sotikning yulga kuyilish shart-sharoitlariga baho berish.

Ilentiv o`quv maksadlari:

1. XVI asrlarda Shvetsiya ekonomikasining bir qancha muvaffakiyatlarga erishish sabablarini biladi.
2. Shvetsiyada manufaktura tipidagi sanoat korxonalarining kirib keliga sabab bo'lgan omillarni ochib beradi.
3. Chet davlatlar bilan savdo-sotik aloqalarin yulga kuyilishiga baho beradi.

2-asosiy savolning bayoni:

XVI asrda Shvetsiya ekanomikasibir qancha muvaffaqiyatlarga erishdi. Qishloq xo'jaligining (asosan janubiy va janubi-sharqiy tumanlarida) tovar maxsuldorligi ortishi bilan birga, mamlakat sanoati - temir, mis, kumush, kalayi qazib chiqarish, qurolsozlik, yogoch tilish va qogoz sanoati, mo`yna ishlash, kemasozlik ham taraqqiy qilmoqda edi. Gustav Vaza Gyermaniyadan juda ko'p konchilar va metalsozlar chaqirib keltirib. Yogoch tilish korxonalari va shaxtalarda XVI asrning ikkinchi yarmidayoq togdagi daryolar, soylar va shalolalarning kuvvatidan keng foydalanardilar. XVII asrda Shvetsiyad har xil qurol-yaroglar ishlab chiqarilardi. Ishlanmagan temir va undan tayyorlangan har-xil buyumlar shvedlarning chetga chiqaradigan mollari ichida asosiy urin tutardi. Shunisi harakterliki, XVI-XVII asrlarda Shvetsiyada manufaktura tipidagi sanoat korxonalarining ko'pincha dvoryanlarning uzlari tashkil qilar edilar. Bu esa qisman usha davrda Angliyadagi mayda dvoryanlarning korxona egalari bulishini eslatardi. Shvetsiya, Angliya, Fransiya, Nidyerlandiya, Gyermaniya, Daniya, Polsha va Rossiya bilan kizgin savdo-

sotik ishlari olib borardi. Ko'pgina shaharlar - Stokgolm, Kalmar, Upsala, Abo, Xelsinki va boshqalar muhim savdo markazlari bo'lib qolgan edi. Okean nari yogidagi mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlarini olib borish uchun Shvetsiyada 1627 yilda "Janubiy kompaniya" tashkil qilingan edi. 1668 yilda Shvetsiyada davlat banki tashkil qilindi, bu Yevropada eng ilk ochilgan banklardan biri edi. Lekin Shvetsiya sanoati juda ham bir yoklama tarakkiy etgan edi. Asosan kazib chikaruvchi sanoat tarkkiy topgan bo'lib, metallsozlik sanoati qisman rivojlangan edi.

Shvetsiyaning XVII asrdagi eksporti asosan xom ashyodan va yarim xom ashyodan iborat edi, ya'ni chet ellarga temir, mis, har xil turdagi yogoch, yog, balik, mo'yna va shu kabi narsalar chikarilar edi. Gazmol (movut, polotno va x.k.), yukori nav metall buyumlar va shu kabilarni Shvetsiyaning o'zi chet ellardan sotib olar edi. Shvetsiya XVI asrda juda ko'p gallani, XVII asrda undan ham ko'progi chet lldan - Rossiyadan va Baltika bo'yi mamlakatlaridan sotib olardi. Maxalliy sanoat xom ashyo (jun, kanop va shu kabilar)ning etishmaganligi Shvetsiya sanoatining rivojlanishiga xalaqit berardi. Shvetsiyaning tukimachilik sanoati XVII asrda ham endi vujudga kelayotgan xolatda edi.

Shvetsiyada Kalmar uniyasidan norozilik XVI asr boshlarida Daniya Feodallari xukumronligiga qarshi keng milliy harakat tusuni oldi. Bu hukmronlikka qarshi dushmanlik ruhi Shetsiyada toboro ko'chaymoqda. Shimoliy va baltika dengizlarida daniyaliklarning savdo-sotiq ishlari kengayib borgani sari Daniya xukumati Baltika bo'yida yana ko'proq mustahkamlanib olishga harakat qilar va shevitsiya tyeretoriyasining Daniyaning shimoliy-sharqdagi ta'sirini ko'chaytirish uchun zarur ba'za deb bilar edi. Daniya karoli Kristian II (1513-1523) bu masalada ayniqsa katta planlar tuzdi, u zaiflashib Ganzannining o'rmini Daniya bosadi va baltika dengizida savdo-sotiq ishlarini tomomila o'z qo'lga kiritib oladi deb hayol qilgan edi. Daniya qo'shinlari 1520 yilda Stakgolmni bosib oldilar. Sture xonadoni regentligi tugatildi. Shved dvaryanlari va shaharliklarning ko'pgina nomoyondalari o'ldirildi, Daniya hokimyatiga oppazitsion kayfiyatda bo'lganlardan jami 100 dn ko'proq kishi qirib tashlandi. Daniya feodallarining shved milliy oppazitsiyasiga nisbatan qilgan bu qirg'ini shvedtsiya tarixida «Stokgolm fojesi» (1521 yil noyabr) deb ataladi. Ammo Daniyaliklarning bu tyerrori milliy harakatning yanada ko'chayishiga sabab buldi xolos.

Mamlakatning turli joylrida dehqonlar shaharliklar o'rta va mayda dvaryanlar Daniya hukmdorlariga qarshi bosh ko'tardilar. Shvetsiyaning tog'li rayoni bo'lgan Dallekarliyada milliy harakat ayniqsa keng va qat'iy tus oldi. Bu yerd dehqonlar otryadlar tuzdilar va bu otryadlr daniyaliklarning qo'shinlarini muvoffaqiyatli ravishda surit chiqardilar. O'rta dvaryanlardan chiqqan Gustav Vaza butun milliy harakatga boshchilik qilib, mamlakatdagi barcha kuchlarni: dvaryanlar, shaharliklar va dehqonlarni bir qancha vaqtgacha umumiy bir milliy front qilib birlashtirib turishga muvoffaq bo'ldi.

Muhokama uchun savollar:

1. O'sha davrda shvetsiyaning taraqqiyotida yuz byergan ziddiyatlarning asl mohiyatini tushunib etdingiz. Lekin nima uchun Shvetsiyada boshqa Yevropa

davlatlariga qaraganda shaharlarning kechroq vujudga keldi? Bunga sabab nima edi? Siz nima deb o`ylaysiz?

Nazorat topshiriklari:

1. XVI asrlarda boshlangan milliy harakat kimdan norozi edi?

- a. Kalmar unichsidan.
- b. Daniya qiroli Kristian II dan
- s. Gustav Vazadan.
- d. Shvedlardan.

2. Milliy harakatga kim boshchilik qildi?

- a. Gustav Vaza. b. Kristian II.
- s. Karl X. d. Gustav Adolf.

Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1. Shvetsiyaning iqtisodiy taraqqiyotidagi asosiy omillarni ayting.
- 2. Shvetsiyaning tashqi siyosatidagi ziddiyatlariga baho byering.
- 3. 1629 yildagi Altmark sulhini aytib byering.

Mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:

- 1. Senat XVII asrda Shvetsiyaning muntazam oliy hokimiyat organiga aylangan.Bu kengash ilgari nima deb atalishini aniqlash.
- 2. Stolbovo sulhini nima maqsada tuzilganini tahlil qilish.

12 - mavzu: XVI-XVII asrlarda Italiya
Ajratilgan vaqt – 4 soat:

Asosiy savollar:

- 1. Italiyada iqtisodiy tushkunlikning boshlanishi.
- 2. Savonarolaning chikishi.Rimning talanishi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Iqtisodiy tushkunlik, savdo va sanoat, siyosiy tarkoklik, Savonarola chikishi, «talon-taroj kuni», buyuk gumanistik madaniyat markazi, keyingi italyan Uygonish davri namoyandalari, italyan fani, Mazanello kuzgoloni, Sitsiliyadagi harakat.

Mavzuga oid muammolar:

Italiyadagi sanoatning tushkunlik sabablari nimalarda edi? Burjuaziyami? Ishchilarmi? Dvoryanlarmi? Siz nima deb o`ylaysiz vanima uchun?

1-savol bo`yicha dars maqsadi: Italiyada iqtisodiy tushkunlik boshlanishi sabablarini ochib byerish, tushkunlikning savdo va sanoat sohalariga ta'sirini kursatish, Italiyadagi siyosiy tarkoklikni sharxlab byerish, siesiy tarkoklik okibatlarini kursatish.

Indentiv o`quv maqsadi:

1. XU1 asrdagi Italiyada iqtisodiy tushkunlik sabablarini ochib beradi.
2. Tushkunlikning bujua va ishchilarga ta'sirini qiyoslaydi.
3. Italiya tarkibidagi tarkok yerlarni biladi.
4. Siyosiy tarqoqlik oqibatlarini ko'rsatadi.

1-asosiy savol bayoni:

XVI asrda Italiyada iqtisodiy tushkunlik boshlandi. XV asr oxirlaridayok italyan sanoatining tushkunlikka uchraganligi sezila boshladi. Hatto Italiyada Florentsiya movuti urnini ingliz movuti qisman egallay boshladi. Yevropaning o'z sanoati rivojlanib borganligidan italyan movuti u yerda kamroq sotiladigan bo'lib qoldi. Angliyadan tashqari, Fransiya bilan Gyermaniyada ham sanoat yuksalib bordi. Nidyerlandiya butun XVI asr davomida savdo va kema katnovi soxasidagina emas, sanoat soxasida ham tez tarakkiy qildi.

Buyuk geografik kashfiyotlar Italiyaning Shark bilan olib borayotgan savdosiga kattik zarba byerdi. Tugri, Italiyaning savdo oboroti birdaniga kamayib ketmadi. Venetsiya XVI asrdagina emas, hatto XVIII asrda ham juda boy savdogarlar respublikasi bo'lib kola byerdi. Biroq, uning jahon savdosidagi salmogi ancha pasaydi. U endi faqat Yakin Sharq mamlakatlari bilangina savdo – sotik ishlari olib boradigan bo'lib qoldi. Rivojlanib borayotgan okean mustamlaka savdosidan Venetsiya butunlay chetda qoldi.

Savdo va sanoat sohasidan siqib chikarilayotgan italyan burjuaziyasi bank – sudxurlik opyeratsiyalariga tobora ko'proq murojaat qila boshladi. Kapital kuyishning ikkinchi formasi – yer sotib olish buldi. Burjuaziya yer sotib olib, dvoryanlarga aylandi. Sanoat tushkunligi manufaktura ishchilariga ham ta'sir qildi. Ko'p ishchilar shaharlardan yana qishloqqa kuchib ketib, unda ko'pincha ijaraga olinganbir parcha yerda dehqonchilik qildilar, bogdorchilik, uzumchilik bilan shug'ullanadilar. Italiya burjuaziyasi katta yer egalariga aylangan bulsa ham, ishlab chikarishni revolyutsionyerlashtirish maqsadini kuzlamadi. Dvoryanlar singari burjuaziya ham yerlarning teng shyeriklik sharti bilan mayda dexkonlarga ijaraga byerdi. Mamlakatda sanoat va savdo tushkunligi sharoitida feodal reaksiyasi tusiga kirib borayotgan feodal munosabatlar Uzoq vakt vahtlarga mustahkamlanib qoldi.

Italiya XVI asrda siyosiy jihatdan ilgarigidek tarqoq mamlakat bo'lib qola berdi. Davlatlardan kattaroqlari: shimolda – Venetsiya, Genuya, Milan hamda Savoyya va Pemont gyertsogliklari, o`rta Italiyada – (1531 yilda Taskaniya gyertsogligiga aylantirilgan) Florentsiya va papa davlati; janubida – Sitsiliyani ham o'z ichiga olgan Neapol qirolligi bo'lgan. Bundan tashqari, unlab mayda «mustaqil» yerlar bo'lgan.

Respublika tuzumi deyarli hamma yerda monarxiya tuzumi bilan almashtirildi. Milanda kondotyer Sforts oilasi gyertsog unvonini oldi. Florentsiyada medichilar avlodi. Toskaniya gyertsoglari unvoniga ega buldi. Papa oblastida papalar mutlaq monarxga aylanib, ular o'z chegaralarini kengaytirish uchun mumkin bo'lgan hamma vositalarni ishga soldilar. Aleksandr VI Borjia (1492 – 1503), Yuliy II (1503 – 1513) va Lev X Medichi (1513 – 1521) degan papalar uzlarining dabdabali hayotlari, harbiy va diplomatiya sohasida yurgizgan murakkab siyosatlari, italyan

dinastiyalari bilan shaxsiy va nasabiy aloqalariga qaraganda episkoplardan ko'ra ko'proq dunyoviy xokim edilaru

Mayda bulaklarga ajralib ketgan tarqoq Italiya muttasil fitnalar, yashirin diplomatik makrlar, uzaro mayda adovat, janjal va urushlar maydonidan iborat edi. Bularning hammasi boshka yirik chet mamlakatlarning Italiya ishlariga aralashuviga sabab bo'lardi. 1494 yildan ortiqroq davom etdi va faqat 1559 yilda tuxtadi. Frantsuzlardan tashqari XVI asrda gabsburglar dinastiyasining vaqili bo'lgan impyerator Karl V hukmronligi ostida qolgan ispan va gyerman feodallari ham Italiyaga bosib kirdilar.. Frantsuz, ispan va gyerman kushinlari Italiyani taladilar va xonavayron qildilar. XVI asrning birinchi yarmida xali ham qudratli bo'lgan Turkiya impyeriyasiga qarshi kurashda Venetsiya katta kuch sarflashga to'g'ri keldi.

Nokulay xalqaro vaziyat va chet davlatlarning tugridan-tugri intyerventsiyasi italiyani yanada kuchliroq iqtisodiy va siyosiy tushkunlikka olib keldi.

Muhokama uchun savollar:

Italiyadagi frantsuz urushlari boshlangani bilan Florentsiyada nima sodir bo'ldi? Qanday sharhlab berasiz?

2-savol bo'yicha dars maqsadi:

Italiyadagi frantsuz urushlarining boshlanishini sharxlab byerish, Savonarola shaxsiga tavsif byerish, Savonarola chikishlarining talablarini tushuntirish, Savonarola chikishlari okibatlarini ochib byerish, ispan-gyerman urushini izoxlash, Rimning talanishini ta'riflab byerish.

Indentiv o'quv maqsadlari:

2.1.Savonarola faoliyatini sharxlab beradi va baholaydi.

2.2.Savonarola chikishlari oqibatlarini biladi.

2.3.Rimning talanishiga baho beradi.

2-asosiy savol bayoni:

Italiyada frantsuz urushlari boshlangani munosabati bilan Florentsiyada davlat tuntarishi yuz byerdi. Frantsuzlar bostiribkeladi, degan ovozalar tarqalishi bilan, xalq ommasi Medichilarning zulmiga qarshi kuzgolon kutardi. Florentsiyada birmuncha vaktgacha (1494 y) respublika qaytadan tiklanib turdi. Dominakanlik monax Savonarola (1452-1498) respublika ishlariga g'oyat katta ta'sir kursatdi. Florentsiyadagi o'rta va xonavayron bo'lgan mayda xunarmandlar kayfiyatini aks ettirib, Savonarola o'z va'zlarida boylarning dabdabali va turmush bekorchiligidan kelib chikayotgan be'mangarchiliklarini qattiq qoraladi va bir kancha mu'tadil sotsial islohatlar – daromad soligining progressiv formasini joriy qilish, kambagallarning karzlarini bekor qilish, sudxurlarni haydab yuborish, shaharlarda karz byeruvchi kassalar tashkil etish va hakoazolarni talab qildi. Savonarola Rim papasini ham kattik qoralab, papa saroyiga, undagi dabdaba va boylikka la'nat o'qidi. Savonarola frantsuzlarni «gunoxga botgan Italiyaga» qarshi «xudo yogdirgan qaxr-gazab» oqibati deb hisoblaydi.

Frantsuz bosqinchilari uzlarining talonchiligi va jabr-zulmlari bilan tezda italyan jamiyatining hamma sinflarini uzlariga qarshi kuzgatdilar. Florentsiyadan tashqari yana Neopolni ham bosib olgan frantsuz qiroli Karl VIII ning dastlabki muvaffaqiyatlari italyan davlatlarining unga qarshi birlashuviga olib keldi. Frantsuzlar shoshilinch ravishda Italiyadan chikib ketishga majbur buldilar. Frantsuzlarning chikib ketishi bilan Savonarolaning mavkei ham bushashdi. U 1498 yilda papaning amri bilan kamokka olindi va sud qililib, gulxanda kuydirildi. Kochib ketgan Medichilar 1512 yilda ispanlar yordami bilan kaytadan hokimiyat tepasiga chiqib oldilar.

XVI asr boshida Italiya urushqoq qirol Frantsisk I Valua boshchiligidagi frantsuz feodallari bilan nomi tilga olingan impyerator Karl V Gabsburg raxbarligida ispan-gyerman feodallari o`rtasida shiddatli urush maydoniga aylandi. 1525 yilda Paviya shahri yonida bu ikki dushman o`rtasida kattik jang buldi. Bu jangda Frantsisk I batamom yengilib, Karl V uni asir oldi. Papa Kliment VII Gabsburglarning juda kuchayib ketishidan kurkib, impyeratorga karsh Fransiya bilan Angliya ishtroqida Italiya davlatlarining koalitsiyasini uyushtirishga harakat qildi. Karl V buni bilib qolib, 1527 yilda o`z kushinlarini Rimga yubordi. Papa asir olindi, Rim esa yanada shavkatsiz tarzda talandi. Un minglarcha Rim aholisi va shu jumladan, juda ko`p xotin-kizlar va bolalar uldirildi. Landsknexxtlar papa saroyi – Vatikanga kirib, uni ham taladilar va ko`p joylarni vayron qildilar. 1527 yil 6 maydagi «talon-toroj kuni» italyanlar xotirasida Uzoq vaktlargacha dahshat va benihoya katta milliy baxtsizlik kuni bo`lib qoldi.

Muhokama uchun savollar:

1. Italiya buyuk gumanistik madaniyat markazi bo`lgan dedik. Unda nima uchun manbalarda Ispaniyada vujudga kelishi kyerak deymiz? Siz bunga qanday qaraysiz? Sizning dunyoqarashingiz?

Nazorat topshiriklari:

1. Italiyada frantsuz urushlari boshlangani bilan Florentsiyada nima sodir bo`lganini kursating

- a. Inkilob b. Savonarola chikishi
- s. papalar hukmronligi d. Davlat tuntarishi

2. Savonarola kim bo`lganini toping.

- a. Toskana gyertsogi b. Papa
- s. dominikanlik monax d. Frantsuz feodali

3. «Talon-taroj kuni» deb qaysi kunga atalishini kursating

- a. 1512 yil 15 avgust b. 1525 yil 12 sentyabr
- s. 1527 yil 6 may d. 1532 yil 11 aprel

4. Kopyernik ta'limotini targib qilgan olim kim ekanligi kursating

- a. Makiavelli b. Titsian
- s. Galiley d. Kampanello

5. Italiyalik faylasuf olim kim bo`lganini ayting

- a. Makiavelli b. Titsian
- s. Mikelandjelo d. Kampanello

6. Mazanello lakabi ostida kim bo`lganligini kursating
a. Jennardo Anneze b. Tomazo Anello
s. Tomazo kampanella d. Torkvato Tasso

Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:

1. XVI-XVII asrlardagi Italiyaning ijtimoiy hayotini gapirib byering?
2. XVI asrlarda Italiyadagi iqtisodiy tushkunlikning sabab va oqibatlarini ayting?
3. Neapolda Mazanello qo`zg`olonining oqibatlari?

Mavzu bo`yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. Italiyadagi Mazanello qo`zg`olonining boshlanishi sabablari va shart-sharoitlarini ochib byerish, uning oqibatlariga baho byerish.
2. Keyingi uyg`onish davri namoyondalarini faoliyatini sharhlab berish va Italiya buyuk gumanistik madaniyat markazi ekanligini ko`rsatish.

Adabiyotlar.

1. Semyonov V.F. O`rta asrlar T. 1973. 111-140-b.
2. Удальцова С.П. Карпов. История средних веков. Т. 1986 1-2
3. Книга Марко Поло М. Мысл Т. 1995 й.

V. Seminar mashg'ulotlari.

1-seminar mashg'ulot: Uyg'onish (renessans) davrini o'rganishning muhim o'рни.

Ajratilgan vaqt – 2soat

Ko'riladigan savollar rejasi:

1. Yevropa mamlakatlari tarixida rennesansning yuzaga kelish shart-sharoitlari.
2. Uyg'onish davrining boshlanishiga turtki bo'lgan omillar.
3. Uyg'onish davri madaniyati.

Amaliy seminarga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik ko'rsatmalar:

1-savol bo'yicha: Talaba avvalo XIY-XV asrlardagi Italiyaning ijtimoiy hayoti bilan tanishadi. Yevropada birinchi bo'lib Italiyada rennesansning vujudga kelishi bilan shaharlarning yuksalishi, sanoatning taraqqiy etishi va dastlabki manufakturalarning paydo bo'lishi Italiyaning Yevropa va Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini mustahkamlaganligini ko'radi.

2-savol bo'yicha: Italiyadagi uyg'onish davriga turtki bo'lgan asosiy omillardan savdo-sotiq orqali kelib qolgan grek qo'lyozmalari, antik tasviriy san'ati va arxitektura yodgorliklarining o'рни beqiyosdir. Bu barcha qadimiy yodgorliklar Italiyaga olib kela boshladilar, bu yerda ular kolleksiya qilinib o'rganilgan.

3-savol bo'yicha: Uyg'onish davri madaniyatini 3ta bosqichga bo'lib o'rganamiz. Uyg'onish davrining madaniyatida inson shaxsining roli muhim o'rin egallashi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga uyg'onish davri madaniyatiga xissasini qo'shgan allomalarimiz ham tilga olinadi.

Foydalaniladigan adbiyotlar:

- 1) V.F. Semyonov. O'rta asrlar tarixi. M., 1973.(342-347)
- 2) Kultura epoxa Vozrojdeniya M., Nauka, 1986. (45-49).
- 3) Kultura epoxa Vozrojdeniya i reformatsiya. L., Nauka, 1981.(33-39)

2 – seminar mashg'ulot: Buyuk geografik kashfiyotlar va mustamlakalarning vujudga kelishi.

Ajratilgan vaqt – 4 soat

Ko'riladigan savollar rejasi:

- 1) Buyuk geografik kashfiyotlargacha bo'lgan izlanishlar.
- 2) Hindistonga dengiz yo'lini ochilishi.
- 3) F. Magellan. Karib dengizida ispan mustamlakalari.
- 4) Buyuk kashfiyotlarning oqibatlari.

Seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik ko'rsatmalar:

1-savol bo'yicha avvalombor biz Buyuk geografik kashfiyotlargacha bo'lgan izlanishlarni kuzatamiz. Bu izlanishlar Biron o'lkani topish yoki izlash maqsadida

emas, balki yerlarni o`zlashtirish edi xolos. Shu asosida Ibtidoiy odamlar o`zlari bilmagan holda yerlarni kashf qilishdi.

**2-savol bo`yicha:** Asta-sekin insonlar ongida boylikka intilish hissiyoti kuchaydi. Endi ular boy o`lkalarni bosib olish va uning boyliklariga erishshi rejalarini tuza boshladilar. Shu tariqa ularda Hindistonga dengiz orqali borish rejasi tug`ildi. Bu rejani birinchi bo`lib X.Kolumb ishlab chiqdi.

3-savol bo`yicha: Portugallarning Karib dengiziga qiziqishi ortib bordi. Lekin ularni u yerda ispan mustamlakachilari qarshi oldilar. Ularning rejaları puchga chiqdi.

**4-savol bo`yicha:** Umuman Yevropada Buyuk geografik kashfiyotlarning oqibatlari nimalar bilan tugaganligi, bu kashfiyotlarning vujudga kelishida qanday ijobiy va salbiy tomonlari ko`rib chiqiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

- 1) Semyonov V.F. «O`rta asrlar tarixi» T., 1973.(245-250).
- 2) Книга Марко Поло. М . , Мисл. 1956. (12-27)
- 3) Грановский Т. Н. Лекции по истории средневековья. М., МГУ. 1986.(56-60)
- 4) Путешествия Хрицофора Колумба. Дневник, письма, документы. М. Наука. 1961.(5-18).

3- seminar mashg`ulot: XII-XV asrlarda Bolgariya va Syerbiya. Bolqon yarim orolida Turkiya istilolari.

Ajratilgan vaqt : 4 soat

Ko`riladigan savollar rejasi:

1. XII-XV asrlarda Bolgariya
2. XII-XV asrlarda Syerbiya.
3. Bolqon yarim orolida Usmoniy turklarning istilolari

Seminar mashg`ulotga tayyorgarlik ko`rish uchun metodik ko`rsatmalar:

1-savol bo`yicha: XII-XV asrlarda Bolgarii davlatining vujudga kelish shart-sharoitlari bilan tanishish va ikkinchi Bolgariya podshosi Sulaymon 1ning ichki siyosatiga baho byeriladi.

**2-savol bo`yicha:** O`rta asrlarda Syerbiya davlatining ijtimoiy hayotini yoritib byeriladi. XII-XV asrlarda Syerbiya davlatidagi ichki o`zgarishlar va bu o`zgarishlarning Bolgariya davlatiga ta'sirini ta'riflaydi.

**3-savol bo`yicha:** Usmoniy turklarning Bolqon yarim orolini istilo qilish sabablarini chuqur o`rganiladi. Usmoniylar Osiyoda Mesopatamiya, Armaniston va Gruziyaning G`arbiy qismini istilo qildi. Istilolar natijasida kata Usmoniylar saltanati tashkil topdi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. V.F. Semyonov O`rta asrlar tarixi. T.,1973.(122-135)
2. Т.Н. Грановский Лекции по истории средневековья. М.,МГУ,1986.(22-26).
3. История Болгарии., М.: Политиздат,1964.(21-26).

4- seminar mashg'ulot: 1618 – 1648 yillarda O'ttiz yillik urush.

Ajratilgan vaqt – 4 soat

Ko`riladigan savollar rejasi:

1. XVI asr o`rtalarida Gyermaniyada iqtisodiy tushkunlik va siyosiy tarqoqlik sabablari
2. Chex xalqining gabsburglar hokimiyatiga qarshi kurashi va uning ahamiyati.
3. Vestfaliya sulhi.
4. O'ttiz yillik urushning Gyermaniyaga ta'siri va oqibatlari.

**1-savol bo`yicha:** O`rta asrlarda Gyermaniyadagi tarqoqlikning sabablari ochiladi. Gyermaniyaning iqtisodiy tushkunligi va tarqoqligining sababi buyuk geografik kashfiyotlar davrida savdo yo`lining o`zgarib ketishi sabab bo`ladi.

2-savol bo`yicha: Gyermaniyaning che'xiyaga taz'yiqlari natijasida Chexiya davlatida hukm surayotgan chgabsburglarning shu vaziyatdan foydalanib chexlarga qarshi harakati bayon etiladi.

**3-savol bo`yicha:** Gyermaniyaning parchalanishi natijasida Vestfaliya sulhi tuzildiva bu sulhga binoan Gyermaniya hududi mayda davlatchalarga bo`linib ketdi.

**4-savol bo`yicha:** O'ttiz yillik urush Gyermaniya hayotida juda katta ahamiyatga ega bo`lib qoldi. Bu urush Gyermaniyaning taraqqiyotini bir muncha orqaga surdi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. В.М. Алексеев. Тридцатилетняя война. Л.,ЛГУ.1961. (12-45)
2. История средних веков. Под ред. Зюв. Удалтсовой и С.П. Карпова. 1-2 ч. М., Высшая школа. 1991.(77-79).
3. V.F. Semyonov. O`rta asrlar tarixi. T.,1973.(346-349).

5- seminar mashg'ulot: XVI-XVII asrlarda Turkiya.

Ajratilgan vaqt-4 soat.

Ko`riladigan savollar rejasi:

1. O`rta asrlardagi Turkiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy holat.
2. Usmoniylar impyeriyasining o`sishi va Turkiyadagi ichki siyosat.
3. XVI-XVII asrlarda Bolqon xalqlarining turklar zulmiga qarshi kurashi.
4. Turkiya impyeriyasining tushkunlikka yuz tutishi.

Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko`rish bo`yicha metodik ko`rsatmalar:

**1-savol bo`yicha:** Turk qabilalarining Kichik Osiyoga dastlab kirib kelishi mil.ning IV asrlaridayoq boshlangan. XI asrdan turklarning dastlabki davlati vujudga keldi. Keyinchalik Usmoniy turklar davlati Yevropaning ko`plab yerlarini egalladi.

2-savol bo'yicha: XII asr oxirida bogarlar qo'zg'olon ko'tarib Vizantiya hukmronligidan qutuldi. Bunda to'rtinchi salib yurishi eslatiladi. Bolqon yarim orolidagi uchinchi kata davlat – Vizantiya saltanati o'zining oldingi qudratini yo'qotdi.

3-savol bo'yicha: Usmoniylar Bolqon mamlakatlarining kuchsizligiga ishonch hosil qilgandan keyin hujumdan istilochilikka o'tdilar. Ular Vizantiyaning Yevropadagi yer-mulklaridan ma'lum qismini bosib oldi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. В.Ф. Семтнов. О`рта asrlar tarixi Т.,1973.(234-236).
2. Д.Е. Еремеев. Испория Турции. М.,1987.(78-79).
3. З.Д. Удалцова, С.П. Карпов. Испория средних веков. Т., 1986. 1-2 т.(34-40).
4. Г.В. Вернадский. Золотая Орда. М., 1977.(11-18).

**6- seminar mashg'ulot: XII-XV asrlarda Rus davlati.
Ajratilgan vaqt-4 soat**

Ko'riladigan savollar rejasi:

1. XII-XV asrlarda Rus davlatining ijtimoiy-siyosiy hayoti.
2. Rusda yer egaligi tarqoqligi.
3. Mo'g'ul-tatar istilosi hamda nemis-shved bosqinchilariga qarshi kurashi.
4. Rus yerlarining Moskva atrofida birlashuvi.

Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik bo'yicha metodik ko'rsatmalar:

Ushbu mavzuni o'rganishda avvalom bor Kiev Rusining tashkil topish shart-sharoitlari bilan tanishish lozim. Bunda V.F. Semyonovning O'rta asrlar tarixi. Т.,1973. (377-379) tahriri ostida chiqqan adabiyotidan tanish bo'lishi lozim. Keyingi masala, Rus yerlaridagi tarqoqlikning sabablari va uning oqibatlarini ochib byerish darkor. Bunda S.D. Skazkinning "Xrestomatiya po istorii srednix vekov". 2-t. Uch.pedgiz.,1960.(77-80) tahriri ostida chiqqan adabiyotni o'qib chiqish tavsiya etiladi. Shundan keyin ruslarning mo'g'ul-tatarlarga qarshi kurashida rus yerlarining Moskva atrofida birlashuvi va Oltin O'rdaning tashkil topish shart-sharoitlarini ochib byerish kyerak. Bu masala bo'yicha 3. V.G. Tizengauzenning Sbornik matyerialov, otnosyashixsya k istorii Zolotoy Ordio`. M.-L.,1951. t.1-2.(124-127) tahriri ostida chiqqan adabiyot bilan tanishish lozim.

**7- seminar mashg'ulot: XI-XV asrlarda Fransiya.
Ajratilgan vaqt-4soat.**

Asosiy savollar:

1. Fransiya markazlashgan milliy davlatning tashkil topishi.
2. 1356-1358 yillarda Jakyeriya va Parij qo'zg'oloni.
3. Yuz yillik urushning boshlanishi.
4. Kaboshiylar harakati.
5. Fransiya va Markaziy osiyo Gilan de Rubrul missiyasi.

**8- seminar mashg'ulot: XIII asrlarda Mo'g'ul davlatining vujudga kelishi.
Ajratilgan vaqt-4 soat.**

Asosiy savollar:

1. XI-XIII asrlarda Mo'g'ul qabilalari.
2. Mo'g'ul davlatining vujudga kelishi.
3. Mo'g'ullarning bosqinchilik yurishlari.
4. Yuan mo'g'ul imperiyasi.

Foydalaniladigan adbiyotlar:

- 4) V.F. Semyonov. O'rta asrlar tarixi. M., 1973.(342-347)
- 5) Kultura epoxa Vozrojdeniya M., Nauka, 1986. (45-49).
- 6) Kultura epoxa Vozrojdeniya i reformatsiya. L., Nauka, 1981.(33-39)

**9- seminar mashg'ulot: XII-XV asrlarda Chexiyada guschilar harakati.
Ajratilgan vaqt – 4 soat.**

Ko'riladigan savollar rejasi:

1. XII-XIII asrlarda Chexiyaning sotsial- iqtisodiy va milliy ziddiyatlarning keskinlashishi.
2. Guschilar harakatining boshlanishi sabablari.
3. Guschilarning olib borgan urushlari va salib yurishlarining ta'siri.
4. Guschilar olib borgan urushlarning tarixiy ahamiyati.

Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha metodik ko'rsatmalar:

Talabalar XII-XV asrlardagi Chexiya va guschilar urushi mavzusini puxta o'zlashtirishlari alohida e'tibor berilishlari lozim. Chexiya davlati X-XI asrlarda rasmiylashib, XII-XIII asrlarda feodal davlatga aylandi. Bu davrda yirik feodallarning votchinalari tashkil topdi. Bu davrda Chexiyaning Muqaddas Rim imperiyasi sostavida ekanligi nemis feodallarining Chexiya ishlariga aralashish imkoniyatini byergan edi. Guschilar urushi masalasini o'rganishda talaba «Taboriylar yurishining boshlanishi» va «Chexiyaga qarshi salib yurishining boshlanishi»ga e'tiborini qaratib, ularni har tomonlama tahlil qilib, ilmiy xulosalar chiqarish lozim. Mavzuni o'rganishda Semyonov V.F. tahriri ostida chiqqan «O'rta asrlar tarixi» T.,1973.(344-357) manbasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalaniladigan adbiyotlar:

- 7) V.F. Semyonov. O'rta asrlar tarixi. M., 1973.(342-347)
- 8) Kultura epoxa Vozrojdeniya M., Nauka, 1986. (45-49).
- 9) Kultura epoxa Vozrojdeniya i reformatsiya. L., Nauka, 1981.(33-39)

**10- seminar mashg'ulot: XVI-XVII asrlarda Polsha.
Ajratilgan vaqt-4 soat.**

Ko'riladigan savollar rejasi:

1. XVI-XVII asrlarda Polshaning iqtisodiy va siyosiy tuzumi.
2. Polshada reformatsiya harakatlarining keng tarqala boshlanishi va qirol hokimiyatining zaiflashib ketish oqibatlari.
3. Polshaga qarshi kazak-dehqonlar va Kostka Napierskiy qo'zg'oloni.

Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha metodik tavsiyalar:

Mazkur mavzuni o'rganishda talaba avvalo XV asrlardagi Polshaning ijtimoiy ahvoli bilan tanish bo'lishlari lozim. Bunda Polshadagi iqtisodiy taraqqiyotning harakterli tomoni shundaki, uning ayrim tumanlari rivojlanmoqda edi. Talaba ushbu muammolarni echishda V.F. Semyonovning «O'rta asrlar tarixi» T.,1973. (234-240) va S.P. Karpova va Z.V. Udaltsova tahriri ostida chiqqan Istoriya srednix vekov M.,1991. (132-136) manbalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

11- seminar mashg'ulot: XVI-XVII asrlarda Shvetsiya.

Ajratilgan vaqt-4 soat.

Ko'riladigan savollar rejasi:

1. Shvetsiyaning Daniya hukmronligidan ozod bo'lishi. Shvedlar reformatsiyasi.
2. XVI-XVII asrlarda Shvetsiyaning tashqi siyosati.

Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha metodik ko'rsatmalar:

Bu mavzuni o'rganishda talaba avvalo Shvetsiyaning ijtimoiy ahvoli bilan tanishishi lozim. Talaba o'rta asrlardagi Shvetsiyadagi reformatsiyaning nima uchun kyerak ekanligini V.F. Semyonovning «O'rta asrlar tarixi» T.,1973. (344-347) tahriri ostida chiqqan manbadan foydalanish tavsiya etiladi. Natijada Shvetsiyaning Daniya hukmronligidan ozod bo'lish shart-sharoitlarini Aniqlashda esa, Istoriia Itali. V.3. M., Nauka,1970.(15-19) kabi manbalardan foydalaniladi.

12- seminar mashg'ulot: XVI-XVII asrlarda Italiya.

Ajratilgan vaqt-4 soat.

Ko'riladigan savollar rejasi:

1. Italiyada iqtisodiy tushkunlikning boshlanishi.
2. Savana rollaning chiqishi. Rimning talanishi.
3. Keyingi uyg'onish. XVI asr italyan madaniyati.
4. Neapolda Mazanello qo'zg'oloni.

Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha metodik ko'rsatmalar:

Mazkur mavzuni, avvalo XI-XV asrlarning boshida Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyoti, siyosiy tuzumi va ijtimoiy ahvolini o'rganishdan boshlash lozim. Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyotining harakterli tomoni shundaki, uning ayrim tumanlari notekis rivojlanmoqda edi. Shu tariqa Fransiya'dagi har xil qo'zg'olonlar, jumladan Parij va Jakyeriya qo'zg'olonlarining vujudga kelish shart-sharoitlarini Aniqlash kyerak. Bunda siz V.F. Semyonovning O'rta asrlar tarixi. T., 1973.(34-41) tahriri ostida chiqqan adabiyot bilan tanish bulishingiz lozim. Mavzuning muammoli tomonlarini tahlil qilish uchun, ya'ni Fransiya'dagi yuz yillik urushning boshlanish

sabablari va uning Fransiya tarixida tutgan o`rnini baholash uchun N.I.Basovskaya. Stoletnyaya voyna 1337-1453gg.M., Vo`sshaya shkola. 1985.(342-346) va Istoriya Frantsii. V3 t.M., Nauka 1990.(21-24) tahriri ostida chiqqan adabiyotlardan foydalanish lozim. Talaba Ushbu manbalardan foydalanayotganda har birsavolga taluqli bo`lgan hujjatlar bilan Birma-bir tanishib, ularni har tomonlama harakterlab byerishi lozim.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. V.F. Semyonov. O`rta asrlar tarixi. T.,1973. (344-349).
- 2.Дневник путешевия к двору Тимура. Ри Гонзелеса де клавиho. (1403-1406). М.,наука 1990. (14-20).
- 3.Истории Италии. В 3. М.,наука.1970.(145-150

VI. Talabalar mustaqil ish topshiriqlari (fan bo'yicha) mavzu ish rejasi, metodik tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati.

Mavzu ish rejasi:

1. O'rta asrlardagi Turkiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy holat.
2. Usmoniylar imperiyasining o'sishi va Turkiyadagi ichki siyosat.
3. XVI-XVII asrlarda Bolqon xalqlarining turklar zulmiga qarshi kurashi.
4. Turkiya imperiyasining tushkunlikka yuz tutishi.

metodik tavsiyalar:

1-reja bo'yicha: Turk qabilalarining Kichik Osiyoga dastlab kirib kelishi mil.ning IV asrlaridayoq boshlangan. XI asrdan turklarning dastlabki davlati vujudga keldi. Keyinchalik Usmoniy turklar davlati Yevropaning ko'plab yerlarini egalladi.

2-reja bo'yicha: XII asr oxirida bogarlar qo'zg'olon ko'tarib Vizantiya hukmronligidan qutuldi. Bunda to'rtinchi salib yurishi eslatiladi. Bolqon yarim orolidagi uchinchi kata davlat – Vizantiya saltanati o'zining oldingi qudratini yo'qotdi.

3-reja bo'yicha: Usmoniylar Bolqon mamlakatlarining kuchsizligiga ishonch hosil qilgandan keyin hujumdan istilochilikka o'tdilar. Ular Vizantiyaning Yevropadagi yer-mulklaridan ma'lum qismini bosib oldi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. V.F. Semenov. O'rta asrlar tarixi T.,1973.(234-236).
2. Д.Е. Еремеев. Испория Туртции. М.,1987.(78-79).
3. З.Д. Удалоцова, С.П. Карпов. Ицория средних веков. Т., 1986. 1-2 т.(34-40).
4. Г.В. Вернадский. Золотая Орда. М., 1977.(11-18).

Mavzu ish rejasi:

1. XII-XV asrlarda Rus davlatining ijtimoiy-siyosiy hayoti.
2. Rusda yer egaligi tarqoqligi.
3. Mo'g'ul-tatar istilosi hamda nemis-shved bosqinchilariga qarshi kurashi.
4. Rus yerlarining Moskva atrofida birlashuvi.

Metodik tavsiyalar:

Ushbu mavzuni o'rganishda avvalom bor Kiev Rusining tashkil topish shart-sharoitlari bilan tanishish lozim. Bunda V.F. Semyonovning O'rta asrlar tarixi. T.,1973. (377-379) iahriri ostida chiqqan adabiyotidan tanish bo'lishi lozim. Keyingi masala, Rus yerlaridagi tarqoqlikning sabablari va uning oqibatlarini ochib byerish darkor. Bunda S.D. Skazkinning Xrestomatiya po istorii srednix vekov. 2-t. Uch.pedgiz.,1960.(77-80) tahriri ostida chiqqan adabiyotni o'qib chiqish tavsiya etiladi. Shundan keyin ruslarning mo'g'ul-tatarlarga qarshi kurashida rus yerlarining Moskva atrofida birlashuvi va Oltin O'rdaning tashkil topish shart-sharoitlarini ochib byerish kyerak. Bu masala bo'yicha 3. V.G. Tizengauzenning Sbornik matyerialov,

otnosyashixsya k istorii Zolotoy Ordio`. M.-L.,1951. t.1-2.(124-127) tahriri ostida chiqqan adabiyot bilan tanishish lozim.

Adabiyotlar ro'xati

1. Люблинская А.Д. Источниковедение истории средних веков Л., 1995.
2. История народов Восточной и Центральной Азии М.,1986.
3. Semyonov V.F. O`rta asrlar tarixi T., 1973.
4. Книга Марко Поло. М., Мысл. Т.,1995.

Mavzu ish rejasi:

1. Fransiyada markazlashgan milliy davlatning tashkil topishi.
2. 1356-1358 yillarda Jakiyeriya va Parij qo`zg`oloni.
3. Yuz yillik urushning boshlanishi.
4. Kaboshiylar harakati.
5. Fransiya va Markaziy osiyo Gilan de Rubrul missiyasi.

Adabiyotlar ro'xati

1. Люблинская А.Д. Источниковедение истории средних веков Л., 1995.
2. История народов Восточной и Центральной Азии М.,1986.
3. Semyonov V.F. O`rta asrlar tarixi T., 1973.
4. Книга Марко Поло. М., Мысл. Т.,1995.

Mavzu ish rejasi:

5. XII-XIII asrlarda Chexiyaning sotsial- iqtisodiy va milliy ziddiyatlarning keskinlashishi.
6. Guschilar harakatining boshlanishi sabablari.
7. Guschilarning olib borgan urushlari va salib yurishlarining ta'siri.
8. Guschilar olib borgan urushlarning tarixiy ahamiyati.

Metodik tavsiyalar:

Talabalar XII-XV asrlardagi Chexiya va guschilar urushi mavzusini puxta o`zlashtirishlari alohida e'tibor byerilishlari lozim. Chexiya davlati X-XI asrlarda rasmiylashib, XII-XIII asrlarda feodal davlatga aylandi. Bu davrda yirik feodallarning votchinalari tashkil topdi. Bu davrda Chexiyaning Muqaddas Rim impyeriyasi sostavida ekanligi nemis feodallarining Chexiya ishlariga aralashish imkoniyatini byergan edi. Guschilar urushi masalasini o`rganishda talaba «Taboriylar yurishining boshlanishi» va «Chexiyaga qarshi salib yurishining boshlanishi»ga e'tiborini qaratib, ularni har tomonlama tahlil qilib, ilmiy xulosalar chiqarish lozim. Mavzuni o`rganishda Semyonov V.F. tahriri ostida chiqqan «O`rta asrlar tarixi» T.,1973.(344-357) manbasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Люблинская А.Д. Источниковедение истории средних веков Л., 1995.
2. История народов Восточной и Центральной Азии М.,1986.
3. Semyonov V.F. O`rta asrlar tarixi T., 1973.
4. Книга Марко Поло. М., Мысл. Т.,1995.

VII. NAZORAT SAVOLLARI:

1. Italiyada shaharlarning yuksalishi qaysi davrlarga to'g'ri keladi?
2. «Plutokratiya» so'zining ma'nosi nima?
3. Uyg'onish (rennesans) qanday jarayon?
4. Ishlab chiqarish xo'jaligining yuza kelishi tufayli qadimgi Misr, Old Osiyo, Kichik Osiyo, Markaziy Osiyo va Sharq xalqlari hayotida qanday muhim o'zgarishlar ro'y berdi?
5. Uzoq o'lkalarni o'zlashtirish kimlar tomonidan boshlandi?
6. Buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanish sabablari?
7. Gyermaniyada tushkunlikning asosiy omillari nimalardan iborat edi?
8. Gyermaniyadagi siyosiy tarqoqlikning sababalari?
9. Chexiyada birinchi seym qachon bo'lib o'tdi?
10. 1648 yilda Chexiyadagi qo'zg'olonning asl maqsad va sabablarini ayting?
11. Vestfaliya sulhining mohiyati nimalardan iborat edi?
12. O'ttiz yillik urushning oqibatlari?
13. Gyermaniyaning urushdan keyingi ijtimoiy ahvoli?
14. Kosovo maydonidagi jang oqibatlarini aniqlang?
15. Buyuk geografik kashfiyotlarni yuzaga keltirgan vaziyatni qanday tushunasiz?
16. Yevropadagi o'ttiz yillik urush Sharqqa o'z ta'sirini o'tkaza oldimi?
17. O'ttiz yillik urushni Yevropada yer egaligi munosabatlarining inqirozi desa bo'ladimi?
18. Yevropadagi gabsburglarning agressiv siyosati nimalardan iborat edi?
19. Yevropaliklar nima uchun Hindistonni bitmas-tugamas xazinalar diyori deb hisoblaganlar?
20. Kashf qilingan mamlakatlarni bosib olishda kimlar va nima maqsad bilan qatnashdi?
21. Evropa mamlakatlari tarixida renessansning yuzaga kelishi qaysi davrga to'g'ri keladi?
22. Uyg'onish davrining boshlanishiga turtki bo'lgan omillar?
23. Buyuk geografik kashfiyotlarga bo'lgan izlanishlar Sharqda qachon boshlandi?
24. Buyuk geografik kashfiyotlarning oqibatlari nima bo'ldi?
25. XII-XVI asrlarda Bolqon yarim orolida Usmoniy turklar kimlar bilan to'qnashdi?
26. O'rta asrlarda Turkiyadagi ijtimoiy – iqtisodiy holat qanday edi?
27. Usmoniylar impyeriyasining o'sishi Turkiyadagi ichki siyosatga qanday ta'sir ko'rsatdi?
28. XI – XIII asrlarda mo'g'ul qabilalari necha turga bo'linadi?
29. Shvetsiyaning idora qilinishi va reformatsiyasi haqida nimalarni bilasiz?
30. Uchinchi salib yurishiga kim boshchilik qildi?
31. Uyg'onish davri madaniyati rivojlanishi qaysi o'tmish davrini takrorlaydi?
32. Sharqda uyg'onish davri asosan qaysi asrlarni o'z ichiga oladi?
33. Uyg'onish davrining buyuk matematigi va buyuk injener hisoblangan fan arbobi kim edi?
34. Gumanizm atamasini izohlab bering?
35. Xristofor Kolumb kashfiyoti haritada qanday nomlanadi?

36. Kiev Rusida feodal tarqoqlikning sabablarini ayting?
37. Moskva shahriga kim va qachon asos solgan?
38. 1277-1280 yillardagi dehqonlar urushi mohiyatini ayting?
39. Ikkinchi Bolgariya podsholigi kim tomonidan ishg`ol qilindi?
40. Evropa sayyohatchi olimlarning kashfiyotlarini mohiyatini ochib byering?
41. O`rta asrlarda Frank davlati?
42. Vizantiya impyeriyasining tashkil topish shart-sharoitlarini ayting?
43. VII –VIII asrlarda Vizantiyadagi ijtimoiy- iqtisodiy tuzumga baho byering?
44. «Eparx kitobi» O`rta asrlarda Vizantiyaning qaysi tuzumini yoritib byeradi?
45. XI asr o`rtlarida vizantiyaning tashqi siyosatiga baho byering?
46. G`arbiy va Markaziy Evropada ilk feodalizmning shakillanish omillarini ayting?
47. Feodal iyerarxiya tartibini qanday tushunasiz?
48. Fransiya qirolligining tashkil topish shart-sharoitlarini ayting?
49. Italiyaning siyosiy tarqoqligining kelib chiqish omillarini ko`rsating?
50. O`rta asrlarda Muqaddas Rim impyeriyasining tashkil topish shart-sharoitlarini ayting?
51. Saksoniya qo`zg`oloni mohiyatini ayting?
52. Shimoliy Evropada «Vikinglar davri» qachon boshlandi?.
53. Vikinglar yurishiga umumiy tasnif Byering?
54. Skandinaviya davlatlarida feodal munosabatlarning paydo bo`lishi omillarini ko`rsating?
55. IX-XI asrlarda Angliyada ijtimoiy tabaqalanishni ayting?
56. O`rta asrlarda Ispan xristian davlatlarining paydo bo`lish shrt-sharoitlarini ayting?
57. VI-VIII asrlarda arablardagi ijtimoiy tuzumga baho bering?
58. Arablarda ilk davlatchilikning vujudga kelish shart-sharoitlarini aniqlang?
59. Arab xalifaligida feodal mulkchilikning rivojlanish bosqichlarini ko`rsating?
60. Bog`dodda abbosiylar xalifaligining vujudga kelish shart-sharoitlarini ayting?
61. Ilk o`rta asrlarda Xitoyda feodal munosabatlarning uvjudga kelishi va rivojlanishida Xan impyeryasining ta'siri?
62. VI-VII asrlarda Xitoyning birlashishi va yuksalishining tarixiy ahamiyati?
63. V-XI asrlarda Yaponiyada feodal munosabatlarning vujudga kelish shart-sharoitlari?
64. O`rta asrlarda Yaponiyaga buddizmning kirib kelish shart-sharoitlari?
65. Ilk o`rta asrlarda Xindistonning ijtimoiy-hayotiga baho Byering?
66. IX –XI asrlarda Rus davlatining tashkil topishidagi shart-sharoitlarni ayting?
67. Salb yurishining sabablarini ayting?
68. Salb yurishining jahon tarixidagi hamiyatini ko`rsating?
69. «Daxshatli sud kitobi» ning yaratilishida Angliyadagi ijtimoiy tuzumga baho Byering?
70. O`rta asrlarda Angliyadagi Oq va Qizil gullar urushining tarixiy ahamiyatini ayting?

VIII. O'RTILGAN MAVZULAR BO'YICHA YAKUNIY XULOSALAR:

Rivojlangan yyer egaligiga o'tish davridagi shart-sharoitlar bo'yicha intyektiv usullar yordamida quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

1. Ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi o'rta asrlarda G'arbiy va Markaziy Yevropaga xos bo'lib qolmasdan jahon tarixiga, ya'ni Sharq xalqlari tarixiga ham bog'liqligi ochib byerildi.

2. Shuning o'zi bilan Yangi zamondagi burjua maorifini ravnaq toptirish uchun na qadimgi Dune, na o'rta asrlarda sira ko'rilmagan juda qulay texnika shartqsharoitlari vujudga keldi.

3. Yevropada yer egaligi munosabatlaridan Yangi ishlab chiqarish bosqichiga qadam qo'yish bilan bog'lansa, Sharqda esa xalifalikning savdo maydonlarining kengayishi va shaharlar tarmog'ining o'sishiga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'lanadi.

4. Buyuk geografik kashfiyotlar davrigacha yer yuzasini o'rganish uchu emas, balki yaqin atrofdagi qulay o'lkalarni o'zlashtirish uchun urinish edi xolos.

5. Bolqon yarim oroli xalqlarining istilochi usmoniylarga qarshi kurashining Yevropa miqyosida baholash va istilochilarning natijalari echiladi.

6. Ikkinchi Bolgariya podsholigining yuzaga kelishi Sharqdagi qaysi voqea bilan bog'liqligini ko'rib chiqi shva unga salibchilar yurishining ahamiyatli tomonlarini o'rganib chiqish maqsadga muvofiq.

7. Usmoniy turklarning Bolqon yarim oroli xalqlari ustidan qozongan g'alabasining tarixiy ahamiyati echiladi.

8. Mavzudagi muhim masala-chex xalqining gabsburglar hokimiyatiga qarshi kurashidir. Natijada Chexiya Yana impyeriya tarkibiga kirdi.

9. Etilib kelayotgan birinchi umum Yevropa urushida honavayron bo'lgan Gyermaniya chet El kuchlari o'zaro to'qnashadigan asosiy maydonga aylanib qoldi.

10. 1618-1620 yillardagi qo'zg'olon asosiy nuqta bo'lib, o'ttiz yillik urushning asosiy sababchisi bo'ldi va shuning uchun ham xalqaro ahamiyatga aylanib qoldi.

11. Eramizning V-VI asrlarida Evropada tashkil topgan qirolliklar keyinchalik vujudga kelgan milliy davlatlarning kurtagi bo'ldi.

12. VII-IX asrlarda Evropada ham slavyan davlatlari tashkil topdi, bu davlatlar keyingi vaqtda vujudga kelgan qadimgi ulug' Kiev Rusi davlatining bevosita o'tmishdoshi edi.

IX. Fan bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar.

O`rta asrlar davri insoniyat tarixida ko`p va xilma – xil voqealar vaqti deb hisoblanadi. Ushbu davrda iqtisodiy – ijtimoiy hayotni yangi xilma – xil turlari vujudga kelishi va rivojlanishi muammolari ko`rib chiqiladi. O`rta asrlar davrida chet el bosqinchilariga qarshi xalq harakatlariga misollar juda ko`p. Jahon madaniyati xazinasini o`rta asrlar davrining yozuvchilar rassomlar vashoirilar asarlari va xalq ijodi boyitgan. V-XI asrlarda ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi o`rta asrlarda G`arbiy va Markaziy Yevropaga xos bo`lib qolmasdan, balki Sharq xalqlari tarixiga ham bog`liqligini ochib berish.

O`rta tarix yoki ko`proq o`rta asrlar tarixi deb atalgan tarixning xronologik chegaralari turli vaqtlarda turlicha belgilanib kelgan. Ba'zi tarixchilar o`rta asrlar tarixi Konstantin Buyuk podsholik qilgan davrdan asr boshlaridan boshlanib 1453 yilda Konstantinopolning qulashi bilan tamom bo`ldi.

O`rta asrlardagi Sharq tarixini, ya'ni feodal davrining o`ziga xos barcha tipik va harakterli xususiyatlari bilan birga qo`shib olgandagi tarixini yoritishda sovet sharqshunoslarining asarlari, shuningdek, Sharq mamlakatlarining arab davlatlari, Xindiston, UzoqSharq mamlakatlarining o`z tarixchilarining eng yangi asarlari katta o`rin egallaydi. Shu jumladan sharqda feodalizmning ilk vujudga kelganligini aniqladilar va bu yerdagi feodalizm G`arbdagi xuddi shu ijtimoiy tuzumga qaraganda ancha uzoqroq yashagan. Shu bilan birga, Sharq mamlakatlaridagi feodalizm Evropadagi feodalizmga qaraganda bir qancha xususiyatlarga ega ekanligini echish, hamda Sharq mamlakatlarining bu xususiyatlaridan eng avvalo uning o`ziga xos ikkita xususiyatlarini qayd qilib o`tmoq zarur.

X. Informationsion – uslubiy ta’minot.

10.1. Asosiy adabiyotlar (darslik va qo’llanmalar)

1. Люблинская А.Д. Источниковедение истории средних веков Л., 1995. 12 с.
2. Semyonov V.F. O`rta asrlar tarixi T., 1973. 32 с.
3. Грановский Т.Н. лекции по истории средневековья. М., МГУ., 1986. 45 с.
4. Басовская Н.И. Столетняя война 1337-1453гг. Высшая школа. 1985. 140 с.
5. Вернадский Г.В. Золотая Орда, Египет, Византия и их взаимоотношения в царствовании Михаила Палолога. М., 1927. 210 с.
6. Сказкин С.Д. «Хрестоматия по истории средних веков» Т., 1973. 56-78 с.
7. Алексеев В.М. Тринадцатилетняя война. Л., ЛГУ. 1961. 98-104 с.
8. История средних веков (Под ред. З.В. Удалтсевой и С.П. Карпова. 1-2ч. М., Высшая школа., 1991. 53-94 с.
9. Левиндовский А.П. Жанна д Арк. 2-е изд. Мысл. 1982. 80-110 с.

10.2. Qo’shimcha adabiyotlar (ilmiy adabiyotlar)

1. История народов Восточной и Центральной Азии М., 1986. 60-75с.
2. История Франции. В 3 М., наука., 1990. 45-85 с.
3. История Арабского халифата. 60-72 с.
4. Хрестоматия по истории средних веков. 2-том. Учпедгиз. 13-23 с.
5. Книга Марко Поло. М., Мысл. Т., 1995. 41-54 с.
6. Путешествия Христофора Колумба. Дневник, письма, документы. М., наука. 1961. 82-93 с.
7. Тизегаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. Спб. М_Л., 1941, т.1-2. 90-120 .

10.3. Internetdan olish mumkin bo’lgan ma’lumotlar saytlari.

1. [www. Bank referatov.ru](http://www.Bankreferatov.ru)
2. [www. Rubricom.com](http://www.Rubricom.com)
3. [www. Baakasha.com](http://www.Baakasha.com)
4. [www. Vsekarty.narod.ru](http://www.Vsekarty.narod.ru)
5. [www. Tours.ru](http://www.Tours.ru)

XI. Mundarija

1. So'z boshi.....	3-4
2. Ishchi dastur.....	5-10
3. Fan bo'yicha reyting ishlanmasi va baholash mezonlari.....	11
4. Leksiyalar kursi.....	12-71
5. Amaliy va seminar mashg'ulotlari.....	72-78
6. Talabalar mustaqil ish topshiriqlari.....	79-80
7. Nazorat savollari.....	81-82
8. O'tilgan mavzular bo'yicha yakuniy xulosalar.....	83
9. Fan bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar.....	84
10. Infjrmatsion – uslubiy ta'minot.....	85
11. Mundarija.....	86